



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

OLIY TA'LIM TASHKILOTLARINI KOMPLEKS DAVLAT AKKREDITASIYASIDAN

O'TKAZISHGA TAYYORGARLIK KO'RISH BO'YICHA

QO'LLANMA



www.nqaee.uz

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

**Oliy ta'lim tashkilotlarini
KOMPLEKS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha
QO'LLANMA**

Toshkent-2026

Mazkur qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yuritayotgan davlat va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan, ularning idoraviy mansubligi va tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, ta'lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish jarayonida ichki (o'zini o'zi) baholashni samarali tashkil etish maqsadida tavsiya etiladigan uslubiy qo'llanma hisoblanadi.

Qo'llanma bitiruvchilari mavjud bo'lgan oliy ta'lim tashkilotlarini davlat ta'lim standartlari va akkreditatsiya mezonlariga muvofiqligini baholash, shuningdek, ta'lim tashkilotining umumiy faoliyatini takomillashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirishga qaratilgan nazariy va amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Qo'llanmada oliy ta'lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasining har bir baholash yo'nalishi, mezoni va indikatori kesimida tahlil qilish, zarur ma'lumotlarni shakllantirish hamda baholash natijalarini asoslovchi tegishli dalil va hujjatlarni aniqlash tartibi bayon etilgan.

Mazkur qo'llanma oliy ta'lim tashkilotlarining rahbarlari, ta'lim sifatini ta'minlash bo'linmalari mas'ullari va professor-o'qituvchilari uchun ta'lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishga tayyorlashda amaliy va uslubiy qo'llanma sifatida xizmat qiladi.

MUNDARIJA

Qo'llanilgan qisqartma so'zlar	5
KIRISH.....	6
ASOSIY TUSHUNCHA VA ATAMALAR	8
KOMPLEKS DAVLAT AKKREDITATSIYASI UCHUN ARIZANI RASMIYLASHTIRISH	9
ICHKI BAHOLASH HISOBOTINI SHAKLLANTIRISH	10
BAHOLASH YO'NALISHI, MEZON VA INDIKATORLARI BO'YICHA NATIJALARNI HISOBLASH	12
ICHKI BAHOLASH HISOBOTINI KO'RIB CHIQISH.....	13
TA'LIM TASHKILOTINI BAHOLASH YO'NALISHLARI, MEZONLARI VA INDIKATORLARI.....	15
I. Tashkiliy-boshqaruv faoliyati yo'nalishi	15
II. Ta'lim sifatini ta'minlash yo'nalishi.....	31
III. Talabalar faoliyati yo'nalishi	44
IV. O'quv jarayonini tashkil etish yo'nalishi	58
V. Inson resurslari yo'nalishi	69
VI. Ilmiy-tadqiqot ishlari yo'nalishi	84
VII. Talabalarni qo'llab-quvvatlash yo'nalishi	105
VIII. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi	118
ICHKI BAHOLASH NATIJALARI BO'YICHA XULOSA	138
ILOVA: TA'LIM TASHKILOTI BO'YICHA ICHKI BAHOLASH HISOBOTI SHAKLI	139
1-jadval.....	143
2-jadval.....	144
3-jadval.....	145
4-jadval.....	146
4.a-jadval	148
5-jadval.....	149
6-jadval.....	150
7-jadval.....	151
8-jadval.....	152
9-jadval.....	153
10-jadval.....	155
11-jadval.....	156
11.a-jadval	157
12-jadval.....	158

13-jadval.....	159
14-jadval.....	161
14.a-jadval.....	162
15-jadval.....	164
15.a-jadval.....	166
15.b-jadval.....	167
16-jadval.....	168
17-jadval.....	169
18-jadval.....	170
TA'LIM SIFATINI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI REJASI	171
QAYDLAR UCHUN	172

Qo'llanilgan qisqartma so'zlar

Qisqartmalar	Mazmuni
ARM	Axborot resurs markazi
AKT	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari
DTS	Davlat ta'lim standarti
HEMIS	Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi
LMS	Ta'limni boshqarish tizimi
OTT	Oliy ta'lim tashkiloti

KIRISH

Ushbu qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim sifatini ta'minlash va ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2025-yil 5-maydagi PF-76-son Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizomda belgilangan vazifalardan kelib chiqib, kompleks davlat akkreditatsiyasi jarayonlarida ichki (o'zini o'zi) baholashni samarali tashkil etish hamda ta'lim tashkilotlarining mas'ul vakillariga uslubiy ko'mak berish maqsadida ishlab chiqilgan.

Shuningdek, qo'llanmada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi direktorining 2025-yil 2-dekabrdagi "Oliy ta'lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishda baholash mezonlari bo'yicha indikatorlarni tasdiqlash haqida"gi 5-son buyrug'i (ro'yxat raqami: 3732) bilan tasdiqlangan indikatorlar bo'yicha tegishli ma'lumotlarni taqdim etishga doir uslubiy tavsiyalar keltirilgan.

Qo'llanma ta'lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish jarayonini yagona talablar asosida tashkil etish, baholash yo'nalishlari, mezonlari va zarur hujjatlarni aniq belgilash hamda ta'lim tashkilotlariga ichki (o'zini o'zi) baholash hisobotini to'g'ri shakllantirish, asoslantiruvchi hujjatlarni yig'ish va tashqi baholash jarayoniga samarali tayyorgarlik ko'rishga metodik yordam beradi.

Ichki baholash hisobotini tayyorlash bo'yicha yagona yondashuvlarga rioya qilinishi ta'lim tashkiloti va tashqi baholash uchun ekspert komissiyalarining ish samaradorligini oshiradi hamda osonlashtiradi.

Ichki baholash jarayonining o'tkazilishidan maqsad ta'lim tashkilotini har tomonlama va chuqur tahlil qilishdan iborat bo'lib, kelgusida uning samaradorligini oshirish uchun foydalaniladi. Ichki baholash jarayonida ta'lim tashkilotini tahliliy va tanqidiy baholash amalga oshiradi.

Ichki baholash hisoboti tegishli baholash yo'nalishlari va mezonlariga muvofiq ma'lumotlarni tahlil qilishga bag'ishlangan qismlar va boblardan iborat tahliliy ma'lumotnoma shaklida tayyorlanadi.

Ta'lim tashkilotining ichki baholash hisobotidan ekspert komissiyalari tashqi baholash jarayonida to'liq ma'lumot olish va sifatni baholash uchun foydalanadi.

Ichki baholash hisobotini tayyorlash maqsadida ta'lim tashkiloti tomonidan ma'muriyat, professor-o'qituvchilar, kamida bitta talaba vakili, shuningdek ish beruvchilar va (yoki) ijtimoiy hamkorlar vakillaridan iborat ishchi guruh tuzilib, baholash amalga oshirilishi mumkin.

Ichki baholash hisobotini tayyorlashda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- hisobotni mazkur qo'llanmada belgilangan ketma-ketlikda shakllantirish;
- taqdim etilayotgan har bir hujjat va ma'lumotni aniq, tushunarli hamda dalillar bilan asoslash;
- davlat tili qoidalar va talablariga amal qilish;
- rasmiy muomalada keng qo'llaniladigan so'z va atamalardan foydalanish;
- istiqbolli rejalar, loyihalar va kutilayotgan natijalarni aniq ko'rsatish;
- har bir baholash mezoni va indikatorlari bo'yicha qisqa, aniq hamda dalillarga asoslangan tahliliy ma'lumotlarni kiritish.

Mazkur qo'llanma tavsiyaviy xarakterga ega bo'lib, ta'lim tashkilotlaridan kelib tushadigan taklif va mulohazalar asosida bosqichma-bosqich takomillashtirib boriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi (keyingi o'rinlarda – Agentlik) davlat akkreditatsiyasini o'tkazish bo'yicha maxsus vakolatli organ hisoblanadi.

ASOSIY TUSHUNCHA VA ATAMALAR

Ta'lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish bilan bog'liq hujjatlarni shakllantirishda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (23.09.2020, O'RQ-637-son), qonunosti hujjatlari hamda tegishli normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan asosiy tushuncha va atamalardan foydalanilishi shart.

Shuningdek, kompleks davlat akkreditatsiyasining ichki baholash hisobotini shakllantirish Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan nizom hamda mazkur qo'llanmada qo'llanilgan asosiy tushuncha va atamalar asosida amalga oshiriladi.

Davlat akkreditatsiyasi jarayonida quyidagi tushuncha va atamalardan foydalaniladi:

davlat akkreditatsiyasi – ta'lim tashkiloti faoliyati davlat ta'lim standartlari (talablari) va ta'lim dasturlariga muvofiqligini aniqlashga qaratilgan kompleks yoki maxsus akkreditatsiyani o'z ichiga oluvchi jarayon;

baholash yo'nalishi – davlat akkreditatsiya doirasida sifat va samaradorlikni baholash uchun belgilangan asosiy yo'nalishlar majmui bo'lib, boshqaruv, ta'lim sifati, o'quv jarayoni, inson resurslari, ta'lim oluvchilar faoliyati va ularni qo'llab-quvvatlash, Ilmiy-tadqiqot ishlari hamda moddiy-texnik baza kabi yo'nalishlarni qamrab oladi;

mezon – muayyan baholash yo'nalishida sifatga qo'yiladigan minimal talablar va standartlar majmui;

indikator – belgilangan mezon bajarilishini aniq, o'lchab bo'ladigan va Asoslantiruvchi dalil(lar) bilan tasdiqlanadigan ko'rsatkich;

ichki baholash hisoboti – ta'lim tashkiloti tomonidan davlat akkreditatsiyasiga tayyorgarlik jarayonida tayyorlanadigan hujjat bo'lib, unda ta'lim tashkilotining baholash yo'nalishlari, mezonlari va indikatorlariga muvofiqligi yuzasidan tahlillar, dalillar hamda xulosalar keltiriladi;

ta'lim tashkiloti – oliy ta'lim tashkiloti;

asoslantiruvchi dalil(lar) – mezon yoki indikatorlarga tegishli hujjatlar, ma'lumotlar, statistika, jarayonlar, qarorlar, foto/video materiallar yoki boshqa aniq asoslar.

KOMPLEKS DAVLAT AKKREDITATSIYASI UCHUN ARIZANI RASMIYLASHTIRISH

Kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish to'g'risida arizalar Agentlikning Ta'lim tashkilotlarini davlat akkreditatsiyadan o'tkazish va reytingini yuritish bo'yicha **"accreditation.nqaae.uz"** axborot tizimi orqali elektron shaklda qabul qilinadi.

Ta'lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish to'g'risidagi arizalar ta'lim tashkilotining akkreditatsiyadan o'tganlik to'g'risidagi oxirgi sertifikat muddati tugaydigan o'quv yilidan oldingi o'quv yilining **15-sentabriga qadar** qabul qilinadi.

Davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish to'g'risidagi arizani shakllantirish, qo'shimcha hujjatlarni taqdim qilish va ularni ko'rib chiqish Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori bilan tasdiqlangan nizomda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Ta'lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishda ta'lim tashkilotining vakili (ariza beruvchi) belgilangan talablar asosida ariza topshirish, yig'implarni belgilangan muddatlarda to'lash, Agentlik va ta'lim tashkiloti o'rtasida shartnomani rasmiylashtirish, ekspert komissiyasining joyiga chiqqan holdagi faoliyati hamda Akkreditatsiya komissiyasi tomonidan qaror qabul qilinishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek ma'lumotlarni belgilangan muddatlarda taqdim etish uchun mas'ul hisoblanadi.

ICHKI BAHOLASH HISOBOTINI SHAKLLANTIRISH

Ta'lim tashkiloti tomonidan tayyorlangan ichki baholash hisobotida davlat akkreditatsiyasi mezonlari asosida ta'lim tashkilotining real holati dalillarga tayangan holda tahlil qilinadi, baholanadi hamda uni takomillashtirish choralari belgilanadi. Unda keltirilgan ma'lumotlardan ekspert komissiyalari tomonidan ta'lim tashkilotini tashqi baholash jarayonlarida foydalaniladi.

Ichki baholash hisoboti ta'lim tashkilotining davlat ta'lim standartlari va akkreditatsiya mezonlariga muvofiqligini baholash, uning kuchli hamda takomillashtirilishi lozim bo'lgan jihatlarini aniqlash, ta'lim sifatini doimiy yaxshilashga qaratilgan xulosa va takliflarni shakllantirish, shuningdek kompleks davlat akkreditatsiyasi uchun ishonchli dalillar bazasini yaratish maqsadida tuziladi.

Akkreditatsiya yo'nalishlari, mezonlari va indikatorlariga qat'iy muvofiqlikni ta'minlash maqsadida hisobot amaldagi kompleks davlat akkreditatsiyasi baholash tuzilmasiga mos bo'lishi shart. Bunda har bir indikator bo'yicha amaldagi holat, dalillar, xulosa hamda takomillashtirish choralari aniq yoritilishi lozim.

E'TIBOR BERING!!!

– oliy ta'lim tashkilotini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish jarayonida uning ta'lim dasturlari “Oliy ta'lim tashkilotlarining ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishda baholash mezonlari bo'yicha indikatorlar” (01.12.2025, ro'yxat raqami 3716) asosida baholanadi;

– oliy ta'lim tashkilotini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish jarayonida har bir ta'lim dasturi bo'yicha ichki baholash hisobotlari Oliy ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha qo'llanmada keltirilgan jadvallar asosida shakllantiriladi;

– ichki baholash hisobotini to'g'ri shakllantirishda mazkur qo'llanmaning “Ta'lim tashkilotini baholash yo'nalishlari, mezonlari va indikatorlari” bo'yicha tavsiya etilgan savollar hamda asoslantiruvchi dalil(lar)dan foydalangan holda aniq va asoslangan ma'lumotlar kiritilishi lozim;

– kiritilgan ma'lumotlar va ularni tasdiqlovchi hujjatlar elektron shaklda platformaga yuklanishi shart.

Ichki baholash hisobotida daliliy asoslar bilan tasdiqlanmagan umumiy ma'lumotlar hisobot sifatida qabul qilinmaydi.

Har bir baholash xulosasining rasmiy hujjatlar, statistik ma'lumotlar, hisobotlar, so'rovnoma natijalari hamda fikr-mulohazalar tahliliga asoslanganligi (evidence-based approach) ta'minlanishi shart.

Hisobotning haqqoniyligi va tanqidiy yondashuvini ta'minlash maqsadida u real holatni aks ettirishi, sun'iy yuqori baholashdan xoli bo'lishi, kamchiliklar ochiq va aniq ko'rsatilishi, ularning sabablari tahlil qilinishi hamda aniq yechimlar taklif etilishi lozim.

Hisobotni milliy va xalqaro standartlar bilan uyg'un holda, davlat ta'lim standartlari, milliy malaka ramkasi, akkreditatsiya mezonlari hamda xalqaro yondashuvlar asosida shakllantirish maqsadga muvofiq.

Ta'lim natijalari aniq, o'lchanadigan va tekshiriladigan bo'lishi, kasbiy standartlar hamda mehnat bozori ehtiyojlari bilan uzviy bog'liq bo'lishi, shuningdek bitiruvchilarning ishga joylashuvi, amaliyot o'tashi va dual ta'lim natijalari tahlil qilinishi lozim.

Hisobotda keltirilgan ma'lumotlarning dolzarbligini ta'minlash maqsadida ta'lim oluvchilar, pedagoglar, ish beruvchilar, bitiruvchilar hamda boshqa manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalari inobatga olinishi shart.

Hisobot ta'lim tashkiloti rahbari tomonidan tasdiqlanadi, elektron (zarur hollarda qog'oz) shaklda saqlanadi hamda Agentlikka tayyor holatda platforma orqali taqdim etiladi.

**BAHOLASH YO'NALISHI, MEZON VA INDIKATORLARI BO'YICHA NATIJALARNI
HISOBLASH**

Baholash mezonlari majburiy va umumiy indikatorlarga bo'linadi hamda "muvofiq" yoki "muvofiq emas" tarzida baholanadi.

Mezon tarkibidagi mavjud majburiy indikator (majburiy indikatorlardan biri) "muvofiq emas" deb topilsa, umumiy natijadan qat'i nazar, ushbu mezon "muvofiq emas" deb baholanadi.

Tashqi baholash mezonlari majburiy va umumiy mezonlarga bo'linadi hamda har bir mezon "muvofiq", "qisman muvofiq" yoki "muvofiq emas" deb baholanadi.

Tashqi baholash mezonlari majburiy va umumiy indikatorlar bo'yicha quyidagi tartibda aniqlanadi:

70 foiz va undan ortiq indikatorlar "muvofiq" deb baholansa — mezon "muvofiq";

50 foizdan 70 foizgacha indikatorlar "muvofiq" deb baholansa — mezon "qisman muvofiq";

50 foizgacha indikatorlar "muvofiq" deb baholansa — mezon "muvofiq emas" deb baholanadi.

Ekspert komissiyasi tomonidan ta'lim tashkiloti har bir baholash yo'nalishi bo'yicha baholanadi.

Har bir baholash yo'nalishi "muvofiq" yoki "muvofiq emas" deb e'tirof etiladi. Bunda har bir baholash yo'nalishi quyidagi shartlar bajarilganda "muvofiq" deb baholanadi:

majburiy mezonlarning barchasi "muvofiq" deb baholanganda;

umumiy mezonlarning ko'pi bilan ikkitasi "qisman muvofiq" deb baholanganda;

"muvofiq emas" deb baholangan mezonlar mavjud bo'lmaganda.

Akkreditatsiya komissiyasi tomonidan har bir baholash yo'nalishi "muvofiq" deb e'tirof etilganda, ushbu ta'lim tashkiloti "davlat akkreditatsiyasidan o'tdi" deb, "muvofiq emas" deb e'tirof etilganda esa "davlat akkreditatsiyasidan o'tmadi" deb qaror qabul qilinadi.

ICHKI BAHOLASH HISOBOTINI KO'RIB CHIQISH

Ta'lim sifatini tashqi baholash uchun Agentlik tomonidan ekspert komissiyalari tashkil etiladi. Ekspert komissiyalari ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarning xususiyatidan kelib chiqqan holda tuziladi.

Ekspert komissiyalari tarkibi ta'lim tashkilotlarining pedagog va rahbar xodimlari, ilmiy-tadqiqot institutlarining yetakchi olimlari, respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mas'ul xodimlari, tegishli ishlab chiqarish tashkilotlarining mutaxassislari, nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari hamda talaba (o'quvchi)lar orasidan shakllantiriladi. Ekspert komissiyalari tarkibiga xorijiy ekspertlar jalb etiladi.

Ekspert komissiyalarining vazifalari quyidagilardan iborat:

ichki baholash natijalari bo'yicha olingan ma'lumotlarni ekspertizadan o'tkazish hamda tashqi baholashni amalga oshirish;

ta'lim tashkilotidagi ta'lim sifati va mazmunining davlat ta'lim standartlari(talablari), akkreditatsiya mezonlariga muvofiqligi hamda ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlarining sifati va samaradorligini baholash;

ta'lim sifatini oshirish va ta'lim xizmatlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar berish hamda tashqi baholash natijalari yuzasidan hisobotni tayyorlash va Akkreditatsiya komissiyasiga taqdim etish.

Ichki baholash hisoboti **mazkur qo'llanmaning ilovasida keltirilgan namuna** asosida shakllantiriladi.

Ta'lim tashkiloti ichki baholash natijasida shakllantirilgan hisobot va unga tegishli materiallarni tasdiqlangan holda elektron va (yoki) qog'oz shaklida tashqi baholash boshlanishidan kamida **ikki oy oldin** Agentlikka platforma orqali taqdim etadi.

Ekspert komissiyalari ichki baholash hisobotini o'rganadi hamda undan tashqi baholash jarayonida foydalanadi. Ta'lim tashkilotini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish ekspert komissiyasi tomonidan joyiga chiqqan holda, **o'n ish kunidan oshmagan muddatda** amalga oshiriladi.

Tashqi baholash jarayonida ichki baholash hisobotida haqqoniy bo'lmagan ma'lumotlar aniqlanishi, shuningdek, belgilangan muddatlarda hujjatlarning taqdim qilinmasligi yoki kamchiliklarning bartaraf etilmasligi davlat akkreditatsiyasidan o'tkazmaslik uchun asos bo'ladi.

Dastlabki hisobot tashqi baholash natijalari asosida ekspert komissiyasi tomonidan **o'n besh ish kuni ichida** tayyorlanadi hamda uning xulosasi Agentlik orqali ta'lim tashkilotiga taqdim etiladi.

Ta'lim tashkiloti dastlabki hisobot xulosasi yuzasidan asoslantirilgan taklif va e'tirozlarini **uch ish kuni ichida** Agentlikka rasman taqdim etadi. Mazkur taklif va e'tirozlar asosida ekspert komissiyasi tomonidan **uch ish kuni ichida** yakuniy hisobot tayyorlanadi.

Ekspert komissiyasi tomonidan kompleks davlat akkreditatsiyasida ta'lim tashkiloti bo'yicha hisobot tayyorlanadi.

Ta'lim tashkiloti tomonidan taqdim qilingan ichki baholash hisoboti asosida ekspert komissiyasi joyiga chiqmasdan, masofaviy shaklda tashqi baholashni amalga oshirishi mumkin.

TA'LIM TASHKILOTINI BAHOLASH YO'NALISHLARI, MEZONLARI VA INDIKATORLARI

Oliy ta'lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishning **8 ta baholash yo'nalishi** doirasida **47 ta mezon** hamda ularni tavsiflovchi **272 ta indikator** mavjud.

Kompleks davlat akkreditatsiyasi bitiruvchilari mavjud bo'lgan oliy ta'lim tashkilotlari uchun tatbiq etiladi.

Mazkur qo'llanmada  belgisi bilan majburiy mezonlar, * belgisi bilan majburiy indikatorlar ajratib ko'rsatilgan.

I. Tashkiliy-boshqaruv faoliyati yo'nalishi

Izoh: Ta'lim tashkilotining strategik maqsadlarini amalga oshirish, samarali boshqaruv tizimini yo'lga qo'yish, resurslardan maqsadli foydalanish va ta'lim sifatini ta'minlash orqali barqaror faoliyatni ta'minlashga qaratilgan faoliyat baholanadi.

1. MEZON: Ta'lim tashkilotida Boshqaruv (Kuzatuv, Vasiylik) kengashining (bundan buyon matnda Boshqaruv kengashi deb yuritiladi) tashkil etilgani va uning faoliyati samaradorligi 

Izoh: Ta'lim tashkilotida Boshqaruv (Kuzatuv, Vasiylik) kengashi (bundan buyon matnda Kengash deb yuritiladi) hamda oliy ta'lim tashkiloti kengashi (bundan buyon matnda OTT kengashi) qonunchilik talablariga muvofiq tashkil etilganligi, ularning vakolatlari, tarkibi va faoliyat yuritish tartibi aniq belgilanganligi, rahbariyat va moliyaviy boshqaruv ustidan samarali nazoratni amalga oshirishi, ochiqlik va shaffoflik tamoyillariga amal qilishi hamda ta'lim sifati va tashkilot rivojlanishiga qo'shayotgan hissi baholanadi.

1.1. INDIKATOR

Boshqaruv kengashi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasasining vasiylik kengashi to'g'risidagi Namunaviy nizomni tasdiqlash haqida" 2014-yil 23-maydagi 129-son qaroriga muvofiq tashkil etilgan

Yordamchi savollar:

❖ Boshqaruv kengashi qanday huquqiy asosda tashkil etilgan va uning faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 23-maydagi 129-son qaroriga muvofiqligi qanday ta'minlangan?

❖ Boshqaruv kengashining tarkibi va vakolatlari qanday tartibda shakllantirilgan hamda ular Namunaviy nizom talablariga qay darajada mos keladi?

❖ Boshqaruv kengashi faoliyatini tashkil etish va uning qarorlarini amalga oshirish mexanizmlari qanday yo'lga qo'yilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ Boshqaruv (Kuzatuv/Vasiylik) kengashi tashkil etilganligini asoslovchi hujjat;
- ✓ Boshqaruv (Kuzatuv/Vasiylik) kengashi nizomi.

1.2. INDIKATOR

Boshqaruv kengashining vakolatlari, vazifalari, funksiyalari va ish yuritish tartibi belgilangan

Yordamchi savollar:

- ❖ Boshqaruv kengashining vakolatlari, vazifalari va funksiyalari qanday hujjatlar bilan belgilangan hamda ular amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga qanchalik mos keladi?
- ❖ Boshqaruv kengashining ish yuritish tartibi (majlislarni chaqirish, qaror qabul qilish, bayonnoma yuritish) qanday tartibda tashkil etilgan?
- ❖ Boshqaruv kengashi tomonidan belgilangan vakolat va vazifalarning amalda bajarilishi qanday mexanizmlar orqali ta'minlanadi va nazorat qilinadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ Boshqaruv (Kuzatuv/Vasiylik) kengashi nizomi

1.3. INDIKATOR

Boshqaruv kengashining yig'ilishlari tizimli ravishda o'tkazilgan va yig'ilish qarorlari asosida chora-tadbirlar rejalari ishlab chiqilgan

Yordamchi savollar:

- ❖ Boshqaruv kengashining yig'ilishlari qanday davriylikda va qanday tartibda tizimli ravishda o'tkazilgan?
- ❖ Boshqaruv kengashi yig'ilishlarida qabul qilingan qarorlar qanday hujjatlashtirilgan va ular asosida chora-tadbirlar rejalari qanday ishlab chiqilgan?
- ❖ Yig'ilish qarorlari asosida ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejalari ijrosi qanday mexanizm orqali monitoring va nazorat qilinadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ Kuzatuv (Vasiylik) kengashining yillik rejasi, yig'ilish bayonnomalari va chora-tadbirlar rejasi

1.4. INDIKATOR

Boshqaruv kengashi tomonidan qabul qilinadigan qarorlar ta'lim sifatini oshirish, professor-o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash, moddiy-texnik baza, moliyaviy va inson resurslaridan samarali foydalanish va oliy ta'lim tashkilotini strategik rivojlantirishga yo'naltirilgan*

Yordamchi savollar:

❖ *Boshqaruv kengashi tomonidan qabul qilinadigan qarorlar qanday yo'nalishlarda (ta'lim sifati, professor-o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash, moddiy-texnik baza, moliyaviy va inson resurslari) ishlab chiqiladi va ularning strategik rivojlanish bilan bog'liqligi qanday ta'minlanadi?*

❖ *Qabul qilingan qarorlar orqali ta'lim sifatini oshirish va professor-o'qituvchilar faoliyatini qo'llab-quvvatlash qanday mexanizmlar orqali amalga oshiriladi?*

❖ *Boshqaruv kengashi qarorlari asosida moddiy-texnik, moliyaviy va inson resurslaridan samarali foydalanish natijalari qanday baholanadi va tahlil qilinadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Kuzatuv (Vasiylik) kengashining yillik rejasi, yig'ilish bayonnomalari va chora-tadbirlar rejasi hamda ijrosi.*

1.5. INDIKATOR

Oliy ta'lim tashkilotida kollegial organlar (oliy ta'lim tashkilotining kengashi, jamoatchilik kengashi va boshqalar) mavjud, ushbu kollegial organlarni tashkil etish asoslari, maqsadlari va vazifalari aniq belgilangan hamda ularning ta'lim sifatini ta'minlashdagi ishtiroki ta'minlangan

Yordamchi savollar:

❖ *Oliy ta'lim tashkilotida faoliyat yuritayotgan kollegial organlar (kengashlar, jamoatchilik kengashi va boshqalar) qanday huquqiy va tashkiliy asoslarda tashkil etilgan?*

❖ *Mazkur kollegial organlarning maqsadlari, vazifalari va vakolatlari qanday hujjatlar bilan aniq belgilangan?*

❖ *Kollegial organlarning ta'lim sifatini ta'minlash jarayonidagi ishtiroki qanday mexanizmlar orqali yo'lga qo'yilgan va ularning qarorlari ta'lim jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatmoqda?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Boshqaruv (Kuzatuv/Vasiylik) kengashi nizomi.*

1.6. INDIKATOR

Boshqaruv kengashi va kollegial organlarning qarorlarini qabul qilish jarayonida talabalar, professor-o'qituvchilar, ish beruvchilar, soha mutaxassislari, bitiruvchilar, ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning (bundan buyon matnda manfaatdor tomonlar deb yuritiladi) taklif va fikr-mulohazalari inobatga olingan

Yordamchi savollar:

❖ *Boshqaruv kengashi va kollegial organlar tomonidan qarorlar qabul qilish jarayonida manfaatdor tomonlarning taklif va fikr-mulohazalari qanday usullar orqali yig'ilgan?*

❖ *Manfaatdor tomonlardan kelib tushgan taklif va fikr-mulohazalarni ko'rib chiqish, tahlil qilish va qaror qabul qilishda inobatga olish tartibi qanday yo'lga qo'yilgan?*

❖ *Manfaatdor tomonlarning takliflari asosida qabul qilingan qarorlarning ta'lim sifati va boshqaruv jarayonlariga ta'siri qanday baholangan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ Taklif va fikr-mulohazalarni o'rganish bo'yicha tahliliy ma'lumotlar;
- ✓ Asoslantiruvchi(ichki) tegishli hujjatlar.

1.7. INDIKATOR

Boshqaruv kengashi va kollegial organlarning qarorlari va ushbu qarorlar yuzasidan qabul qilingan chora-tadbirlar rejalari ijrosi bo'yicha yagona monitoring tizimi joriy etilgan hamda monitoring natijalari muntazam tahlil qilingan

Yordamchi savollar:

❖ *Boshqaruv kengashi va kollegial organlar qarorlari hamda ular asosida ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejalari ijrosini nazorat qilish uchun qanday yagona monitoring tizimi joriy etilgan?*

❖ *Mazkur monitoring tizimi doirasida ijro holatini kuzatish, ma'lumotlarni yig'ish va umumlashtirish qanday tartibda amalga oshiriladi?*

❖ *Monitoring natijalari qanday davriylikda tahlil qilinadi va tahlil natijalari asosida qanday boshqaruv yoki takomillashtirish qarorlari qabul qilinadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ Boshqaruv kengashi va kollegial organlarning qarorlari va ushbu qarorlar yuzasidan qabul qilingan chora-tadbirlar rejalari ijrosi bo'yicha ma'lumotlar;
- ✓ Asoslantiruvchi(ichki) tegishli hujjatlar.

2. MEZON: Ta'lim tashkiloti faoliyatini samarali tashkil etish va rejalashtirish, ta'lim sifatini ta'minlash uchun moliyaviy resurslarning maqsadli yo'naltirilgani

Izoh: Ta'lim tashkilotining missiyasi, istiqboldagi qarashi va strategik maqsadlariga muvofiq ravishda faoliyatining rejalashtirilganligi, tashkiliy-boshqaruv tuzilma va ajratilgan resurslar faoliyatni samarali amalga oshirilishini qo'llab-quvvatlashi, moliyaviy qarorlarni qonuniylik, ochiqlik va shaffoflik tamoyillariga asoslanib qabul qilinishi, yillik moliyaviy rejada ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan xarajatlarni nazarda tutilganligi hamda ajratilgan

mablag'larni aynan shu yo'nalishda samarali sarflash orqali tashkilotning barqaror rivojlanishi baholanadi.

2.1. INDIKATOR

Oliy ta'lim tashkiloti faoliyatini samarali tashkil etish va ta'lim sifatini ta'minlash maqsadida oliy ta'lim tashkilotini rivojlantirish rejasiga (strategik reja, missiya, strategiya) muvofiq moliyaviy mablag'larni boshqarish va taqsimlash tizimi yo'lga qo'yilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Oliy ta'lim tashkilotida moliyaviy mablag'larni boshqarish va taqsimlash tizimi rivojlantirish rejasiga (strategik reja, missiya va strategiya) qanday bog'langan holda tashkil etilgan?*

❖ *Moliyaviy resurslarni rejalashtirish, taqsimlash va ulardan foydalanishda ta'lim sifati va faoliyat samaradorligini ta'minlash qanday mexanizmlar orqali amalga oshiriladi?*

❖ *Moliyaviy mablag'lardan foydalanish natijalari qanday tartibda monitoring qilinadi va tahlil natijalari asosida moliyaviy rejalarga qanday tuzatishlar kiritiladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim tashkilotining 5 yillik Strategik rivojlantirish rejas.*

2.2. INDIKATOR

Moliyaviy resurslar o'quv jarayoni, moddiy-texnik baza va infratuzilmani rivojlantirish yo'nalishlariga muvofiq ravishda taqsimlangan

Yordamchi savollar:

❖ *Moliyaviy resurslar o'quv jarayoni, moddiy-texnik baza va infratuzilmani rivojlantirish yo'nalishlari bo'yicha qanday mezonlar asosida taqsimlangan?*

❖ *Mazkur yo'nalishlarga ajratilgan moliyaviy mablag'larning ta'lim sifati va ta'lim jarayonini yaxshilashga ta'siri qanday baholangan?*

❖ *Moliyaviy resurslar taqsimotining maqsadga muvofiqligi va samaradorligi qanday tartibda monitoring va tahlil qilinadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim tashkilotining tasdiqlangan yillik moliyaviy rejas (smeta) (2-jadval)*

2.3. INDIKATOR

Yillik moliyaviy reja tasdiqlangan va ijrosi amalga oshirilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Yillik moliyaviy reja qanday tartibda ishlab chiqilgan va qaysi vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan?*

❖ *Tasdiqlangan yillik moliyaviy rejaning ijrosi qanday mexanizmlar orqali amalga oshirilgan?*

❖ *Yillik moliyaviy reja ijrosi natijalari qanday davriylikda monitoring qilinib, tahlil qilingan va aniqlangan kamchiliklar bo'yicha qanday chora-tadbirlar ko'rilgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim tashkilotining tasdiqlangan yillik moliyaviy rejasi (smeta)ning ijrosi haqida tahliliy ma'lumot.*

2.4. INDIKATOR

Yillik moliyaviy rejadagi o'quv jarayoniga yo'naltirilgan xarajatlar maqsadli va samarali sarflangan

Yordamchi savollar:

❖ *Yillik moliyaviy rejada o'quv jarayoniga yo'naltirilgan xarajatlar qanday yo'nalishlar bo'yicha rejalashtirilgan va maqsadli sarflanishi qanday ta'minlangan?*

❖ *Mazkur xarajatlarning o'quv jarayoni sifati va ta'lim natijalariga ta'siri qanday mezonlar asosida baholangan?*

❖ *O'quv jarayoniga yo'naltirilgan moliyaviy mablag'lardan foydalanish samaradorligi qanday tartibda monitoring qilinadi va tahlil natijalari asosida qanday takomillashtirish choralari ko'riladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim tashkilotining tasdiqlangan yillik moliyaviy rejasi (smeta)ning ijrosi haqida tahliliy ma'lumot.*

2.5. INDIKATOR

Moliyaviy resurslardan foydalanish va yillik moliyaviy rejaning ijrosi bo'yicha muntazam monitoring va tahlil amalga oshirilgan hamda monitoring va tahlil natijalari asosida moliyaviy mablag'lardan samarali foydalanish bo'yicha qarorlar qabul qilingan

Yordamchi savollar:

❖ *Moliyaviy resurslardan foydalanish va yillik moliyaviy reja ijrosi bo'yicha monitoring qanday tartibda va qanday davriylikda amalga oshirilgan?*

❖ *Monitoring jarayonida to'plangan ma'lumotlar qanday usullar orqali tahlil qilingan va tahlil natijalari qanday rasmiylashtirilgan?*

❖ *Monitoring va tahlil natijalari asosida moliyaviy mablag'lardan samarali foydalanishni ta'minlash bo'yicha qanday qarorlar qabul qilingan va ularning ijrosi qanday nazorat qilingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Monitoring hisoboti va tegishli qarorlar.*

3. MEZON: Ta'lim tashkilotini rivojlantirish rejasining ishlab chiqilgani va uni amalga oshirish uchun resurslar mavjudligi, shuningdek, uning jamoatchilik uchun ochiqqligi va monitoringi yuritilgani

Izoh: *Ta'lim tashkilotida rivojlantirish rejasining mavjudligi, uni amalga oshirish uchun zarur resurslarning belgilanganligi, chora-tadbirlar ijrosining ta'minlanganligi hamda reja va uning bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlarning rasmiy veb-sayt orqali jamoatchilikka ochiq taqdim etilganligi baholanadi.*

3.1. INDIKATOR

Oliy ta'lim tashkilotini rivojlantirish rejasi (strategik reja, missiya, strategiya) (bundan buyon matnda rivojlantirish rejasi deb yuritiladi) tasdiqlangan hamda mazkur rejada oliy ta'lim tashkilotini rivojlantirishning maqsadlari va vazifalari, ularni amalga oshirish mexanizmlari, ijro muddatlari va mas'ul ijrochilar belgilangan*

Yordamchi savollar:

❖ *Oliy ta'lim tashkilotini rivojlantirish rejasi (strategik reja, missiya va strategiya) qanday tartibda ishlab chiqilgan va qaysi vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan?*

❖ *Rivojlantirish rejasida oliy ta'lim tashkilotini rivojlantirishning maqsadlari va vazifalari, ularni amalga oshirish mexanizmlari, ijro muddatlari hamda mas'ul ijrochilar qanday aniqlikda belgilangan?*

❖ *Rivojlantirish rejasida belgilangan maqsad va vazifalarning bajarilishi qanday mexanizmlar orqali monitoring qilinadi va natijalar qanday tahlil qilinadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim tashkilotining Strategik rivojlantirish rejasi (Strategik reja).*

3.2. INDIKATOR

Rivojlantirish rejasini samarali amalga oshirish uchun oliy ta'lim tashkilotidagi barcha tarkibiy bo'linmalarning (fakultetlar, kafedralar, bo'limlar va boshqalar) yillik ish rejalari tasdiqlangan

Yordamchi savollar:

❖ *Oliy ta'lim tashkilotidagi tarkibiy bo'linmalarning (fakultetlar, kafedralar, bo'limlar va boshqalar) yillik ish rejalari rivojlantirish rejasiga qanday uyg'unlashtirilgan holda ishlab chiqilgan?*

❖ *Tarkibiy bo'linmalarining yillik ish rejalari qanday tartibda ko'rib chiqilgan va qaysi vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan?*

❖ *Yillik ish rejalari ijrosi rivojlantirish rejasining maqsad va vazifalariga erishishga qanday hissa qo'shayotgani qanday mexanizmlar orqali monitoring va baholanadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Tashkilot va tarkibiy bo'linmalarining tasdiqlangan yillik ish rejalari*

3.3. INDIKATOR

Rivojlantirish rejasini amalga oshirish uchun moddiy-texnik baza, moliyaviy va inson resurslari ajratilgan, ularning taqsimoti rivojlantirish rejasining maqsadlari va vazifalari bilan uyg'unlashtirilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Rivojlantirish rejasini amalga oshirish uchun moddiy-texnik baza, moliyaviy va inson resurslari qanday aniqlangan va rejalashtirilgan?*

❖ *Mazkur resurslarning taqsimoti rivojlantirish rejasida belgilangan maqsad va vazifalar bilan qanday tarzda uyg'unlashtirilgan?*

❖ *Ajratilgan moddiy-texnik, moliyaviy va inson resurslaridan foydalanish samaradorligi qanday mexanizmlar orqali monitoring qilinadi va baholanadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Strategik rivojlantirish rejasi, yillik ish rejalari, tasdiqlangan yillik moliyaviy reja (smeta), shtatlar jadvali, moddiy-texnik baza taqsimoti*

3.4. INDIKATOR

Rivojlantirish rejasining ijrosi hamda natijalari ochiq va shaffof tarzda jamoatchilikka taqdim etib borilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Rivojlantirish rejasining ijrosi va natijalarini jamoatchilikka taqdim etish qanday shakl va vositalar orqali amalga oshirilgan?*

❖ *Mazkur ma'lumotlarni ochiq va shaffof taqdim etishning davriyligi va mas'ul ijrochilari qanday tartibda belgilangan?*

❖ *Jamoatchilikka taqdim etilgan rivojlantirish rejasining ijrosi va natijalari bo'yicha bildirilgan fikr-mulohazalar qanday yig'ilgan va ular qanday tartibda tahlil qilingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Strategik rivojlantirish reja ijrosi bo'yicha ma'lumotlar va uning veb-saytda e'lon qilinganligi hamda yillik hisobotlar*

3.5. INDIKATOR

Rivojlantirish rejasining monitoringi va tahlili natijalari, manfaatdor tomonlarning taklif va fikr-mulohazalari o'rganilgan hamda ular asosida rivojlantirish rejasini takomillashtirish choralari ko'rilgan

Yordamchi savollar:

❖ Rivojlantirish rejasining ijrosi bo'yicha monitoring va tahlil qanday tartibda va qanday davriylikda amalga oshirilgan?

❖ Monitoring va tahlil jarayonida manfaatdor tomonlarning taklif va fikr-mulohazalari qanday usullar orqali yig'ilgan va o'rganilgan?

❖ Monitoring, tahlil hamda manfaatdor tomonlar fikrlari asosida rivojlantirish rejasini takomillashtirish bo'yicha qanday aniq chora-tadbirlar ko'rilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Strategik rivojlantirish rejasi bo'yicha tahlil va monitoring ma'lumotnomalari

✓ Reja yangilanishi yoki takomillashtirilishi haqidagi qarorlar (kengash yoki ishchi guruh bayonnomasi).

4. MEZON: Ta'lim tashkilotining hudud va respublikaning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarini, shuningdek biriktirilgan ta'lim tashkilotlarini rivojlantirishga qo'shayotgan hissasi

Izoh: Ta'lim tashkilotining hududiy va milliy ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy rivojlanishga qo'shayotgan hissasi, shuningdek, ilmiy-innovatsion ishlanmalarni amaliyotga joriy etish, rivojlanish dasturlarida ishtirok etish, madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish hamda boshqa ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlik orqali jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishi baholanadi.

4.1. INDIKATOR

Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarni rivojlantirish yo'nalishlarida tashkilotlar, korxonalar va muassasalar bilan hamkorlik aloqalari o'rnatilgan

Yordamchi savollar:

❖ Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarni rivojlantirish yo'nalishlarida qaysi tashkilotlar, korxonalar va muassasalar bilan hamkorlik aloqalari o'rnatilgan?

❖ Mazkur hamkorlik aloqalari qanday hujjatlar va mexanizmlar (memorandum, shartnoma, qo'shma loyihalar) orqali rasmiylashtirilgan?

❖ O'rnatilgan hamkorlik aloqalarining ta'lim jarayoni, talabalar tayyorlash sifati va tashkilot rivojiga qo'shgan hissasi qanday baholangan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Hamkorlik shartnomalari (o'zaro anglashuv memorandumlari) reyestri yoki ro'yxati*

4.2. INDIKATOR

Oliy ta'lim tashkiloti hududiy va respublika darajasida ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarni rivojlantirishga qaratilgan loyihalarda ishtirok etgan (hissa qo'shgan, tashkil qilgan)

Yordamchi savollar:

❖ *Oliy ta'lim tashkiloti hududiy va respublika darajasida ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarni rivojlantirishga qaratilgan qaysi loyihalarda ishtirok etgan yoki ularni tashabbus qilgan?*

❖ *Mazkur loyihalarda oliy ta'lim tashkilotining ishtiroki (hissa qo'shishi) qanday shakllarda amalga oshirilgan?*

❖ *Ushbu loyihalarda ishtirok etishning hududiy va respublika miqyosida rivojlanishga hamda ta'lim jarayoniga ta'siri qanday baholangan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Loyihalarda ishtirok etilganligini tasdiqlovchi hujjatlar (loyiha pasportlari yoki loyiha bo'yicha tuzilgan uch tomonlama / ikki tomonlama bitimlar).*

4.3. INDIKATOR

Madaniy-ma'rifiy va ilmiy tadbirlar (festival, ko'rgazma, anjumanlar yoki boshqalar) tashkil etilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Oliy ta'lim tashkilotida qanday madaniy-ma'rifiy va ilmiy tadbirlar (festival, ko'rgazma, anjuman va boshqalar) tashkil etilgan?*

❖ *Mazkur tadbirlarni tashkil etishdan ko'zlangan maqsadlar va ularning ta'lim, ilmiy faoliyat hamda talabalarning rivojlanishiga qo'shgan hissasi qanday belgilangan?*

❖ *Tashkil etilgan madaniy-ma'rifiy va ilmiy tadbirlarning samaradorligi va natijalari qanday tartibda baholangan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Tashkilot tomonidan madaniy-ma'rifiy yoki ilmiy tadbirlarni o'tkazish bo'yicha buyruqlar (tashkiliy komissiya tuzish, tadbir o'tkazish sanasi va dasturi tasdiqlangan buyruq)*

4.4. INDIKATOR

Oliy ta'lim tashkilotiga biriktirilgan umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasbiy va boshqa ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlik munosabatlari yo'lga qo'yilgan

Yordamchi savollar:

- ❖ Oliy ta'lim tashkilotiga biriktirilgan umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasbiy va boshqa ta'lim tashkilotlari bilan qanday hamkorlik munosabatlari yo'lga qo'yilgan?
- ❖ Mazkur hamkorlik munosabatlari qanday hujjatlar va mexanizmlar (shartnoma, memorandum, qo'shma tadbirlar) orqali rasmiylashtirilgan?
- ❖ Ushbu hamkorlik aloqalarining ta'lim uzviyligini ta'minlash va ta'lim sifati oshishiga qo'shgan hissasi qanday baholangan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ Hamkorlik to'g'risidagi memorandum yoki ikki tomonlama hamkorlik shartnomalari (maktab, litsey, kasbiy ta'lim muassasalari bilan)
- ✓ Hamkorlik doirasida amalga oshirilgan ishlar bo'yicha tahliliy ma'lumotnoma (hisobot)

4.5. INDIKATOR

Jamoatchilik bilan hamkorlikda amalga oshirilgan ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy va ilmiy tadbirlarning natijalari tahlil qilingan

Yordamchi savollar:

- ❖ Jamoatchilik bilan hamkorlikda amalga oshirilgan ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy va ilmiy tadbirlar qanday tartibda qayd etilgan va ularning natijalari qanday aniqlangan?
- ❖ Mazkur tadbirlar natijalarini tahlil qilishda qanday mezon va ko'rsatkichlardan foydalanilgan?
- ❖ Tahlil natijalari asosida jamoatchilik bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish va tadbirlar samaradorligini oshirish bo'yicha qanday chora-tadbirlar belgilangan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ Tadbir yakuni bo'yicha tahliliy ma'lumotnoma (hisobot)

5. MEZON: Ta'lim jarayonlarini boshqarish hamda ta'lim sifatini nazorat qilish bo'yicha axborot tizimining (bundan buyon matnda axborot tizimi deb yuritiladi) mavjudligi va ushbu tizimning ta'lim sohasidagi vakolatli davlat organlarining axborot tizimlariga integratsiya qilingani

Izoh: Ta'lim tashkilotida ta'lim jarayonlarini boshqarish va ta'lim sifati ustidan nazoratni ta'minlovchi axborot tizimining mavjudligi hamda uning vakolatli davlat organlari axborot tizimlari bilan integratsiya qilinganlik darajasi baholanadi.

5.1. INDIKATOR

Oliy ta'lim tashkilotida ta'lim jarayonlarini boshqarish, monitoring qilish va nazoratni amalga oshirish uchun axborot tizimi (HEMIS, LMS, elektron jurnal, boshqaruv platformasi yoki boshqalar) joriy etilgan*

Yordamchi savollar:

❖ Oliy ta'lim tashkilotida ta'lim jarayonlarini boshqarish, monitoring qilish va nazoratni amalga oshirish uchun qaysi axborot tizimlari (HEMIS, LMS, elektron jurnal, boshqaruv platformasi va boshqalar) joriy etilgan?

❖ Mazkur axborot tizimlarining funksional imkoniyatlari ta'lim jarayonlarini boshqarish va nazorat qilishni qanday ta'minlaydi?

❖ Axborot tizimlaridan foydalanishning samaradorligi va ta'lim sifatiga ta'siri qanday mezonlar asosida monitoring va baholanadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Ta'lim jarayonlarini raqamlashtirish bo'yicha ichki hujjat(lar)

5.2. INDIKATOR

Axborot tizimida talabalar va professor-o'qituvchilarga oid ma'lumotlar, shuningdek o'quv mashg'ulotlari (dars) jadvali, baholash va talabalar davomati bo'yicha ma'lumotlarni yuritish imkoniyati mavjud

Yordamchi savollar:

❖ Axborot tizimida talabalar va professor-o'qituvchilarga oid ma'lumotlarni yuritish qanday tartibda va qaysi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi?

❖ O'quv mashg'ulotlari (dars) jadvali, baholash natijalari va talabalar davomati bo'yicha ma'lumotlarni kiritish, yangilash va saqlash qanday mexanizm orqali ta'minlangan?

❖ Mazkur ma'lumotlardan foydalanish ta'lim jarayonlarini monitoring qilish va nazorat qilish samaradorligini qanday oshirmoqda?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ HEMIS va/yoki LMS ta'lim platformasi bo'yicha tahliliy ma'lumot

5.3. INDIKATOR

O'zaro ma'lumotlar almashinuvini yo'lga qo'yish maqsadida axborot tizimi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligining axborot tizimlari bilan integratsiya qilingan

Yordamchi savollar:

❖ Axborot tizimi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligining axborot tizimlari bilan qanday texnik va tashkiliy mexanizmlar orqali integratsiya qilingan?

❖ Integratsiya doirasida o'zaro ma'lumotlar almashinuvining qaysi turlari va yo'nalishlari (talabalar, professor-o'qituvchilar, baholash, davomat va boshqalar) yo'lga qo'yilgan?

❖ *Axborot tizimlari o'rtasidagi integratsiya ta'lim jarayonlarini boshqarish va ta'lim sifatini nazorat qilish samaradorligiga qanday ta'sir ko'rsatmoqda va bu ta'sir qanday baholanmoqda?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Axborot tizimlarini integratsiya qilinganligini asoslovchi hujjatlar*

5.4. INDIKATOR

Axborot tizimini texnik qo'llab-quvvatlash va axborot xavfsizligini ta'minlash choralari ko'rilgan hamda axborot tizimida foydalanuvchilarning samarali va qulay ishlay olishi ta'minlangan

Yordamchi savollar:

❖ *Axborot tizimini texnik qo'llab-quvvatlash va uzluksiz ishlashini ta'minlash bo'yicha qanday chora-tadbirlar joriy etilgan?*

❖ *Axborot tizimida axborot xavfsizligini ta'minlash (ma'lumotlarni himoyalash, foydalanuvchi huquqlarini boshqarish, zaxiralash) qanday mexanizmlar orqali amalga oshiriladi?*

❖ *Foydalanuvchilarning (talabalar va professor-o'qituvchilar) axborot tizimidan samarali va qulay foydalanishini ta'minlash uchun qanday sharoitlar va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari yaratilgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Axborot tizimida ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiyligini ta'minlash bo'yicha ichki hujjat(lar)*

5.5. INDIKATOR

Axborot tizimidagi ma'lumotlarning aniqligi ta'minlangan hamda axborot tizimi o'z vaqtida yangilanib borilgan va monitoring yuritilgan, shuningdek ushbu ma'lumotlar asosida yillik tahliliy hisobotlar tayyorlab borilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Axborot tizimidagi ma'lumotlarning aniqligi va ishonchliligini ta'minlash uchun qanday tekshiruv va verifikatsiya mexanizmlari joriy etilgan?*

❖ *Axborot tizimini o'z vaqtida yangilash va uning faoliyati bo'yicha monitoringni amalga oshirish qanday tartibda va qanday davriylikda yo'lga qo'yilgan?*

❖ *Axborot tizimida shakllantirilgan ma'lumotlar asosida yillik tahliliy hisobotlar qanday tartibda tayyorlanadi va ular boshqaruv qarorlarini qabul qilishda qanday qo'llaniladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Axborot tizimi monitoringi, uning natijalari bo'yicha tahliliy ma'lumot va yillik hisobotlar*

5.6. INDIKATOR

Tayyorlangan tahliliy hisobotlar oliy ta'lim tashkilotining kengashi (bundan buyon matnda OTT kengashi deb yuritiladi) yig'ilishlarida muhokama qilingan hamda aniqlangan muammo va kamchiliklarni tuzatish choralari ko'rilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Tayyorlangan tahliliy hisobotlar OTT kengashi yig'ilishlarida qanday tartibda va qanday davriylikda muhokama qilingan?*

❖ *OTT kengashi muhokamalari jarayonida tahliliy hisobotlarda aniqlangan muammo va kamchiliklar qanday tarzda qayd etilgan?*

❖ *Aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha qanday chora-tadbirlar belgilangan va ularning ijrosi qanday nazorat qilingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ OTT kengashi qarori bayonnomalari va uning ijrosini asoslovchi hujjatlar

6. MEZON: Ta'lim tashkilotida xalqaro hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgani

Izoh: Ta'lim tashkilotining xorijiy muassasalar bilan aloqalarni yo'lga qo'yganligi, xorijiy xodim va mutaxassislarni jalb etganligi hamda xalqaro tadbirlarni tashkil etganligi baholanadi.

6.1. INDIKATOR

Xorijiy ta'lim va ilmiy tashkilotlar, shuningdek nufuzli xalqaro institutlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Oliy ta'lim tashkiloti qaysi xorijiy ta'lim va ilmiy tashkilotlar hamda nufuzli xalqaro institutlar bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ygan?*

❖ *Mazkur hamkorlik aloqalari qanday hujjatlar va mexanizmlar (memorandum, shartnoma, qo'shma dasturlar, ilmiy loyihalar) orqali rasmiylashtirilgan?*

❖ *Xalqaro hamkorlik aloqalarining ta'lim sifati, ilmiy faoliyat va oliy ta'lim tashkilotining rivojlanishiga qo'shgan hissi qanday baholangan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Xalqaro hamkorlik bo'yicha ichki me'yoriy hujjat, hamkorlik bitimlari ro'yxati, memorandumlar va shartnomalar

6.2. INDIKATOR

Professor-o'qituvchilarning o'z sohalari bo'yicha yetakchi xorijiy ta'lim va ilmiy tashkilotlarda malaka oshirish, tajriba almashish va stajirovka dasturlarida ishtirok etish imkoniyati yaratilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Professor-o'qituvchilarning o'z sohalari bo'yicha yetakchi xorijiy ta'lim va ilmiy tashkilotlarda malaka oshirish, tajriba almashish va stajirovka dasturlarida ishtirok etishi uchun qanday imkoniyatlar yaratilgan?*

❖ *Mazkur dasturlarda ishtirok etish jarayoni (tanlov, yuborish, moliyalashtirish va tashkiliy qo'llab-quvvatlash) qanday tartibda tashkil etilgan?*

❖ *Xorijiy malaka oshirish va stajirovka dasturlarida ishtirok etishning professor-o'qituvchilarning kasbiy rivoji va ta'lim sifati oshishiga ta'siri qanday baholangan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Professor-o'qituvchilarni xalqaro malaka oshirish va stajirovka dasturlarida ishtirok etish bo'yicha ichki hujjat, yuborilganlar bo'yicha buyruq va ularning safar natijalari bo'yicha ma'lumot*

6.3. INDIKATOR

O'quv jarayoniga tegishli sohalar bo'yicha yuqori malakaga ega xorijiy mutaxassislar jalb etilgan hamda ularning o'quv jarayonidagi ishtiroki ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilgan

Yordamchi savollar:

❖ *O'quv jarayoniga tegishli sohalar bo'yicha qaysi yuqori malakaga ega xorijiy mutaxassislar jalb etilgan va ularni tanlash mezonlari qanday belgilangan?*

❖ *Xorijiy mutaxassislarning o'quv jarayonidagi ishtiroki (ma'ruza o'qish, seminarlar, qo'shma kurslar, maslahatlar) qanday shakllarda amalga oshirilgan?*

❖ *Xorijiy mutaxassislar ishtirokining ta'lim sifati va o'quv natijalariga ta'siri qanday mezonlar asosida baholangan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim jarayoniga xorijiy mutaxassislarni jalb etish va ishtirokini tashkil etish tartibi, ularning ishtiroki bo'yicha ichki hujjatlar hamda ta'lim sifatiga ta'siri bo'yicha ma'lumotlar (3-jadval)*

6.4. INDIKATOR

Xalqaro hamkorlik natijasida o'quv jarayonlari, ilmiy-tadqiqot faoliyati va ta'lim dasturlarining mazmuni takomillashtirilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Xalqaro hamkorlik doirasida o'quv jarayonlari, ilmiy-tadqiqot faoliyati va ta'lim dasturlari mazmunini takomillashtirish bo'yicha qanday tashabbuslar va ishlar amalga oshirilgan?*

❖ *Mazkur takomillashtirishlar xalqaro hamkorlikning qaysi shakllari (qo'shma dasturlar, akademik almashinuv, qo'shma tadqiqotlar, ekspert ishtiroki) natijasida amalga oshirilgan?*

❖ *Xalqaro hamkorlik asosida amalga oshirilgan takomillashtirishlarning ta'lim sifati va ilmiy faoliyat samaradorligiga ta'siri qanday baholangan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Xalqaro hamkorlik asosida takomillashtirilganligini isbotlovchi ma'lumotlar va hujjatlar (o'quv dasturlari taqqoslamasi, ilmiy loyihalar natijalari, hamkorlik bitimlari, seminarlar va master-klasslar hisobotlari bo'lishi mumkin)*

6.5. INDIKATOR

Xalqaro tadbirlar, grantlar va loyihalar natijalari bo'yicha tahlillar o'tkazilib va tahliliy hisobotlar tayyorlab borilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Xalqaro tadbirlar, grantlar va loyihalar natijalarini tahlil qilish qanday tartib va davriylikda amalga oshirilgan hamda bu jarayonga qaysi tarkibiy bo'linmalar jalb etilgan?*

❖ *Tahlil jarayonida xalqaro tadbirlar, grantlar va loyihalarning samaradorligini baholash uchun qaysi mezon va ko'rsatkichlardan (akademik, ilmiy, moliyaviy, institutsional ta'sir) foydalanilgan?*

❖ *O'tkazilgan tahlillar va tayyorlangan tahliliy hisobotlar natijalari asosida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va ta'lim hamda ilmiy faoliyatni takomillashtirish bo'yicha qanday aniq boshqaruv qarorlari va chora-tadbirlar qabul qilingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Xalqaro tadbirlar, grantlar, loyihalar va mobillik natijalari bo'yicha tahliliy ma'lumotlar va asoslovchi hujjatlar*

6.6. INDIKATOR

Tahlillar natijasida samaradorlik ko'rsatkichlari aniqlanib, xalqaro hamkorlik faoliyati qayta ko'rib chiqilgan va manfaatli yo'nalishlarda rivojlantirilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Xalqaro tadbirlar, grantlar va loyihalar bo'yicha natijalarni tahlil qilish qanday tartibda va qanday davriylikda amalga oshirilgan?*

❖ *Mazkur tahlillarni o'tkazishda qanday mezon va ko'rsatkichlardan foydalanilgan hamda natijalar qanday rasmiylashtirilgan?*

❖ *Xalqaro tadbirlar, grantlar va loyihalar bo'yicha tayyorlangan tahliliy hisobotlar asosida qanday boshqaruv yoki takomillashtirish qarorlari qabul qilingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Qayta ko'rib chiqilganligi va manfaatli yo'nalishlarda rivojlantirilganligi haqidagi ma'lumotlar va tegishli hujjatlar

II. Ta'lim sifatini ta'minlash yo'nalishi

Izoh: Ta'lim dasturlari, o'quv-tarbiya jarayoni, ilmiy-tadqiqot ishlari, professor-o'qituvchilar salohiyati, moddiy-texnika baza hamda boshqaruv tizimini takomillashtirish orqali ta'lim natijalarining milliy va xalqaro sifat talablariga mosligini ta'minlashga qaratilgan tizimli va maqsadli faoliyat baholanadi.

7. MEZON: Manfaaddor tomonlar bilan hamkorlikda ta'lim sifatini ichki ta'minlashning yo'lga qo'yilgani !

Izoh: Ta'lim sifatini ta'minlash mexanizmlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish jarayonlariga professor-o'qituvchilar, talabalar, ish beruvchilar va boshqa manfaaddor tomonlarni jalb etish, ularning fikr va tavsiyalarini muntazam o'rganish asosida ta'lim jarayonini takomillashtirishga qaratilgan institutsional faoliyati baholanadi.

7.1. INDIKATOR

Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi samaradorligini aniqlash bo'yicha baholash tartibi manfaaddor tomonlar ishtirokida ishlab chiqilgan va ijroga yo'naltirilgan

Yordamchi savollar:

❖ Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi samaradorligini baholash tartibi qanday jarayonda va qaysi manfaaddor tomonlar ishtirokida ishlab chiqilgan?

❖ Mazkur baholash tartibida ta'lim sifati samaradorligini aniqlash uchun qanday mezonlar, indikatorlar va baholash mexanizmlari belgilangan?

❖ Ishlab chiqilgan baholash tartibi amaliyotga qanday joriy etilgan va uning natijalari asosida ta'lim sifatini takomillashtirish bo'yicha qanday chora-tadbirlar ko'rilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimini baholash tartibi haqida ma'lumotlar va asoslovchi hujjatlar

7.2. INDIKATOR

Ta'lim sifatini ichki ta'minlash jarayonida manfaaddor tomonlarning ishtiroki ta'minlangan hamda ularning ishtirokida muntazam tadbirlar (uchrashuvlar, seminar-treninglar, muhokamalar, anjumanlar so'rovnomalar, intervyyular, fokus-guruhlar yoki boshqalar) o'tkazilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim sifatini ichki ta'minlash jarayonida qaysi manfaatdor tomonlar ishtirok etgan va ularning ishtiroki qanday mexanizmlar orqali ta'minlangan?*

❖ *Manfaatdor tomonlar ishtirokida qanday muntazam tadbirlar (uchrashuvlar, seminar-treninglar, muhokamalar, anjumanlar, so'rovnomalar, intervyular, fokus-guruhlar va boshqalar) o'tkazilgan?*

❖ *Mazkur tadbirlar natijasida bildirilgan taklif va fikr-mulohazalar ta'lim sifatini ichki ta'minlash jarayonlariga qanday tarzda integratsiya qilingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Uchrashuvlar, muhokamalar yoki forumlar o'tkazilganligi va ularda manfaatdor tomonlar ishtirok etganligi to'g'risida ma'lumotlar va asoslovchi hujjatlar*

7.3. INDIKATOR

Manfaatdor tomonlarning taklif va fikr-mulohazalari asosida ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Manfaatdor tomonlarning taklif va fikr-mulohazalari qanday usullar orqali yig'ilgan va umumlashtirilgan?*

❖ *Mazkur taklif va fikr-mulohazalar asosida ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi qanday tartibda ishlab chiqilgan?*

❖ *Ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasining ijrosi qanday mexanizmlar orqali monitoring qilinadi va uning samaradorligi qanday baholanadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Manfaatdor tomonlar fikrini o'rganish bo'yicha ma'lumotlar va ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasi*

7.4. INDIKATOR

Yig'ilgan ma'lumotlar, shu jumladan manfaatdor tomonlarning taklif va fikr-mulohazalari va (yoki) ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasi asosida ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi, ta'lim dasturlari va ta'lim jarayoniga tegishli o'zgartirishlar kiritilgan hamda muntazam takomillashtirilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Yig'ilgan ma'lumotlar, jumladan manfaatdor tomonlarning taklif va fikr-mulohazalari qanday tartibda tahlil qilingan va ustuvor yo'nalishlar aniqlangan?*

❖ *Mazkur tahlil va (yoki) ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasi asosida ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi, ta'lim dasturlari va ta'lim jarayoniga qanday aniq o'zgartirishlar kiritilgan?*

❖ *Kiritilgan o'zgartirishlarning samaradorligi qanday mexanizmlar orqali monitoring qilinib, ta'lim sifatini muntazam takomillashtirish ta'minlangan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *O'zgartirishlar kiritilgan va takomillashtirilgan ta'lim dasturlari haqida ma'lumot*

7.5. INDIKATOR

Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi takomillashtirilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar oliy ta'lim tashkilotining veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlarida ochiq e'lon qilib borilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi takomillashtirilgani to'g'risidagi ma'lumotlar oliy ta'lim tashkilotining qaysi rasmiy kanallari (veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlar) orqali e'lon qilib borilgan?*

❖ *Mazkur ma'lumotlarni ochiq e'lon qilishning tartibi, davriyligi va mas'ul bo'linmalari qanday belgilangan?*

❖ *Ochiq e'lon qilingan ma'lumotlar bo'yicha jamoatchilikdan kelib tushgan fikr-mulohazalar qanday yig'ilgan va ular ta'lim sifatini yanada takomillashtirishda qanday hisobga olingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *OTT rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlarida e'loni (havolalar)*

8. MEZON: Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi samaradorligi muntazam tahlil qilib borilgani va tahlil natijalari asosida takomillashtirish choralarining ko'rilgani

Izoh: *Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi samaradorligi muntazam tahlil qilinishi va tahlil natijalari asosida takomillashtirish choralarining ko'rilganligi, ta'lim jarayoni va boshqaruv samaradorligini baholash, aniqlangan kamchiliklar asosida sifatni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda ularning ijrosini ta'minlash holati baholanadi*

8.1. INDIKATOR

Oliy ta'lim tashkilotida ta'lim sifatini ichki ta'minlash bo'linmasi (ichki ta'lim sifati nazorati bo'limi, ta'lim sifatini ta'minlash bo'limi) tashkil etilgan*

Yordamchi savollar:

❖ *Oliy ta'lim tashkilotida ta'lim sifatini ichki ta'minlash bo'linmasi (ichki ta'lim sifati nazorati bo'limi, ta'lim sifatini ta'minlash bo'limi) qanday huquqiy va tashkiliy asosda tashkil etilgan?*

❖ *Mazkur bo'linmaning maqsadlari, vazifalari va vakolatlari qanday hujjatlar bilan belgilangan?*

❖ *Ta'lim sifatini ichki ta'minlash bo'linmasining faoliyati ta'lim jarayonlari va ta'lim sifatini yaxshilashga qanday hissa qo'shmoqda?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *OTT ta'lim sifatini ichki ta'minlash bo'linmasi tashkil etilganligi to'g'risida ichki hujjatlar*

8.2. INDIKATOR

Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi samaradorligini aniqlash bo'yicha baholash tartibi amaliyotga joriy etilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi samaradorligini aniqlash bo'yicha ishlab chiqilgan baholash tartibi amaliyotga qanday bosqichlarda joriy etilgan?*

❖ *Mazkur baholash tartibi doirasida ta'lim sifatini baholash qanday mezonlar, indikatorlar va usullar orqali amalga oshirilmoqda?*

❖ *Baholash natijalari asosida ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha qanday aniq chora-tadbirlar ko'rilgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimini baholash tartibi*

8.3. INDIKATOR

Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi faoliyati muntazam ravishda (yillik yoki yarim yillik) monitoring qilingan hamda tahlillar asosida baholab borilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi faoliyati qanday davriylikda (yillik yoki yarim yillik) monitoring qilingan?*

❖ *Monitoring jarayonida ta'lim sifatini baholash uchun qanday mezonlar, indikatorlar va ma'lumot manbalaridan foydalanilgan?*

❖ *Monitoring va tahlil natijalari asosida ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha qanday qarorlar va chora-tadbirlar qabul qilingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi faoliyatini baholash bo'yicha yillik/yarim yillik ma'lumotlar va asoslovchi hujjatlar*

8.4. INDIKATOR

Monitoring va tahlil natijalari OTT kengashining yig'ilishlarida muhokama qilingan hamda jamoatchilik va manfaatdor tomonlarga yetkazilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Monitoring va tahlil natijalari OTT kengashi yig'ilishlarida qanday tartibda va qanday davriylikda muhokama qilingan?*

❖ *OTT kengashi muhokamalari jarayonida monitoring va tahlil natijalari bo'yicha qanday xulosalar va qarorlar qabul qilingan?*

❖ *Monitoring va tahlil natijalari jamoatchilik va manfaatdor tomonlarga qanday shakl va usullar orqali yetkazilgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ichki sifat natijalarini muhokama qilish va jamoatchilikka yetkazish bo'yicha OTT kengash bayonnomalari hamda yetkazilganligini asoslovchi hujjatlar*

8.5. INDIKATOR

Monitoring va tahlil natijalari asosida aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish, shuningdek ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Monitoring va tahlil natijalari asosida qaysi muammo va kamchiliklar aniqlangan?*

❖ *Aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish hamda ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi qanday tartibda ishlab chiqilgan?*

❖ *Ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasining ijrosi va samaradorligi qanday mexanizmlar orqali monitoring qilinadi va baholanadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimida aniqlangan muammolarni bartaraf etish va takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi*

8.6. INDIKATOR

Aniqlangan muammo va kamchiliklar chora-tadbirlar rejasiga muvofiq o'z vaqtida bartaraf etilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Monitoring va tahlil natijalari asosida aniqlangan muammo va kamchiliklar qaysi chora-tadbirlar rejasiga muvofiq bartaraf etilgan?*

❖ *Chora-tadbirlar rejasida belgilangan muddatlarga muvofiq muammo va kamchiliklarni bartaraf etish jarayoni qanday tashkil etilgan?*

❖ *Muammo va kamchiliklarning o'z vaqtida bartaraf etilgani va kiritilgan choralarning samaradorligi qanday tartibda baholangan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Aniqlangan muammolarni o'z vaqtida bartaraf etilganligini asoslovchi hujjatlar*

9. MEZON: Talabalar bilimini baholashning belgilangan tartibda amalga oshirilgani va uning o'quv natijalariga muvofiqligi

Izoh: *Ta'lim tashkilotida talabalar bilimini baholash tizimi, tartib va mezonlarining normativ hujjatlar asosida belgilanganligi, baholash jarayonining ochiq va oshkora tashkil etilganligi hamda uning natijalari tahlil qilingan holda ta'lim jarayonini takomillashtirishga qaratilgan tizimli faoliyati baholanadi.*

9.1. INDIKATOR

Talabalarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholash jarayonlari bo'yicha tartib, qoidalar, mezonlar va usullar (bundan buyon matnda baholash tartibi deb yuritiladi) tasdiqlangan va ta'lim dasturlaridagi kutilgan o'quv natijalari hamda fanlarning (modullarning) maqsadlariga mosligi ta'minlangan

Yordamchi savollar:

❖ *Talabalarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholash bo'yicha tartib, qoidalar, mezonlar va usullar qanday hujjatlar bilan tasdiqlangan?*

❖ *Baholash tartibi ta'lim dasturlarida belgilangan kutilgan o'quv natijalari hamda fanlar (modullarning) maqsadlariga qanday tarzda moslashtirilgan?*

❖ *Baholash mezonlari va usullarining o'quv natijalariga mosligi va adolatligi qanday mexanizmlar orqali monitoring va tahlil qilinadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Talabalar bilimini baholash usullari va mezonlari bo'yicha ishlab chiqilgan ichki hujjat(lar)*

9.2. INDIKATOR

Baholash tartibi o'quv jarayoni boshlanishidan oldin talabalar va professor-o'qituvchilarga ma'lum qilib borilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Baholash tartibi o'quv jarayoni boshlanishidan oldin talabalar va professor-o'qituvchilarga qanday shakl va kanallar orqali yetkazilgan?*

❖ *Baholash tartibi bilan talabalar va professor-o'qituvchilarning tanishtirilgani qanday hujjatlar yoki dalillar orqali tasdiqlangan?*

❖ *Baholash tartibi bo'yicha tushuntirish ishlari o'tkazilishi va uning to'liq tushunilishini ta'minlash qanday mexanizmlar orqali amalga oshirilgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Tanishtirilganligi haqida ma'lumotlar*

9.3. INDIKATOR

Baholash jarayonida raqamli texnologiyalar samarali qo'llanilgan hamda talabalarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholash jarayonida xolislik, shaffoflik va akademik halollik ta'minlangan

Yordamchi savollar:

❖ *Talabalarining bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholash jarayonida qaysi raqamli texnologiyalar va platformalar qo'llanilgan?*

❖ *Baholash jarayonida xolislik va shaffoflikni ta'minlash uchun qanday mexanizmlar (avtomatlashtirilgan baholash, ochiq mezonlar, apellyatsiya tartibi) joriy etilgan?*

❖ *Baholash jarayonida akademik halollikni ta'minlash va qoidabuzarliklarning oldini olish bo'yicha qanday chora-tadbirlar amalga oshirilgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Baholash jarayonida raqamli texnologiyalarning qo'llanilganligi haqida ma'lumotlar va asoslovchi hujjatlar*

9.4. INDIKATOR

Baholash natijalari raqamli platformada, talabalarining amaliyot kundaligida hamda yakuniy davlat attestatsiya (bundan buyon matnda YDA deb yuritiladi) komissiyasining baholash bayonnomalarida tizimli aks ettirilgan, yuritilgan va saqlangan

Yordamchi savollar:

❖ *Baholash natijalari raqamli platformalarda, talabalarining amaliyot kundaligida va YDA komissiyasining baholash bayonnomalarida qanday tartibda aks ettirilgan va yuritilgan?*

❖ *Mazkur baholash hujjatlarini yuritish va saqlashning yagona tartibi hamda mas'ul shaxslari qanday belgilangan?*

❖ *Baholash natijalarining to'liqligi, aniqligi va saqlanishi qanday mexanizmlar orqali monitoring va nazorat qilinadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Raqamli platforma ma'lumotlari, amaliyot kundaligi, YDA bayonnomalari*

9.5. INDIKATOR

Baholash jarayoni va natijalari bo'yicha talabalarining shikoyatlarini hal etish bo'yicha apellyatsiya va (yoki) qayta ko'rib chiqish mexanizmi mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Baholash jarayoni va natijalari bo'yicha talabalarning shikoyatlarini ko'rib chiqish uchun qanday apellyatsiya va (yoki) qayta ko'rib chiqish mexanizmi joriy etilgan?*

❖ *Apellyatsiya murojaatlarini qabul qilish, ko'rib chiqish va qaror qabul qilish tartibi qanday hujjatlar bilan tartibga solingan?*

❖ *Apellyatsiya va qayta ko'rib chiqish natijalari bo'yicha talabalarga axborot yetkazish hamda qabul qilingan qarorlar ijrosini ta'minlash qanday mexanizmlar orqali amalga oshiriladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Baholash natijalari bo'yicha apellyatsiya va qayta ko'rib chiqish ichki hujjat(lar)i*

9.6. INDIKATOR

Baholash tizimining samaradorligi doimiy monitoring qilingan hamda monitoring natijalari asosida baholash tartibi takomillashtirib borilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Baholash tizimining samaradorligi qanday tartibda va qanday davriylikda monitoring qilingan?*

❖ *Monitoring jarayonida baholash tizimini baholash uchun qanday mezonlar va ko'rsatkichlardan foydalanilgan?*

❖ *Monitoring natijalari asosida baholash tartibini takomillashtirish bo'yicha qanday aniq o'zgartirishlar kiritilgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Baholash tartibi takomillashtirilganligi va monitoringi yuritilganligi haqida ma'lumotlar va asoslovchi hujjatlar*

10. MEZON: Ta'lim tashkilotida akademik halollik qoidalari belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi

Izoh: *Ta'lim tashkilotida akademik halollik qoidalarining belgilanishi va ularga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi hamda ta'lim jarayonida halollik, adolat va mas'uliyat tamoyillarini ta'minlash maqsadida ichki nazorat, monitoring va profilaktika mexanizmlari asosida amalga oshiriladigan institutsional faoliyati baholanadi.*

10.1. INDIKATOR

Oliy ta'lim tashkilotida akademik halollik, etika va kasbiy mas'uliyatga oid tartib (qoidalar) va (yoki) yo'riqnoma(lar) mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Oliy ta'lim tashkilotida akademik halollik, etika va kasbiy mas'uliyatga oid qanday tartib (qoidalar) va (yoki) yo'riqnomalar mavjud va ular qaysi hujjatlar bilan tasdiqlangan?*

❖ *Mazkur tartib va yo'riqnomalar professor-o'qituvchilar, xodimlar va talabalar uchun qanday tartibda joriy etilgan va tushuntirilgan?*

❖ *Akademik halollik, etika va kasbiy mas'uliyat qoidalariga rioya etilishini ta'minlash va nazorat qilish qanday mexanizmlar orqali amalga oshiriladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Akademik halollik, etika va kasbiy mas'uliyatga oid ichki hujjat(lar)*

10.2. INDIKATOR

Akademik halollik tamoyillari ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, o'qitish, baholash va tadqiqot faoliyati jarayonlariga tizimli ravishda integratsiya qilingan

Yordamchi savollar:

❖ *Akademik halollik tamoyillari ta'lim dasturlarini ishlab chiqish jarayoniga qanday talab va mexanizmlar orqali integratsiya qilingan?*

❖ *O'qitish, baholash va ilmiy-tadqiqot faoliyati jarayonlarida akademik halollikni ta'minlash uchun qanday aniq tartib va amaliyotlar joriy etilgan?*

❖ *Akademik halollik tamoyillarining ta'lim va tadqiqot jarayonlarida tizimli qo'llanilishi qanday monitoring va baholash mexanizmlari orqali nazorat qilinadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Akademik halollik to'g'risida ichki hujjatlar, integratsiya qilinganligi to'g'risida ma'lumot*

10.3. INDIKATOR

Akademik halollik qoidalari buzilishini oldini olish, aniqlash va bartaraf etish bo'yicha antiplagiat tizimi va tashkiliy choralar joriy etilgan*

Yordamchi savollar:

❖ *Akademik halollik qoidalari buzilishini oldini olish va aniqlash uchun qaysi antiplagiat tizimi joriy etilgan va uning qo'llanish tartibi qanday belgilangan?*

❖ *Akademik halollik qoidabuzarliklarini aniqlash, ko'rib chiqish va bartaraf etish bo'yicha qanday tashkiliy choralar va mas'ul tuzilmalar belgilangan?*

❖ *Antiplagiat tizimi va tashkiliy choralar qo'llanilishining samaradorligi qanday mexanizmlar orqali monitoring qilinadi va baholanadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Antiplagiat tizimi va tashkiliy choralar joriy etilganligi haqida ma'lumot va asoslovchi hujjatlar*

10.4. INDIKATOR

Akademik halollik qoidalarini buzish holatlarini ko'rib chiqish va javobgarlik choralari belgilash bo'yicha shaffof tartib mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Akademik halollik qoidalarini buzish holatlarini ko'rib chiqish uchun qanday shaffof tartib va protseduralar belgilangan?*

❖ *Qoidabuzarlik holatlarini ko'rib chiqish va javobgarlik choralari belgilashda qaysi organlar (komissiya, kengash) ishtirok etadi va ularning vakolatlari qanday aniqlangan?*

❖ *Qabul qilingan qarorlar bo'yicha manfaatdor tomonlarga axborot yetkazish hamda qarorlar ijrosini ta'minlash qanday mexanizmlar orqali amalga oshiriladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Akademik halollik to'g'risida ichki hujjatlar*

10.5. INDIKATOR

Talabalar va professor-o'qituvchilar akademik halollik va etika qoidalari bilan tanishtirilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Talabalar va professor-o'qituvchilar akademik halollik va etika qoidalari bilan qanday shakl va kanallar orqali tanishtirilgan?*

❖ *Akademik halollik va etika qoidalari bilan tanishtirilganlik holati qanday hujjatlar yoki dalillar orqali tasdiqlangan?*

❖ *Mazkur qoidalar bo'yicha tushuntirish va profilaktika ishlari (seminar, trening, yo'riqnoma) qanday davriylikda o'tkazilgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Tanishtirilganligini asoslovchi hujjatlar*

10.6. INDIKATOR

Talabalar va professor-o'qituvchilar uchun akademik halollik, etika, plagiat, sun'iy intellektdan to'g'ri foydalanish, mualliflik huquqi va manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha muntazam ravishda treninglar (seminarlar, ma'ruzalar) tashkil etilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Talabalar va professor-o'qituvchilar uchun akademik halollik, etika, plagiat, sun'iy intellektdan to'g'ri foydalanish, mualliflik huquqi va manfaatlar*

to'qnashuvi bo'yicha qanday muntazam treninglar (seminarlar, ma'ruzalar) tashkil etilgan?

❖ *Mazkur treninglarni tashkil etishning davriyligi, mazmuni va maqsadlari qanday tartibda belgilangan?*

❖ *O'tkazilgan treninglarning ishtirokchilar bilim va xabardorligini oshirishdagi samaradorligi qanday mezonlar asosida baholangan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *O'tkazilgan tadbirlar haqida ma'lumotlar va asoslovchi hujjatlar*

10.7. INDIKATOR

Talabalar va professor-o'qituvchilar tomonidan yaratilgan ilmiy ishlar, innovatsion g'oyalar, ixtirolar va boshqa intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar himoya qilingan

Yordamchi savollar:

❖ *Talabalar va professor-o'qituvchilar tomonidan yaratilgan ilmiy ishlar, innovatsion g'oyalar, ixtirolar va boshqa intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni himoya qilish bo'yicha qanday tartib va mexanizmlar joriy etilgan?*

❖ *Intellektual mulk obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish, mualliflikni tasdiqlash va huquqlarni rasmiylashtirish jarayoni qanday tartibda tashkil etilgan?*

❖ *Intellektual mulk huquqlarini himoya qilish choralari ilmiy va innovatsion faoliyatni rag'batlantirishga qanday ta'sir ko'rsatgani va bu samaradorlik qanday baholangan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Mualliflik huquqi va intellektual mulkni himoya qilinganligini asoslovchi hujjat(lar)*

10.8. INDIKATOR

Akademik halollik tizimining samaradorligi doimiy tahlil qilingan hamda uni takomillashtirish bo'yicha amaliy choralar ko'rilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Akademik halollik tizimining samaradorligini tahlil qilish qanday tartibda va qanday belgilangan davriylikda (yillik, yarim yillik) amalga oshiriladi?*

❖ *Tahlil jarayonida akademik halollik tizimining samaradorligini baholash uchun qanday mezonlar va ko'rsatkichlardan (qoidabuzarliklar soni, antiplagiat natijalari, murojaatlar, treninglar qamrovi va boshqalar) foydalaniladi?*

❖ *O'tkazilgan tahlillar natijalari asosida akademik halollik tizimini takomillashtirish bo'yicha qanday aniq amaliy chora-tadbirlar ko'rilgan va ularning ijrosi qanday nazorat qilinadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ Tizim samaradorligi va uni takomillashtirish bo'yicha tahliliy ma'lumotlar

11. MEZON: Bitiruvchilar bandligi monitoringi yuritilgani va ish beruvchilarning bitiruvchilarga oid fikr-mulohazalari tahlil qilingani

Izoh: Bitiruvchilarning mehnat bozoridagi bandligi va kasbiy faoliyati muntazam monitoring qilinishi, ish beruvchilarning bitiruvchilar malakasi, bilim va ko'nikmalariga oid fikr-mulohazalarini tahlil etilishi hamda ushbu tahlil natijalari asosida ta'lim dasturlari, o'quv fanlari mazmuni va o'qitish usullarini takomillashtirish bo'yicha amaliy choralar ko'rilganligi baholanadi.

11.1. INDIKATOR

Karyera markazi yoki bitiruvchilar bilan ishlash bo'limining faoliyati tashkil etilgan hamda uning yillik ish rejasida belgilangan vazifalarning ijrosi ta'minlangan

Yordamchi savollar:

- ❖ Oliy ta'lim tashkilotida karyera markazi yoki bitiruvchilar bilan ishlash bo'limi qanday huquqiy va tashkiliy asosda faoliyat yuritmoqda?
- ❖ Mazkur bo'linmaning yillik ish rejasida belgilangan vazifalar va ustuvor yo'nalishlar qanday aniqlangan?
- ❖ Yillik ish rejasida belgilangan vazifalarning ijrosi qanday mexanizmlar orqali monitoring qilinib, natijalari qanday baholanadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ Karyera markazi/bitiruvchilar bilan ishlash bo'limi faoliyati haqida ma'lumot va yillik ish rejasi

11.2. INDIKATOR

Mehnat bozoridagi tendensiyalar asosida talabalarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan

Yordamchi savollar:

- ❖ Mehnat bozoridagi tendensiyalarni aniqlash uchun qanday manbalar va tahlil usullaridan foydalanilgan?
- ❖ Aniqlangan mehnat bozori ehtiyojlari asosida talabalarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha qanday taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan?
- ❖ Ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar ta'lim dasturlari va o'quv jarayoniga qanday tarzda joriy etilgan va ularning samaradorligi qanday baholangan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ Ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar (tahliliy ma'lumotnoma)

11.3. INDIKATOR

Bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligi, amaliy ko'nikmalari va ish joyidagi samaradorligi yuzasidan ish beruvchilardan fikr-mulohazalar olish tizimi yo'lga qo'yilgan*

Yordamchi savollar:

❖ *Bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligi, amaliy ko'nikmalari va ish joyidagi samaradorligi bo'yicha ish beruvchilardan fikr-mulohazalar olish uchun qanday tizim va mexanizmlar joriy etilgan?*

❖ *Ish beruvchilardan olingan fikr-mulohazalar qanday tartibda yig'iladi, umumlashtiriladi va tahlil qilinadi?*

❖ *Ish beruvchilar fikr-mulohazalari asosida ta'lim dasturlari va o'quv jarayonini takomillashtirish bo'yicha qanday aniq chora-tadbirlar ko'rilgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Tizim yo'lga qo'yilganligini asoslovchi hujjat(lar)*

11.4. INDIKATOR

Bitiruvchilarning bandligi bo'yicha yagona ma'lumotlar bazasi mavjud hamda uning monitoringi muntazam yuritilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Bitiruvchilarning bandligi bo'yicha yagona ma'lumotlar bazasi qanday tartibda shakllantirilgan va yuritilmoqda?*

❖ *Mazkur ma'lumotlar bazasini monitoring qilish qanday davriylikda amalga oshiriladi va bunda qaysi manbalar va mexanizmlardan foydalaniladi?*

❖ *Bitiruvchilar bandligi bo'yicha monitoring natijalari ta'lim dasturlari va karyera bilan ishlash faoliyatini takomillashtirishda qanday qo'llaniladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Bitiruvchilarning bandligi monitoringi bo'yicha tahliliy ma'lumot (4-4.a-jadval)*

11.5. INDIKATOR

Bitiruvchilarning bandligi monitoringi natijalari tahlil qilingan hamda Boshqaruv kengashi va OTT kengashining yig'ilishlarida muhokama qilingan va tegishli qarorlar qabul qilingan

Yordamchi savollar:

❖ *Bitiruvchilarning bandligi monitoringi natijalari qanday tartibda va qanday davriylikda tahlil qilingan?*

❖ *Monitoring natijalari Boshqaruv kengashi va OTT kengashi yig'ilishlarida qanday tartibda muhokama qilingan?*

❖ *Muhokamalar natijasida bitiruvchilarning bandligini oshirish va ta'lim jarayonini takomillashtirish bo'yicha qanday qarorlar qabul qilingan va ularning ijrosi qanday nazorat qilingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Bitiruvchilar bandligi monitoringi natijalari bo'yicha tahliliy ma'lumot, OTT kengashi qarorlari va uning ijrosi*

11.6. INDIKATOR

Bitiruvchilarning bandligi monitoring natijalari hamda ish beruvchilarning fikr-mulohazalari asosida o'quv jarayoni takomillashtirilgan, kadrlar tayyorlash siyosati va qabul parametrlari qayta ko'rib chiqilgan, shuningdek yangilangan ma'lumotlar jamoatchilikka ochiq tarzda e'lon qilingan

Yordamchi savollar:

❖ *Bitiruvchilarning bandligi monitoringi natijalari va ish beruvchilarning fikr-mulohazalari qanday tartibda tahlil qilingan va umumlashtirilgan?*

❖ *Mazkur tahlillar asosida o'quv jarayonini takomillashtirish, kadrlar tayyorlash siyosati va qabul parametrlari qayta ko'rib chiqishda qanday aniq o'zgarishlar kiritilgan?*

❖ *Yangilangan o'quv jarayoni, kadrlar tayyorlash siyosati va qabul parametrlari bo'yicha ma'lumotlar jamoatchilikka qanday shakl va kanallar orqali ochiq e'lon qilingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Bajarilgan ishlar yuzasidan ma'lumotnoma va asoslovchi hujjatlar*

III. Talabalar faoliyati yo'nalishi

Izoh: Talabalarni qabul qilish, o'qishni ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish, o'qishdan chetlashtirish va qayta tiklash jarayonlarini qonunchilik talablari asosida samarali tashkil etish, akademik mobillikni yo'lga qo'yish hamda ta'lim xizmatlari eksportini rivojlantirish orqali talabalar kontingentini barqaror va samarali boshqarishga qaratilgan faoliyat baholanadi.

12. MEZON: Qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mosligi

Izoh: Ta'lim tashkilotining qabul parametrlarini mavjud professor-o'qituvchilar salohiyati, moddiy-texnik bazasi, o'quv xonalari va laboratoriyalar quvvati hamda moliyaviy resurslari bilan mutanosib ravishda belgilaganligi, shuningdek, qabul jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur resurslarni moliyalashtirish kafolati ta'minlanganlik darajasi baholanadi.

12.1. INDIKATOR

Qabul parametrlari (talabalar soni, yo'nalishlar kesimidagi kvotalar va boshqalar) oliy ta'lim tashkilotining auditoriyalari, maxsus xonalari, laboratoriyalari, amaliyot bazalari, texnikaviy jihozlanishi, shuningdek ta'lim dasturlarida belgilangan maqsadlarni amalga oshirish imkonini beradigan infratuzilma quvvatini hisobga olgan holda belgilangan*

Yordamchi savollar:

❖ *Qabul parametrlari (talabalar soni, yo'nalishlar kesimidagi kvotalar va boshqalar)ni belgilashda oliy ta'lim tashkilotining auditoriyalari, maxsus xonalari, laboratoriyalari, amaliyot bazalari va texnik jihozlanganlik darajasi qanday hisobga olingan?*

❖ *Qabul parametrlari ta'lim dasturlarida belgilangan maqsad va kutilgan o'quv natijalarini amalga oshirish imkonini beradigan infratuzilma quvvatiga qanday moslashtirilgan?*

❖ *Belgilangan qabul parametrlari infratuzilma quvvatiga mosligini monitoring qilish va zarur hollarda qayta ko'rib chiqish qanday mexanizmlar orqali amalga oshiriladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Yillik qabul rejasi va kvotalar haqidagi hujjatlar/amaldagi qonunchilikda belgilangan minimal talabalarning bajarilganligi haqidagi asosnoma (qiyoslama jadval) (5-6-jadvallar)*

12.2. INDIKATOR

Qabul parametrlarini belgilashda axborot-resurs markazining (kutubxonaning) (bundan buyon matnda ARM deb yuritiladi) imkoniyatlari (sig'imi) hisobga olingan

Yordamchi savollar:

❖ *Qabul parametrlarini belgilashda axborot-resurs markazining (ARM) sig'imi va mavjud imkoniyatlari (o'quv joylari, fond hajmi, elektron resurslar) qanday mezonlar asosida baholangan?*

❖ *ARM imkoniyatlari ta'lim yo'nalishlari va talabalar soni bo'yicha belgilangan qabul parametrlari bilan qanday tarzda uyg'unlashtirilgan?*

❖ *ARM sig'imining qabul parametrlari bilan mosligi qanday mexanizmlar orqali monitoring qilinadi va zaruratga ko'ra qanday takomillashtirish choralari ko'riladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Axborot-resurs markazi to'g'risidagi ma'lumot va asoslovchi hujjat(lar)*

12.3. INDIKATOR

Qabul parametrlari professor-o'qituvchilar soni, tarkibi va ularning o'quv (ish) yuklamasini tahlil qilish asosida belgilangan

Yordamchi savollar:

❖ *Qabul parametrlari professor-o'qituvchilarning soni, tarkibi va malaka darajasini inobatga olgan holda qanday tahlil asosida belgilangan?*

❖ *Professor-o'qituvchilarning o'quv (ish) yuklamasi tahlili qabul parametrlari bilan qanday uyg'unlashtirilgan?*

❖ *Professor-o'qituvchilar tarkibi va yuklamasidagi o'zgarishlar qabul parametrlari qayta ko'rib chiqilishiga qanday ta'sir ko'rsatadi va bu jarayon qanday monitoring qilinadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Qabul parametrlarining tahlil asosida shakllantirilganligini asoslovchi hujjatlar (7-jadval)*

12.4. INDIKATOR

Moliyaviy imkoniyatlardan (budget, grantlar, kontrakt tushumlari yoki boshqalar) kelib chiqqan holda qabul parametrlari shakllantirilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Qabul parametrlari oliy ta'lim tashkilotining moliyaviy imkoniyatlari (budget mablag'lari, grantlar, kontrakt tushumlari va boshqa manbalar)ni hisobga olgan holda qanday tartibda shakllantirilgan?*

❖ *Moliyaviy resurslarning prognozi va barqarorligi qabul parametrlari bo'yicha qarorlar qabul qilishda qanday inobatga olingan?*

❖ *Moliyaviy imkoniyatlar va qabul parametrlari o'rtasidagi muvozanat qanday mexanizmlar orqali monitoring qilinadi va zarur hollarda qabul parametrlari qayta ko'rib chiqiladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Moliyaviy imkoniyatlari to'g'risida ma'lumot*

✓ *Tegishli jadvallar*

12.5. INDIKATOR

Qabul parametrlari oliy ta'lim tashkilotini rivojlantirish rejasi (strategik rejasi, missiyasi, strategiyasi) va akademik profili bilan uyg'unlashtirilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Qabul parametrlari oliy ta'lim tashkilotini rivojlantirish rejasi (strategik reja, missiya va strategiya) bilan qanday tarzda uyg'unlashtirilgan?*

❖ *Qabul parametrlari oliy ta'lim tashkilotining akademik profili va ustuvor yo'nalishlarini hisobga olgan holda qanday belgilangan?*

❖ *Rivojlantirish rejasi va akademik profildagi o'zgarishlar qabul parametrlari qayta ko'rib chiqilishiga qanday ta'sir ko'rsatadi va bu jarayon qanday monitoring qilinadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Oliy ta'lim tashkilotining strategik rejasi*

12.6. INDIKATOR

Qabul parametrlari mehnat bozori ehtiyojlari, ustuvor ta'lim yo'nalishlari va ilmiy salohiyat bilan uyg'un holda shakllantirilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Qabul parametrlari mehnat bozori ehtiyojlarini aniqlash bo'yicha qanday tahlillar va ma'lumotlar asosida shakllantirilgan?*

❖ *Ustuvor ta'lim yo'nalishlari va oliy ta'lim tashkilotining ilmiy salohiyati qabul parametrlari belgilanishida qanday inobatga olingan?*

❖ *Mehnat bozori ehtiyojlari, ustuvor yo'nalishlar va ilmiy salohiyatdagi o'zgarishlar qabul parametrlari qayta ko'rib chiqilishiga qanday ta'sir ko'rsatadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Qabul parametrlari mehnat bozori ehtiyojlari, ustuvor ta'lim yo'nalishlari va ilmiy salohiyat bilan uyg'un holda shakllantirilganligi haqida ma'lumot va asoslovchi hujjatlar*

12.7. INDIKATOR

Qabul parametrlarini bajarilish holati bo'yicha har yili tahlil amalga oshirilgan hamda tahlil natijalari asosida qabul parametrlariga zarur o'zgartirishlar kiritib borilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Qabul parametrlarining bajarilish holati bo'yicha har yili qanday tartibda tahlil amalga oshirilgan?*

❖ *Tahlil jarayonida qabul parametrlarining samaradorligini baholash uchun qanday mezon va ko'rsatkichlardan foydalanilgan?*

❖ *O'tkazilgan tahlillar natijalari asosida qabul parametrlariga qanday zarur o'zgartirishlar kiritilgan va ularning ta'siri qanday baholangan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

Tahlillar asosida kiritilgan o'zgartirishlar haqida ma'lumot va asoslovchi hujjatlar

13. MEZON: Talabalarni o'qishga qabul qilish belgilangan tartib-qoidalar asosida to'g'ri tashkil qilingani hamda shaffof va adolatli amalga oshirilgani !

Izoh: Talabalarni o'qishga qabul qilish jarayoni amaldagi me'yoriy hujjatlar va tasdiqlangan tartib-qoidalar asosida tashkil etilganligi, qabul mezonlari jamoatchilik uchun ochiq va foydalanishga qulay, baholash jarayonida shaffoflik va adolat tamoyillari ta'minlangan hamda qabul qarorlariga nisbatan appelyatsiya berish tizimi tashkil etilganligi to'g'risidagi faoliyati baholanadi

13.1. INDIKATOR

O'qishga qabul qilish tartibi, qabul mezonlari, baholash usullari va qabul komissiyasining faoliyat ko'rsatish tartibi belgilangan*

Yordamchi savollar:

❖ *O'qishga qabul qilish tartibi, qabul mezonlari, baholash usullari va qabul komissiyasining faoliyat ko'rsatish tartibi qanday normativ-huquqiy va ichki hujjatlar bilan belgilangan?*

❖ *Mazkur qabul tartibi va mezonlari talabgorlar uchun ochiq, shaffof va tushunarli bo'lishi qanday mexanizmlar orqali ta'minlangan?*

❖ *Qabul jarayonining belgilangan tartib, mezon va baholash usullariga muvofiqligi qanday monitoring va nazorat mexanizmlari orqali ta'minlanadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Qabul tartib-qoidalari va komissiya faoliyatini belgilovchi ichki hujjat(lar)*

13.2. INDIKATOR

O'qishga qabul qilish tartibi, qabul mezonlari, baholash usullari va qabul komissiyasi faoliyatining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-sentabrdagi 578-son "Oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga muvofiqligi ta'minlangan

Yordamchi savollar:

❖ *O'qishga qabul qilish tartibi, qabul mezonlari, baholash usullari va qabul komissiyasi faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-sentabrdagi 578-son qarori talablariga qanday hujjatlar va mexanizmlar orqali muvofiqlashtirilgan?*

❖ *Mazkur qarorda belgilangan talablarning amaliyotda bajarilishi (qabul jarayoni, baholash, komissiya faoliyati) qanday tartibda monitoring qilinadi va nazorat qilinadi?*

❖ *578-son qaror talablari asosida aniqlangan nomuvofiqliklar yoki takomillashtirish zarurlari bo'yicha qanday chora-tadbirlar ko'rilgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ OTTga o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi ichki hujjat(lar)

13.3. INDIKATOR

Korrupsiyaning oldini olish, manfaatlar to'qnashuvi xavfini kamaytirish va baholashning xolisligini ta'minlovchi raqamlashtirilgan tizim joriy etilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Korrupsiyaning oldini olish, manfaatlar to'qnashuvi xavfini kamaytirish va baholashning xolisligini ta'minlash maqsadida qanday raqamlashtirilgan tizim joriy etilgan?*

❖ *Mazkur raqamlashtirilgan tizim orqali manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiya xavflarini aniqlash hamda baholash jarayonining shaffofligini ta'minlash qanday mexanizmlar orqali amalga oshiriladi?*

❖ *Raqamlashtirilgan tizimdan foydalanishning samaradorligi va baholash jarayonlarining xolisligiga ta'siri qanday mezonlar asosida monitoring va tahlil qilinadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Raqamlashtirilgan tizim joriy etilishi to'g'risidagi ma'lumot va asoslovchi hujjat*

13.4. INDIKATOR

Qabul jarayonida abituriyentlar uchun teng imkoniyatlar yaratilgan va qabul jarayonining barcha bosqichlari (hujjat topshirish, kirish imtihonlarini o'tkazish va natijalarini e'lon qilish, tanlov asosida o'qishga tavsiya etilgan yoki tavsiya etilmagan abituriyentlar ro'yxatini e'lon qilish va boshqalar) ochiq va shaffof tarzda amalga oshirilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Qabul jarayonida abituriyentlar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash bo'yicha qanday aniq mexanizmlar va choralar joriy etilgan?*

❖ *Qabul jarayonining barcha bosqichlari (hujjat topshirish, kirish imtihonlarini o'tkazish, natijalarni va tanlov yakunlarini e'lon qilish) qanday tartibda ochiq va shaffof amalga oshirilgan?*

❖ *Qabul jarayonining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash bo'yicha joriy etilgan mexanizmlarning samaradorligi qanday monitoring va nazorat qilinadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Qabul mezonlari, baholash usullari va jarayonning e'lon qilinishi to'g'risidagi ma'lumotlar va asoslovchi hujjatlar*

13.5. INDIKATOR

Qabul natijalari bo'yicha apellyatsiya komissiyasiga kelib tushgan arizalar rasmiylashtirilgan, ko'rib chiqilgan va ularning ijrosi nazoratga olingan

Yordamchi savollar:

- ❖ Qabul natijalari bo'yicha apellyatsiya komissiyasiga kelib tushgan arizalarni qabul qilish va rasmiylashtirish qanday tartibda amalga oshirilgan?
- ❖ Apellyatsiya arizalarini ko'rib chiqish va ular bo'yicha qaror qabul qilish jarayoni qanday hujjatlar va protseduralar asosida tashkil etilgan?
- ❖ Apellyatsiya arizalari bo'yicha qabul qilingan qarorlarning ijrosi qanday mexanizmlar orqali nazoratga olingan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ Apellyatsiya berish va ko'rib chiqish tartibi to'g'risidagi ma'lumot va asoslovchi hujjat(lar)

13.6. INDIKATOR

Qabul jarayoni doimiy ravishda ichki nazorat va tahlil qilingan hamda ichki nazorat va tahlil natijalari asosida qabul jarayonini takomillashtirish choralari ko'rilgan

Yordamchi savollar:

- ❖ Qabul jarayoni qanday tartibda va qanday davriylikda ichki nazorat va tahlildan o'tkazilgan?
- ❖ Ichki nazorat va tahlil jarayonida qabul jarayonini baholash uchun qanday mezonlar va ko'rsatkichlardan foydalanilgan?
- ❖ Ichki nazorat va tahlil natijalari asosida qabul jarayonini takomillashtirish bo'yicha qanday aniq chora-tadbirlar ko'rilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ Nazorat va tahlil ma'lumotlari hamda uning asosida jarayonni takomillashtirish yuzasidan ko'rilgan choralar.

14. MEZON: Talabalar o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishni qayta tiklash (bundan buyon matnda talabalar harakati deb yuritiladi) jarayonlarining belgilangan tartiblar asosida amalga oshirilgani 🚫

Izoh: Ta'lim tashkilotida talabalarning o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (yoki qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va qayta tiklash jarayonlari amaldagi me'yoriy hujjatlar hamda tasdiqlangan ichki tartib-qoidalar asosida adolatli va shaffof tarzda amalga oshirilishi, shuningdek, qabul qilingan qarorlarga nisbatan apellyatsiya berish mexanizmi samarali ishlashi baholanadi

14.1. INDIKATOR

Talabalar harakati bo'yicha ichki hujjat(lar) (qoidalar, tartib, nizom) o'qishga qabul qilish, o'qishni ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarga mos ravishda ishlab chiqilgan*

Yordamchi savollar:

❖ *Talabalar harakati bo'yicha ichki hujjatlar (qoidalar, tartib, nizom) qanday normativ-huquqiy hujjatlar asosida ishlab chiqilgan va ularning muvofiqligi qanday ta'minlangan?*

❖ *Mazkur ichki hujjatlarda o'qishga qabul qilish, o'qishni ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish jarayonlari qanday tartib va mezonlar asosida belgilangan?*

❖ *Ichki hujjatlarning amalda qo'llanilishi va normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiqligi qanday monitoring va nazorat mexanizmlari orqali ta'minlanadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Talabalar harakati bo'yicha ichki hujjat(lar).*

14.2. INDIKATOR

Talabalar harakati bo'yicha buyruqlar, komissiya bayonnomalari va boshqa hujjatlar asosli, adolatli va shaffof tarzda qabul qilingan holda rasmiylashtirilgan, ular bo'yicha hisobdorlik ta'minlangan va muntazam monitoring yuritilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Talabalar harakati bo'yicha buyruqlar, komissiya bayonnomalari va boshqa hujjatlar qaysi mezonlar asosida asosli, adolatli va shaffof tarzda qabul qilingan?*

❖ *Mazkur hujjatlarni rasmiylashtirish, ro'yxatga olish va ular bo'yicha hisobdorlikni ta'minlash qanday tartibda tashkil etilgan?*

❖ *Talabalar harakati bo'yicha qabul qilingan qarorlar ijrosi va hujjatlarning to'g'ri yuritilishi qanday mexanizmlar orqali muntazam monitoring qilinadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Talabalar harakati bo'yicha ichki hujjat(lar) va monitoring natijalari yuzasidan OTT kengash qarorlari.*

14.3. INDIKATOR

Kursdan-kursga o'tkazish yoki qoldirishning mezonlari aniq belgilangan hamda kursdan-kursga o'tkazish yoki qoldirish bo'yicha qaror qabul qilishda akademik ko'rsatkichlar hisobga olingan

Yordamchi savollar:

❖ *Kursdan-kursga o'tkazish yoki qoldirish mezonlari qanday normativ va ichki hujjatlar bilan aniq belgilangan?*

❖ *Kursdan-kursga o'tkazish yoki qoldirish bo'yicha qaror qabul qilishda qaysi akademik ko'rsatkichlar (o'zlashtirish darajasi, kreditlar, baholar va boshqalar) hisobga olingan?*

❖ *Mazkur qarorlarning adolatligi va shaffofligini ta'minlash hamda ularning ijrosini nazorat qilish qanday mexanizmlar orqali amalga oshiriladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Kursdan-kursga o'tkazish yoki qoldirish tartibi to'g'risida ichki hujjat va tegishli buyruqlar.*

14.4. INDIKATOR

Talabalar harakati bo'yicha talabalarning huquqlari ta'minlangan va jarayonlar haqida talabalar va ularning ota-onalari xabardor qilingan, shuningdek talabalar harakati bo'yicha barcha o'zgarishlar ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimlarida (HEMIS, LMS) o'z vaqtida aks ettirilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Talabalar harakati bo'yicha talabalarning huquqlari qanday mexanizmlar orqali ta'minlangan va qarorlar qabul qilish jarayonida ularning manfaatlari qanday hisobga olingan?*

❖ *Talabalar harakati bilan bog'liq jarayonlar (o'qishni ko'chirish, qayta tiklash, chetlashtirish va boshqalar) haqida talabalar va ularning ota-onalari qanday tartibda va qaysi kanallar orqali xabardor qilingan?*

❖ *Talabalar harakati bo'yicha barcha o'zgarishlar ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimlarida (HEMIS, LMS) o'z vaqtida aks ettirilishini ta'minlash qanday nazorat va monitoring mexanizmlari orqali amalga oshiriladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Talabalarga axborot yetkazish materiallari (veb-sayt va boshqalar);*

✓ *HEMIS va/yoki LMS platforma ma'lumotlari.*

14.5. INDIKATOR

Talabalar harakati bo'yicha shikoyat berish uchun ochiq va qulay tizim yaratilgan va shikoyatlarni ko'rib chiqish jarayonlari samarali tashkil etilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Talabalar harakati bo'yicha shikoyat berish uchun qanday ochiq va qulay tizim (onlayn platforma, murojaat qutisi, mas'ul bo'linma va boshqalar) joriy etilgan?*

❖ *Shikoyatlarni qabul qilish, ro'yxatga olish va ko'rib chiqish jarayonlari qanday tartib va muddatlar asosida samarali tashkil etilgan?*

❖ *Talabalar harakati bo'yicha kelib tushgan shikoyatlar natijalari va qabul qilingan qarorlar ijrosi qanday mexanizmlar orqali nazorat qilinadi va tahlil qilinadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *Talabalar harakati haqidagi ichki hujjatlar;*
- ✓ *Talabalar harakati bo'yicha shikoyat berish tizimi (onlayn platforma, murojaat qutisi, mas'ul bo'linma va boshqalar) mavjudligini asoslantiruvchi hujjatlar.*

15. MEZON: Respublika va xorijiy mamlakatlardagi ta'lim tashkilotlari bilan akademik mobillikning yo'lga qo'yilgani

Izoh: Talabalar va professor-o'qituvchilarning respublika hamda xorijiy ta'lim muassasalari bilan akademik mobillikda ishtirokini qo'llab-quvvatlovchi samarali tizim yo'lga qo'yilganligi hamda ushbu jarayonda tegishli kelishuvlar, memorandumlar va shartnomalar asosida amalga oshirilishi baholanadi

15.1. INDIKATOR

Respublika va xorijiy mamlakatlardagi ta'lim tashkilotlari bilan akademik mobillikni amalga oshirish bo'yicha kelishuvlar (shartnomalar, memorandumlar va hamkorlik bitimlari) tuzilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Respublika va xorijiy mamlakatlardagi qaysi ta'lim tashkilotlari bilan akademik mobillikni amalga oshirish bo'yicha kelishuvlar (shartnomalar, memorandumlar, hamkorlik bitimlari) tuzilgan?*

❖ *Mazkur kelishuvlarda akademik mobillikni amalga oshirish shartlari, yo'nalishlari va ishtirokchilar uchun belgilangan talablar qanday aniqlangan?*

❖ *Tuzilgan kelishuvlar asosida akademik mobillik dasturlarining amalga oshirilishi va samaradorligi qanday mexanizmlar orqali monitoring va baholanadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Akademik mobillik yo'nalishi, tartibi va shartlari (kreditlarni tan olish, o'quv yili davomiyligi, stipendiya) kelishilgan shartnoma yoki memorandumlar to'plami*

15.2. INDIKATOR

Akademik mobillik jarayonlarini tashkil etish, tanlov o'tkazish va moliyalashtirish tartibi belgilangan

Yordamchi savollar:

❖ *Akademik mobillik jarayonlarini tashkil etish bo'yicha umumiy tartib va mas'ul bo'linmalar qanday hujjatlar bilan belgilangan?*

❖ *Akademik mobillik dasturlarida ishtirok etish uchun tanlov o'tkazish mezonlari va tartibi qanday aniqlangan hamda ularning shaffofligi qanday ta'minlangan?*

❖ *Akademik mobillikni moliyalashtirish manbalari (budjet, grantlar, hamkor tashkilotlar va boshqalar) va mablag'lardan foydalanish tartibi qanday belgilangan va nazorat qilinadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Akademik mobillikni tashkil etish, tanlov o'tkazish va moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi ichki hujjat.

15.3. INDIKATOR

Akademik mobillikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha tarkibiy bo'linma tashkil etilgan va (yoki) mas'ul ijrochi(lar) belgilangan

Yordamchi savollar:

❖ Akademik mobillikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qaysi tarkibiy bo'linma tashkil etilgan va (yoki) qaysi mas'ul ijrochilar belgilangan?

❖ Mazkur tarkibiy bo'linma va (yoki) mas'ul ijrochilarning vazifalari, vakolatlari va javobgarligi qanday hujjatlar bilan aniqlangan?

❖ Akademik mobillikni qo'llab-quvvatlash faoliyatining samaradorligi qanday mexanizmlar orqali monitoring va baholanadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Akademik mobillik bo'yicha mas'ul bo'lim (yoki mas'ul shaxs) faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi buyruq.

15.4. INDIKATOR

Akademik mobillik jarayonlari milliy va xalqaro akademik mobillik talablari asosida amalga oshirilgan

Yordamchi savollar:

❖ Akademik mobillik jarayonlari qaysi milliy va xalqaro akademik mobillik talablari va me'yoriy hujjatlar asosida tashkil etilgan?

❖ Mazkur talablarning akademik mobillikni amalga oshirish jarayonlarida (tanlov, o'qish, kreditlarni tan olish, hisobot) bajarilishi qanday ta'minlangan?

❖ Milliy va xalqaro akademik mobillik talablariga muvofiqlik qanday tartibda monitoring qilinadi va baholanadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Milliy va xalqaro normativ talablar asosida ishlab chiqilgan akademik mobillik tartibi to'g'risidagi ichki hujjat.

15.5. INDIKATOR

Professor-o'qituvchilar va talabalarning akademik mobillik loyihalarida, shu jumladan hamkorlik dasturlari asosida yo'lga qo'yilgan loyihalarda ishtirok etishi uchun teng imkoniyatlar yaratilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Professor-o'qituvchilar va talabalar uchun akademik mobillik loyihalarida, jumladan hamkorlik dasturlari asosidagi loyihalarda ishtirok etish bo'yicha qanday teng imkoniyatlar yaratilgan?*

❖ *Akademik mobillik loyihalarida ishtirok etish uchun tanlov va saralash jarayonlarining adolatliligi va shaffofligi qanday ta'minlangan?*

❖ *Akademik mobillik loyihalarida ishtirok etish imkoniyatlaridan foydalanish darajasi va tenglik tamoyillariga rioya etilishi qanday monitoring va baholanadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Akademik mobillik to'g'risida ichki hujjat, amalga oshirilgan mobillik dasturlari bo'yicha buyruq va hisobotlar.*

15.6. INDIKATOR

Akademik mobillikda ishtirok etgan professor-o'qituvchilar va talabalar ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi, ta'lim dasturlari va o'quv jarayonini yaxshilashga qo'shayotgan hissasi tizimli tahlil qilingan

Yordamchi savollar:

❖ *Akademik mobillikda ishtirok etgan professor-o'qituvchilar va talabalar tomonidan olingan tajriba va natijalar qanday tartibda yig'ilgan va hujjatlashtirilgan?*

❖ *Mazkur tajriba va natijalarning ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi, ta'lim dasturlari va o'quv jarayonini yaxshilashga qo'shgan hissasi qanday mezonlar asosida tizimli tahlil qilingan?*

❖ *O'tkazilgan tahlillar natijalari asosida ta'lim dasturlari va o'quv jarayoniga qanday aniq takomillashtirish choralari joriy etilgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Akademik mobillik natijalari va ishtirokchilarning ta'lim jarayoniga qo'shgan hissasi bo'yicha tahliliy ma'lumot (11-11.a-jadvallar)*

16. MEZON: Ta'lim xizmatlari eksportining samarali yo'lga qo'yilgani

Izoh: *Xorijiy talabalarni qabul qilish va ularga ta'lim xizmatlari ko'rsatish jarayonlari tartib-qoidalar asosida samarali tashkil etilganligi, ta'lim jozibadorligini oshirish, xorijiy talabalarni qo'llab-quvvatlash hamda ularning fikr-mulohazalarini tahlil qilib amaliyotga joriy etish tizimi yo'lga qo'yilganligi baholanadi*

16.1. INDIKATOR

Xorijiy fuqarolarni o'qishga qabul qilish tartibi bo'yicha ichki hujjatlar ishlab chiqilgan va tasdiqlangan

Yordamchi savollar:

❖ *Xorijiy fuqarolarni o'qishga qabul qilish tartibini belgilovchi qaysi ichki hujjatlar (nizom, yo'riqnoma, tartib) ishlab chiqilgan va qaysi vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan?*

❖ *Mazkur ichki hujjatlarda xorijiy fuqarolarni qabul qilish jarayonining qaysi bosqichlari (hujjat topshirish, tanlov, ro'yxatdan o'tkazish, o'qishga qabul qilish) aniq tartibga solingan?*

❖ *Ichki hujjatlarning amalda qo'llanilishi va ularning milliy qonunchilik hamda xalqaro talablar bilan muvofiqligi qanday monitoring va tahlil qilingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Xorijiy fuqarolarni o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi ichki hujjat(lar).*

16.2. INDIKATOR

Xorijiy fuqarolarni jalb qilishga qaratilgan targ'ibot va xalqaro hamkorlik faoliyati muntazam yo'lga qo'yilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Xorijiy fuqarolarni jalb qilishga qaratilgan targ'ibot va xalqaro hamkorlik faoliyati qanday strategiya va reja asosida muntazam tashkil etilgan?*

❖ *Mazkur faoliyat doirasida qaysi targ'ibot vositalari va kanallari (xalqaro ko'rgazmalar, ta'lim yarmarkalari, onlayn platformalar, hamkor universitetlar) orqali ishlar olib borilgan?*

❖ *Xorijiy fuqarolarni jalb qilish bo'yicha olib borilgan targ'ibot va hamkorlik faoliyatining samaradorligi qanday ko'rsatkichlar asosida monitoring va tahlil qilingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Xorijiy talabalarni jalb qilish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi ma'lumot va asoslantiruvchi hujjat(lar).*

16.3. INDIKATOR

Xorijiy talabalarga mo'ljallangan ta'lim dasturlari, til kurslari yoki maxsus modul va xizmatlar (viza rasmiylashtirish, viza muddatini uzaytirish, turgan joy bo'yicha ro'yxatdan o'tkazish va boshqalar) tashkil etilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Xorijiy talabalarga mo'ljallangan qaysi ta'lim dasturlari, til kurslari va maxsus modullar ishlab chiqilgan hamda ularni amalga oshirish qanday tartibda yo'lga qo'yilgan?*

❖ *Xorijiy talabalar uchun viza rasmiylashtirish, viza muddatini uzaytirish, turgan joy bo'yicha ro'yxatdan o'tkazish kabi xizmatlar qaysi tarkibiy bo'linmalar orqali va qanday mexanizmlar asosida tashkil etilgan?*

❖ *Mazkur ta'lim dasturlari va xizmatlarning xorijiy talabalarning o'qishga moslashuvi, qoniqishi va akademik muvaffaqiyatiga ta'siri qanday monitoring va tahlil qilingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Tashkil etilgan ta'lim dasturlari, til kurslari yoki maxsus modul va xizmatlar to'g'risidagi ma'lumotlar.*

16.4. INDIKATOR

Xorijiy talabalarning yangi sharoitlarga (o'quv jarayoni, yashash, madaniyat va boshqalar) adaptatsiya bo'lishi bo'yicha ular tomonidan bildirilgan taklif va fikr-mulohazalar muntazam yig'ilgan, tahlil qilingan hamda tahlil natijalari asosida o'quv jarayoni va ijtimoiy sharoitlarni takomillashtirish choralari ko'rilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Xorijiy talabalarning yangi sharoitlarga (o'quv jarayoni, yashash, madaniy muhit va boshqalar) moslashuvi bo'yicha ularning taklif va fikr-mulohazalarini yig'ish qanday mexanizmlar (so'rovnomalar, uchrashuvlar, intervyular, onlayn platformalar) orqali muntazam amalga oshirilgan?*

❖ *Yig'ilgan taklif va fikr-mulohazalar qaysi yo'nalishlar kesimida (o'quv jarayoni, yashash sharoitlari, ijtimoiy-madaniy moslashuv) tahlil qilingan va tahlil jarayoniga qaysi mas'ul bo'linmalar jalb etilgan?*

❖ *Tahlil natijalari asosida xorijiy talabalarning adaptatsiyasini yaxshilash uchun o'quv jarayoni va ijtimoiy sharoitlarni takomillashtirish bo'yicha qanday aniq chora-tadbirlar amalga oshirilgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Yangi sharoitlarga adaptatsiya bo'lishi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar haqidagi ma'lumotlar.*

16.5. INDIKATOR

Xorijiy investitsiyalar hisobidan ta'lim texnologiyalari, ilmiy tadqiqotlar va infratuzilma modernizatsiya qilingan

Yordamchi savollar:

❖ *Xorijiy investitsiyalar qanday manbalar hisobidan va qanday mexanizm orqali ta'lim texnologiyalari, ilmiy tadqiqotlar hamda infratuzilmani modernizatsiya qilishga yo'naltirilgan?*

❖ *Xorijiy investitsiyalar hisobidan qaysi aniq ta'lim texnologiyalari, ilmiy tadqiqot yo'nalishlari va infratuzilma obyektlari modernizatsiya qilingan hamda bu jarayon qanday hujjatlar bilan tasdiqlangan?*

❖ *Amalga oshirilgan modernizatsiya ishlari ta'lim jarayoni sifati, ilmiy-tadqiqot samaradorligi va ta'lim muhitiga qanday ta'sir ko'rsatgan hamda bu natijalar qanday baholangan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Jalb qilingan investitsiyalarning ta'lim texnologiyalari, ilmiy tadqiqotlar va infratuzilma modernizatsiya qilishga yo'naltirilganligi bo'yicha ma'lumot(lar).*

16.6. INDIKATOR

Ta'lim xizmatlari eksporti ko'rsatkichlari, xorijiy talabalar oqimi, moliyaviy va akademik natijalar bo'yicha yillik tahlillar amalga oshirilgan va hisobotlar yuritilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim xizmatlari eksporti, xorijiy talabalar oqimi hamda moliyaviy va akademik natijalar bo'yicha yillik tahlillar qanday metodologiya va ko'rsatkichlar asosida amalga oshirilgan?*

❖ *Yillik tahlillar doirasida qaysi aniq statistik ma'lumotlar va axborot manbalaridan foydalanilgan hamda tahlil natijalari qanday shaklda rasmiylashtirilgan va hujjatlashtirilgan?*

❖ *O'tkazilgan yillik tahlillar natijalari asosida qanday boshqaruv qarorlari va takomillashtirish choralari qabul qilingan hamda ularning moliyaviy va akademik samaradorligi qanday baholangan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim xizmatlari eksporti bo'yicha yillik tahliliy hisobot (13-jadval)*

IV. O'quv jarayonini tashkil etish yo'nalishi

Izoh: *Ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash, professor-o'qituvchilarning o'quv-me'yoriy hujjatlari belgilangan talablar asosida yuritilishi, o'quv yuklamalari normativ talablarga muvofiq taqsimlanishi, ta'lim dasturlari iqtisodiyot va soha ehtiyojlaridan kelib chiqib yangilanganligi hamda dars jarayoni tahlil qilinib natijalari muhokama etiladigan faoliyat baholanadi*

17. MEZON: O'quv jarayonini rejalashtirish hujjatlarining ishlab chiqilgani va belgilangan tartibda tasdiqlangani !

Izoh: *Ta'lim tashkilotida malaka talablarining davlat ta'lim standartlari yoki xalqaro standartlar asosida ishlab chiqilganligi, o'quv rejaning tegishli milliy yoki xalqaro talablarga muvofiq ishlab chiqilganligi, o'quv dasturlari (sillabuslar) malaka talablari va o'quv rejaga muvofiq tayyorlanib, belgilangan tartibda tasdiqlanganligi hamda o'quv jarayonini rejalashtirish hujjatlarining professor-o'qituvchilar, talabalar va manfaatdor tomonlar uchun ochiq holda veb-sayt yoki axborot tizimi orqali e'lon qilinganligi baholanadi*

17.1. INDIKATOR

O'quv jarayoni jadvali (semestrlar davomiyligi, ta'til davrlari, oraliq va yakuniy nazoratlar muddatlari va boshqalar) ishlab chiqilgan hamda o'quv yilining boshlanishidan oldin e'lon qilingan*

Yordamchi savollar:

❖ *O'quv jarayoni jadvali (semestrlar davomiyligi, ta'til davrlari, oraliq va yakuniy nazoratlar muddatlari va boshqalar) qanday normativ va tashkiliy asosda ishlab chiqilgan?*

❖ *O'quv jarayoni jadvali o'quv yilining boshlanishidan oldin talabalar va professor-o'qituvchilarga qanday shakl va kanallar orqali e'lon qilingan?*

❖ *O'quv jarayoni jadvaliga rioya etilishi va zarur hollarda unga o'zgartirishlar kiritish jarayoni qanday mexanizmlar orqali monitoring qilinadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *O'quv jarayoni jadvali tasdiqlanganligi va e'lon qilinganligi to'g'risidagi ma'lumot.*

17.2. INDIKATOR

O'quv jarayonini rejalashtirish hujjatlari (o'quv jarayoni jadvali, o'quv rejalar, o'quv dasturlar (sillabuslar), dars jadvallari va imtihonlar jadvallari) oliy ta'lim tashkilotining tegishli tarkibiy bo'linmalarining (fakultet, kafedra, bo'lim va boshqalar) yig'ilishlarida muhokamadan o'tkazilgan holda tasdiqlangan

Yordamchi savollar:

❖ *O'quv jarayonini rejalashtirish hujjatlari (o'quv jarayoni jadvali, o'quv rejalar, sillabuslar, dars va imtihonlar jadvallari) qaysi tarkibiy bo'linmalar yig'ilishlarida va qanday tartibda muhokama qilingan?*

❖ *Mazkur hujjatlarni muhokama qilish jarayonida bildirilgan taklif va mulohazalar qanday tartibda inobatga olingan va yakuniy variantda aks ettirilgan?*

❖ *O'quv jarayonini rejalashtirish hujjatlarini tasdiqlash va ularning ijrosini nazorat qilish qanday mexanizmlar orqali amalga oshiriladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Tegishli tarkibiy bo'linmalar yig'ilishlari bayonnomalari.*

17.3. INDIKATOR

Dars jadvallari o'quv rejadagi kreditlar (soatlar) hajmi, fanlar (modullar) ketma-ketligi, guruhlar sig'imi va professor-o'qituvchilarning o'quv (ish) yuklamasiga muvofiq shakllantirilgan hamda auditoriya va vaqt bo'yicha to'qnashuvlarga yo'l qo'yilmagan

Yordamchi savollar:

❖ *Dars jadvallari o'quv rejadagi kreditlar (soatlar) hajmi va fanlar (modullar) ketma-ketligiga muvofiq qanday mezonlar asosida shakllantirilgan?*

❖ *Dars jadvallarini tuzishda guruhlar sig'imi, professor-o'qituvchilarning o'quv (ish) yuklamasi hamda auditoriya fondi qanday hisobga olingan?*

❖ *Auditoriya va vaqt bo'yicha to'qnashuvlarning oldini olish va dars jadvallarining muvofiqligini ta'minlash qanday nazorat va monitoring mexanizmlari orqali amalga oshiriladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Tasdiqlangan dars jadvali, professor-o'qituvchilar o'quv yuklamasi, o'quv reja.*

17.4. INDIKATOR

Ma'ruza, amaliy, laboratoriya, seminar va mustaqil ta'lim mashg'ulotlari bo'yicha haftalik va semestrlik yuklamalar taqsimoti hujjatlashtirilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ma'ruza, amaliy, laboratoriya, seminar va mustaqil ta'lim mashg'ulotlari bo'yicha haftalik va semestrlik yuklamalar qanday hujjatlar asosida taqsimlangan?*

❖ *Mazkur yuklamalar taqsimoti o'quv rejalari va fanlar (modullar) dasturlarida belgilangan talablar bilan qanday muvofiqlashtirilgan?*

❖ *Yuklamalar taqsimotining to'g'ri yuritilishi va hujjatlashtirilishi qanday tartibda monitoring va nazorat qilinadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *O'quv rejalari.*

17.5. INDIKATOR

O'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha o'quv jarayonini rejalashtirish hujjatlari, auditoriya, laboratoriya va maxsus xonalarning bandligi hamda guruhlar kesimidagi mashg'ulotlar axborot tizimida rejalashtirilgan va onlayn monitoring mexanizmi yo'lga qo'yilgan

Yordamchi savollar:

❖ *O'quv jarayonini rejalashtirish hujjatlari, auditoriya, laboratoriya va maxsus xonalarning bandligi hamda guruhlar kesimidagi mashg'ulotlar qaysi axborot tizimida va qanday tartibda rejalashtirilgan?*

❖ *Axborot tizimi orqali auditoriya, laboratoriya va mashg'ulotlar bandligini boshqarish hamda to'qnashuvlarning oldini olish qanday mexanizmlar orqali ta'minlanadi?*

❖ *O'quv jarayonini rejalashtirish va xonalar bandligi bo'yicha onlayn monitoring qanday tashkil etilgan va monitoring natijalari qanday boshqaruv qarorlarida foydalaniladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Dars jadvallari, auditoriya va laboratoriya bandligi reyestri, axborot tizimi monitoring hisobotlari.*

17.6. INDIKATOR

O'quv reja va dars jadvallariga o'quv yili davomida kiritilgan o'zgartirishlar hujjatlashtirilgan hamda professor-o'qituvchilar va talabalarga o'z vaqtida yetkazilgan

Yordamchi savollar:

❖ *O'quv reja va dars jadvallariga o'quv yili davomida kiritilgan o'zgartirishlar qanday tartibda rasmiylashtirilgan va hujjatlashtirilgan?*

❖ *Mazkur o'zgartirishlar professor-o'qituvchilar va talabalarga qanday shakl va kanallar orqali o'z vaqtida yetkazilgan?*

❖ *O'quv reja va dars jadvallariga kiritilgan o'zgartirishlarning asoslanganligi va o'z vaqtida yetkazilganligini nazorat qilish qanday mexanizmlar orqali amalga oshiriladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *O'quv rejasi va dars jadvallari o'zgartirishlari to'g'risidagi tasdiqlangan hujjatlar.*

18. MEZON: Professor-o'qituvchilarning o'quv-me'yoriy hujjatlari belgilangan talab asosida ishlab chiqilgani va yuritilishi !

Izoh: *Ta'lim jarayonining mazmun va sifatiga bevosita ta'sir etuvchi asosiy me'yoriy hujjatlar — o'quv jarayoni jadvali, dars jadvali, kalendar-taqvim rejalar, sillabuslar va boshqa o'quv-uslubiy materiallar professor-o'qituvchilar tomonidan belgilangan talablar va standartlar asosida ishlab chiqilishi, tasdiqlanishi va amaliyotda samarali qo'llanilish darajasi baholanadi*

18.1. INDIKATOR

O'quv dasturlarida (sillabuslarda) fanning (modulning) maqsadlari va vazifalari, kutilgan o'quv natijalari (learning outcomes), asosiy va qo'shimcha adabiyotlar, baholash mezonlari va usullari, ta'lim texnologiyalari aniq belgilangan

Yordamchi savollar:

❖ *O'quv dasturlarida (sillabuslarda) fan (modul)ning maqsadlari va vazifalari hamda kutilgan o'quv natijalari (learning outcomes) qanday tartibda belgilangan va rasmiylashtirilgan?*

❖ *Sillabuslarda asosiy va qo'shimcha adabiyotlar, baholash mezonlari va usullari hamda qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari qanday aniqlikda ko'rsatilgan?*

❖ *O'quv dasturlarining (sillabuslarning) mazmuni ta'lim dasturlari maqsadlariga va kutilgan o'quv natijalariga muvofiqligi qanday mexanizmlar orqali monitoring va baholanadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *O'quv dastur (sillabus)lar.*

18.2. INDIKATOR

Professor-o'qituvchilarning o'quv-me'yoriy hujjatlari (o'quv dasturi (sillabus), o'qitish materiallari, shaxsiy yillik ish reja) fanning (modulning) maqsadlari va vazifalariga muvofiq ishlab chiqilgan hamda oliy ta'lim tashkilotining tegishli tarkibiy bo'linmalarining (fakultet, kafedra, bo'lim va boshqalar) yig'ilishlarida muhokama qilingan holda tasdiqlangan

Yordamchi savollar:

❖ *Professor-o'qituvchilarning o'quv-me'yoriy hujjatlari (sillabus, o'qitish materiallari, shaxsiy yillik ish reja) fanning (modulning) maqsad va vazifalariga qanday tarzda muvofiqlashtirilgan holda ishlab chiqilgan?*

❖ *Mazkur o'quv-me'yoriy hujjatlar oliy ta'lim tashkilotining qaysi tarkibiy bo'linmalari (fakultet, kafedra, bo'lim va boshqalar) yig'ilishlarida va qanday tartibda muhokama qilingan?*

❖ *Muhokama natijalari asosida o'quv-me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash va ularning amalda qo'llanilishini nazorat qilish qanday mexanizmlar orqali ta'minlangan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Professor-o'qituvchilarning o'quv-me'yoriy hujjatlari;*

✓ *Tegishli tarkibiy bo'linmalar yig'ilishlari bayonnomalari.*

18.3. INDIKATOR

Ishlab chiqilgan o'quv-me'yoriy hujjatlar amaliyotga tatbiq etilgan hamda ushbu hujjatlarning amalda qo'llanilishi doimiy ravishda monitoring va tahlil qilingan

Yordamchi savollar:

❖ *Ishlab chiqilgan o'quv-me'yoriy hujjatlar (sillabuslar, o'qitish materiallari, ish rejalari) o'quv jarayoniga qanday tartibda tatbiq etilgan?*

❖ *Mazkur o'quv-me'yoriy hujjatlarning amalda qo'llanilishi qanday mezonlar va usullar orqali doimiy monitoring qilinadi?*

❖ *Monitoring va tahlil natijalari asosida o'quv-me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish bo'yicha qanday aniq o'zgarishlar kiritilgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *O'quv-me'yoriy hujjatlari monitoringi va tahlili bo'yicha ma'lumot.*

18.4. INDIKATOR

Monitoring va tahlil natijasida o'quv-me'yoriy hujjatlarni (o'quv dasturi (sillabus), o'qitish materiallari, shaxsiy yillik ish reja) qo'llashda aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan va ijro etilgan hamda shu asosida o'quv-me'yoriy hujjatlar takomillashtirib borilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Monitoring va tahlil jarayonida o'quv-me'yoriy hujjatlarni (sillabus, o'qitish materiallari, shaxsiy yillik ish rejalari) qo'llashda qaysi muammo va kamchiliklar aniqlangan?*

❖ *Aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha qanday chora-tadbirlar belgilangan va ularning ijrosi qanday tashkil etilgan?*

❖ *Ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida o'quv-me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish bo'yicha qanday aniq o'zgartirishlar kiritilgan va ularning samaradorligi qanday baholangan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *O'quv-me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish bo'yicha belgilangan chora-tadbirlar va ularning ijrosi bo'yicha ma'lumot.*

19. MEZON: Professor-o'qituvchilarga o'quv yuklamalarining belgilangan normalarga muvofiq ajratilganligi

Izoh: *O'quv yuklamalari tegishli me'yorlar va kengash qarorlari asosida shakllantirilishi, adolatli taqsimlanishi, o'z vaqtida yetkazilishi va muntazam nazorat qilinishi, shuningdek, ilmiy-tadqiqot va amaliy faoliyat bilan uyg'unligi baholanadi*

19.1. INDIKATOR

Professor-o'qituvchilarning o'quv (ish) yuklamalari xalqaro standartlar va (yoki) professor-o'qituvchilarning o'quv yuklamasi hajmini hisoblashning vaqt me'yorlari va shtatlar jadvaliga muvofiq ishlab chiqilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Professor-o'qituvchilarning o'quv (ish) yuklamalari qaysi xalqaro standartlar va (yoki) o'quv yuklamasi hajmini hisoblash bo'yicha belgilangan vaqt me'yorlari asosida ishlab chiqilgan?*

❖ *O'quv (ish) yuklamalarini belgilashda shtatlar jadvali, fanlar (modullar) hajmi va ta'lim shakllari qanday tarzda hisobga olingan?*

❖ *Professor-o'qituvchilarning o'quv (ish) yuklamalarining belgilangan me'yorlarga muvofiqligi va adolatliligi qanday mexanizmlar orqali monitoring va tahlil qilinadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *Professor-o'qituvchilar o'quv yuklamalari.*

19.2. INDIKATOR

O'quv (ish) yuklamalari professor-o'qituvchilar o'rtasida ularning mutaxassisligi, ilmiy darajasi va ilmiy unvonidan kelib chiqib mutanosib ravishda taqsimlangan

Yordamchi savollar:

❖ *Professor-o'qituvchilar o'rtasida o'quv (ish) yuklamalarini taqsimlashda ularning mutaxassisligi, ilmiy darajasi va ilmiy unvonlari qanday mezonlar asosida inobatga olingan?*

❖ *O'quv (ish) yuklamalarining mutanosib taqsimlanganligini ta'minlash uchun qanday tartib va mexanizmlar qo'llanilgan?*

❖ *O'quv (ish) yuklamalari taqsimotining adolatliligi va muvofiqligi qanday monitoring va tahlil mexanizmlari orqali baholanadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *Professor-o'qituvchilar o'quv yuklamalari;*
- ✓ *Tegishli jadvallar va asoslovchi hujjatlar.*

19.3. INDIKATOR

O'quv (ish) yuklamalarining taqsimoti barcha professor-o'qituvchilar uchun ochiq va shaffof tarzda amalga oshirilgan

Yordamchi savollar:

❖ *O'quv (ish) yuklamalarini taqsimlash jarayoni barcha professor-o'qituvchilar uchun ochiq va shaffof bo'lishi qanday mexanizmlar orqali ta'minlangan?*

❖ *O'quv (ish) yuklamalari taqsimoti bo'yicha ma'lumotlar professor-o'qituvchilarga qanday tartibda va qaysi kanallar orqali yetkazilgan?*

❖ *Yuklama taqsimotining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash hamda kelib chiqadigan e'tirozlarni ko'rib chiqish qanday mexanizmlar orqali amalga oshiriladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *Professor-o'qituvchilar o'quv yuklamalari taqsimoti bo'yicha ma'lumot.*

19.4. INDIKATOR

O'quv (ish) yuklamalari to'g'risidagi ma'lumotlar o'quv yili boshlanishidan avval professor-o'qituvchilarga yetkazilgan

Yordamchi savollar:

❖ *O'quv (ish) yuklamalari to'g'risidagi ma'lumotlar o'quv yili boshlanishidan avval professor-o'qituvchilarga qanday tartibda va qaysi kanallar orqali yetkazilgan?*

❖ *Mazkur ma'lumotlarning o'z vaqtida yetkazilganligi va professor-o'qituvchilar tomonidan tanishib chiqilganligi qanday hujjatlar yoki dalillar bilan tasdiqlangan?*

❖ *O'quv yili boshlanishidan oldin yetkazilgan yuklama ma'lumotlariga oid e'tiroz va takliflarni ko'rib chiqish qanday mexanizmlar orqali amalga oshirilgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Professor-o'qituvchilar o'quv yuklamalari taqdim etilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar.*

19.5. INDIKATOR

Shaxsiy yillik ish rejalarida ilmiy tadqiqot olib borish va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish uchun alohida band belgilangan

Yordamchi savollar:

❖ *Professor-o'qituvchilar (xodimlar)ning shaxsiy yillik ish rejalarida ilmiy tadqiqot olib borish va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha alohida band qanday tartibda belgilangan?*

❖ *Ushbu band doirasida qanday ilmiy-tadqiqot faoliyati va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan ishlar rejalashtirilgan hamda ularning bajarilishi qanday hujjatlar orqali tasdiqlanadi?*

❖ *Shaxsiy yillik ish rejaları ijrosi qanday monitoring qilinadi va ilmiy hamda amaliy faoliyat natijalari xodimlarning baholanishi va rag'batlantirilishiga qanday integratsiya qilingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Professor-o'qituvchilarning shaxsiy yillik ish rejaları.*

20. MEZON: Ta'lim dasturlarining iqtisodiyot, sanoat va soha ehtiyojlaridan kelib chiqib takomillashtirilgani hamda mazmunining yangilanganligi

Izoh: *Ta'lim dasturlari mehnat bozori, iqtisodiyot va soha talablariga mos holda qayta ko'rib chiqilishi, yangilanishi va takomillashtirilishi, shuningdek, amaliyot bilan bog'liqligini ta'minlash darajasi baholanadi*

20.1. INDIKATOR

Ta'lim dasturlari bo'yicha muntazam monitoring va tahlil qilish mexanizmi yaratilgan hamda kutilgan o'quv natijalariga (learning outcomes) erishish darajasi doimiy baholangan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim dasturlari bo'yicha muntazam monitoring va tahlil qilish mexanizmi qanday tartibda tashkil etilgan va uning asosiy bosqichlari nimalardan iborat?*

❖ *Kutilgan o'quv natijalariga (learning outcomes) erishish darajasini baholashda qanday mezonlar, ko'rsatkichlar va baholash usullaridan foydalaniladi?*

❖ *Monitoring va baholash natijalari asosida ta'lim dasturlarini takomillashtirish bo'yicha qanday aniq chora-tadbirlar ko'riladi va ularning samaradorligi qanday nazorat qilinadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim dasturlari monitoring va tahlil qilinganligini asoslovchi hujjatlar.*

20.2. INDIKATOR

Ta'lim dasturlari mehnat bozori, sanoat va iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari hamda soha ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda muntazam qayta ko'rib chiqilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim dasturlarini mehnat bozori, sanoat va iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari hamda soha ehtiyojlariga muvofiq qayta ko'rib chiqish qanday tartibda va qanday davriylikda amalga oshiriladi?*

❖ *Ta'lim dasturlarini yangilash jarayonida qaysi ma'lumot manbalari va manfaatdor tomonlar (ish beruvchilar, soha mutaxassislari, bitiruvchilar va boshqalar) fikrlari inobatga olingan?*

❖ *Qayta ko'rib chiqilgan ta'lim dasturlarining mehnat bozori ehtiyojlariga mosligi va samaradorligi qanday mezonlar asosida baholanadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim dasturini qayta ko'rib chiqilganligini asoslantiruvchi hujjatlar*

20.3. INDIKATOR

Ta'lim dasturlari mazmuniga raqamli texnologiyalar, zamonaviy kompetensiyalar va innovatsion yondashuvlar integratsiya qilingan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim dasturlari mazmuniga qaysi raqamli texnologiyalar, zamonaviy kompetensiyalar va innovatsion yondashuvlar qanday tartibda integratsiya qilingan?*

❖ *Mazkur integratsiya ta'lim dasturlarining kutilgan o'quv natijalari (learning outcomes) va fanlar (modullar) maqsadlariga qanday moslashtirilgan?*

❖ *Raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarning ta'lim dasturlariga integratsiyasining samaradorligi qanday monitoring va baholash mexanizmlari orqali aniqlanadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ O'quv dasturi (sillabus) va o'quv materiallari.

20.4. INDIKATOR

Ta'lim dasturlarini takomillashtirish jarayonida manfaatdor tomonlarning taklif va fikr-mulohazalari o'rganilgan va inobatga olingan

Yordamchi savollar:

❖ Ta'lim dasturlarini takomillashtirish jarayonida qaysi manfaatdor tomonlarning (ish beruvchilar, talabalar, bitiruvchilar, professor-o'qituvchilar va boshqalar) taklif va fikr-mulohazalari yig'ilgan?

❖ Yig'ilgan taklif va fikr-mulohazalarni tahlil qilish va ustuvor yo'nalishlarni aniqlash qanday tartibda amalga oshirilgan?

❖ Manfaatdor tomonlar fikrlari asosida ta'lim dasturlariga qanday aniq o'zgartirishlar kiritilgan va ularning ta'siri qanday baholangan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ Manfaatdor tomonlarning taklif va fikr-mulohazalari o'rganilganligi va inobatga olinganligi to'g'risidagi ma'lumotlar.

20.5. INDIKATOR

Ta'lim dasturlariga kiritilgan o'zgartirishlar manfaatdor tomonlarga ochiq va shaffof tarzda yetkazilgan

Yordamchi savollar:

❖ Ta'lim dasturlariga kiritilgan o'zgartirishlar qaysi manfaatdor tomonlarga (talabalar, professor-o'qituvchilar, ish beruvchilar va boshqalar) yetkazilgan?

❖ Mazkur o'zgartirishlarni manfaatdor tomonlarga ochiq va shaffof tarzda yetkazish qanday shakl va axborot kanallari orqali amalga oshirilgan?

❖ Ta'lim dasturlaridagi o'zgartirishlar bo'yicha manfaatdor tomonlardan kelib tushgan savol va fikr-mulohazalarni qabul qilish va ko'rib chiqish qanday mexanizmlar orqali tashkil etilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ Ta'lim dasturiga kiritilgan o'zgarishlar to'g'risidagi e'lonlar.

21. MEZON: Ta'lim tashkilotida dars tahlillarining olib borilgani va natijalarining muhokama qilinganligi

Izoh: Darslarning samaradorligini baholash, ta'lim jarayonini takomillashtirish va o'qitish sifatini oshirish maqsadida muntazam dars tahlillari o'tkazilishi, natijalar muhokama qilinishi hamda tavsiyalar asosida choralarni ko'rilishi darajasi baholanadi

21.1. INDIKATOR

Dars tahlillarini o'tkazish tartibi, mezonlari va baholash ko'rsatkichlari oliy ta'lim tashkilotining ichki hujjatlarida belgilangan

Yordamchi savollar:

❖ *Dars tahlillarini o'tkazish tartibi, mezonlari va baholash ko'rsatkichlari qaysi ichki hujjatlar bilan belgilangan va tasdiqlangan?*

❖ *Mazkur dars tahlili mezonlari va baholash ko'rsatkichlari ta'lim sifatini oshirish maqsadlariga qanday moslashtirilgan?*

❖ *Dars tahlillarini o'tkazish tartibi va belgilangan mezonlarga rioya etilishi qanday monitoring va nazorat mexanizmlari orqali ta'minlanadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Dars tahlillarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi ichki hujjat(lar).*

21.2. INDIKATOR

Rahbar kadrlar va professor-o'qituvchilar tomonidan dars tahlillari reja-grafik asosida muntazam amalga oshirilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Rahbar kadrlar va professor-o'qituvchilar tomonidan dars tahlillari qanday reja-grafik asosida va qanday davriylikda amalga oshirilgan?*

❖ *Dars tahlillari jarayonida belgilangan mezonlar va baholash ko'rsatkichlariga rioya etilishi qanday ta'minlangan?*

❖ *Dars tahlillari natijalari asosida o'qitish sifatini yaxshilash bo'yicha qanday aniq tavsiyalar va chora-tadbirlar belgilangan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Tasdiqlangan reja-grafik va dars tahlillari bo'yicha ma'lumotlar.*

21.3. INDIKATOR

Dars tahlillari natijalari oliy ta'lim tashkilotining tegishli tarkibiy bo'linmalarining (fakultet, kafedra, bo'lim va boshqalar) yig'ilishlarida muhokama qilib borilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Dars tahlillari natijalari qaysi tarkibiy bo'linmalar (fakultet, kafedra, bo'lim va boshqalar) yig'ilishlarida va qanday davriylikda muhokama qilingan?*

❖ *Yig'ilishlarda dars tahlillari natijalari bo'yicha qanday xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqilgan?*

❖ *Muhokamalar natijasida belgilangan tavsiyalar va chora-tadbirlarning ijrosi qanday mexanizmlar orqali monitoring qilinadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *Dars tahlillari natijalari bo'yicha yig'ilish bayonnomalari.*

21.4. INDIKATOR

Dars tahlillari davomida aniqlangan muammo va kamchiliklar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha metodik tavsiyalar tizimli ravishda ishlab chiqilgan

Yordamchi savollar:

- ❖ *Dars tahlillari jarayonida aniqlangan muammo va kamchiliklar qanday tartibda qayd etilgan va tizimlashtirilgan?*
- ❖ *Aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha metodik tavsiyalar qanday asosda va kimlar ishtirokida ishlab chiqilgan?*
- ❖ *Ishlab chiqilgan metodik tavsiyalarning amaliyotga joriy etilishi va samaradorligi qanday mexanizmlar orqali monitoring va baholanadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *Dars tahlillari natijalari bo'yicha metodik tavsiyalar va ularning ijrosi bo'yicha ma'lumot(lar).*

21.5. INDIKATOR

Yosh pedagoglarning pedagogik mahoratini oshirish maqsadida ular "ustoz–shogird" va mentorlik tizimlari asosida tajribali professor-o'qituvchilarga biriktirilgan

Yordamchi savollar:

- ❖ *Yosh pedagoglarni "ustoz–shogird" va mentorlik tizimlari asosida tajribali professor-o'qituvchilarga biriktirish qanday tartibda va qaysi mezonlar asosida amalga oshirilgan?*
- ❖ *Mentorlik jarayonida yosh pedagoglarning pedagogik mahoratini oshirish uchun qanday aniq faoliyatlar (dars kuzatuv, maslahatlar, metodik mashg'ulotlar) tashkil etilgan?*
- ❖ *"Ustoz–shogird" va mentorlik tizimlari orqali yosh pedagoglar pedagogik mahoratini oshirish natijalari qanday mezonlar asosida baholangan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *"Ustoz–shogird" tizimi bo'yicha biriktirilganligi hamda uning natijasi bo'yicha ma'lumot.*

V. Inson resurslari yo'nalishi

Izoh: Ta'lim tashkilotining kadrlar salohiyati, professor-o'qituvchilar va rahbar xodimlarning malakasi, ilmiy darajasi, kasbiy rivojlanishi hamda faoliyat samaradorligini baholashga qaratilgan faoliyat baholanadi

22. MEZON: Belgilangan talablar va me'yorlarga muvofiq ilmiy salohiyatga ega pedagog kadrlarning mavjudligi

Izoh: Ta'lim tashkilotida fanlarga mos ixtisoslikka ega, ilmiy darajali va yuqori malakadagi professor-o'qituvchilar bilan ta'minlanganligi, kadrlar salohiyatining davlat standartlari talablariga muvofiqligi hamda ularning samarali faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratilganligi baholanadi

22.1. INDIKATOR

Professor-o'qituvchilarning soni talabalar kontingentiga nisbatan talabalar soni nisbati normativlari va professor-o'qituvchilarga qo'yiladigan minimal talablar doirasida belgilangan (bunda, asosiy shtatdagi professor-o'qituvchilar soni barcha professor-o'qituvchilar soniga nisbatan kamida 70 foizni tashkil etadi)*

Yordamchi savollar:

❖ Professor-o'qituvchilarning soni talabalar kontingentiga nisbatan talabalar soni nisbati bo'yicha belgilangan normativlarga qanday hisob-kitoblar asosida moslashtirilgan?

❖ Professor-o'qituvchilarga qo'yiladigan minimal talablar (malaka, shtat turi, ish yuklamasi)ni ta'minlash qanday tartibda amalga oshirilgan?

❖ Asosiy shtatdagi professor-o'qituvchilar ulushining umumiy professor-o'qituvchilar soniga nisbatan kamida 70 foizni tashkil etishi qanday monitoring va nazorat mexanizmlari orqali ta'minlanadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Pedagog kadrlar ro'yxati va malaka to'g'risidagi hujjatlar (diplom, sertifikat, ilmiy daraja va unvonni tasdiqlovchi hujjatlar) tegishli jadval asosida (14-jadval)

22.2. INDIKATOR

Oliy ta'lim tashkiloti ilmiy daraja va unvonga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar bilan ta'minlangan (bunda, asosiy shtatdagi ilmiy daraja va unvonga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar soni barcha asosiy shtatdagi professor-o'qituvchilar soniga nisbatan bakalavriatda kamida 35 foizni va magistraturada 70 foizni tashkil etadi)*

Yordamchi savollar:

❖ OTTda ilmiy daraja va unvonga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar ulushi bakalavriat va magistratura bosqichlari bo'yicha belgilangan normativlarga qanday hisob-kitoblar asosida moslashtirilgan?

❖ Asosiy shtatdagi ilmiy daraja va unvonga ega professor-o'qituvchilar sonining umumiy asosiy shtatdagi professor-o'qituvchilar soniga nisbatan bakalavriatda kamida 35 foizni va magistraturada 70 foizni tashkil etishi qanday monitoring mexanizmlari orqali ta'minlanadi?

❖ *Ilmiy daraja va unvonga ega professor-o'qituvchilar bilan ta'minlanganlik darajasi ta'lim sifatiga ta'siri qanday mezonlar asosida baholanadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Pedagog kadrlar ro'yxati va malaka to'g'risidagi hujjatlar (diplom, sertifikat, ilmiy daraja va unvonni tasdiqlovchi hujjatlar) tegishli jadval asosida (14-jadval)*

22.3. INDIKATOR

Professor-o'qituvchilar ilmiy-tadqiqot faoliyatida faol ishtirok etgan hamda ularning ilmiy ishlari va natijalari doimiy tahlil qilingan

Yordamchi savollar:

❖ *Professor-o'qituvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatida ishtiroki (ilmiy loyihalar, grantlar, maqolalar, konferensiyalar va boshqalar) qanday tartibda tashkil etilgan va rag'batlantirilgan?*

❖ *Professor-o'qituvchilarning ilmiy ishlari va natijalarini (nashrlar, iqtiboslar, patentlar, loyiha natijalari) tahlil qilish qanday mezonlar va ko'rsatkichlar asosida amalga oshirilgan?*

❖ *Ilmiy-tadqiqot faoliyati bo'yicha o'tkazilgan tahlillar natijalari asosida ilmiy faoliyatni rivojlantirish va samaradorligini oshirish bo'yicha qanday aniq chora-tadbirlar ko'rilgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Pedagog kadrlarning ilmiy-tadqiqot faoliyati tahliliy hisobotlari.*

22.4. INDIKATOR

Oliy ta'lim tashkilotini ilmiy salohiyatga ega professor-o'qituvchilar bilan ta'minlash uchun maqsadli kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Oliy ta'lim tashkilotini ilmiy salohiyatga ega professor-o'qituvchilar bilan ta'minlash maqsadida qanday maqsadli kadrlar tayyorlash mexanizmlari joriy etilgan?*

❖ *Maqsadli kadrlar tayyorlash doirasida qaysi bosqichlar (magistratura, PhD, DSc, stajirovkalar) va tanlash mezonlari belgilangan?*

❖ *Maqsadli kadrlar tayyorlash dasturlarining natijalari va ularning oliy ta'lim tashkilotining ilmiy salohiyatiga qo'shgan hissasi qanday monitoring va tahlil qilinadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Maqsadli kadrlar tayyorlash bo'yicha ma'lumot va asoslovchi hujjatlar*

22.5. INDIKATOR

Professor-o'qituvchilar faoliyati samaradorligini baholash tizimi joriy etilgan hamda ilmiy salohiyatga ega xodimlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va moddiy rag'batlantirish tizimi mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Professor-o'qituvchilar faoliyati samaradorligini baholash tizimi qanday mezonlar va ko'rsatkichlar asosida joriy etilgan?*

❖ *Mazkur baholash tizimi doirasida ilmiy salohiyatga ega xodimlarni aniqlash va ularning faoliyat natijalarini hisobga olish qanday tartibda amalga oshiriladi?*

❖ *Ilmiy salohiyatga ega xodimlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va moddiy rag'batlantirish tizimi qanday mexanizmlar orqali amalga oshiriladi va uning samaradorligi qanday baholanadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *KPI bo'yicha tasdiqlangan ichki hujjat va rag'batlantirish bo'yicha buyruqlar.*

23. MEZON: Ta'lim tashkilotida pedagog kadrlarning mutaxassisligi (ixtisosligi) dars o'tadigan fan(lar)ga mosligi

Izoh: *Ta'lim jarayonida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi, ilmiy-tadqiqot yo'nalishi va amaliy tajribasi ular o'qitadigan fanlar mazmuni hamda ta'lim yo'nalishining talablariga to'liq muvofiqligini, shuningdek fanlararo va yangi ta'lim yo'nalishlarini joriy etishda malakali mutaxassislarni jalb etishga qaratilgan tizimli kadrlar siyosati va ichki tartib-qoidalarning mavjudligi baholanadi*

23.1. INDIKATOR

Professor-o'qituvchilar ular tomonidan o'qitiladigan (o'qitilayotgan) fanlar (modullar) bo'yicha tegishli oliy ma'lumot, mutaxassislik (ixtisoslik) va kasbiy tayyorgarlikka ega*

Yordamchi savollar:

❖ *Professor-o'qituvchilarning ular tomonidan o'qitiladigan fanlar (modullar) bo'yicha tegishli oliy ma'lumoti, mutaxassisligi (ixtisosligi) va kasbiy tayyorgarligi qanday hujjatlar asosida tasdiqlangan?*

❖ *Fanlar (modullar)ni o'qitishga professor-o'qituvchilarni biriktirishda ularning mutaxassisligi va kasbiy tayyorgarligi qanday mezonlar asosida hisobga olingan?*

❖ *Professor-o'qituvchilarning fanlar (modullar) bo'yicha kasbiy tayyorgarligi va malakasining dolzarbligi qanday monitoring va baholash mexanizmlari orqali ta'minlanadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Pedagog kadrlar ro'yxati va malaka to'g'risidagi hujjatlar (diplom, sertifikat, ilmiy daraja va unvonni tasdiqlovchi hujjatlar), ular dars beradigan fan(lar) ro'yxati, tegishli jadval(lar) (14.a-jadval)*

23.2. INDIKATOR

Yangi yo'nalishlar yoki fanlararo (modullararo) kurslarni joriy etishda tegishli soha bo'yicha malakali mutaxassislar jalb qilingan

Yordamchi savollar:

❖ *Yangi yo'nalishlar yoki fanlararo (modullararo) kurslarni joriy etishda qaysi sohalar bo'yicha malakali mutaxassislar jalb qilingan?*

❖ *Mazkur mutaxassislarni tanlash va jalb etish jarayoni qanday mezonlar va tartiblar asosida amalga oshirilgan?*

❖ *Jalb etilgan mutaxassislarning yangi yo'nalishlar yoki fanlararo kurslar mazmuni va sifatini ta'minlashga qo'shgan hissasi qanday baholangan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Tegishli soha mutaxassislari jalb qilinishini tasdiqlovchi ma'lumotlar va/yoki kelishuv hujjatlari.*

23.3. INDIKATOR

Professor-o'qituvchilarni tanlash va ishga qabul qilish jarayonlarida fan (modul) profiliga moslik asosiy mezon sifatida belgilangan

Yordamchi savollar:

❖ *Professor-o'qituvchilarni tanlash va ishga qabul qilish jarayonida fan (modul) profiliga moslik qanday asosiy mezonlar orqali aniqlangan?*

❖ *Nomzodlarning fan (modul) profiliga mosligini baholashda qanday hujjatlar va dalillar (ta'lim, mutaxassislik, ish tajribasi, ilmiy faoliyat) inobatga olingan?*

❖ *Professor-o'qituvchilarni ishga qabul qilish jarayonida fan (modul) profiliga moslik mezoniga rioya etilishi qanday nazorat va monitoring mexanizmlari orqali ta'minlangan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Kadrlarni ishga qabul qilish to'g'risidagi ichki hujjat(lar).*

23.4. INDIKATOR

O'quv (ish) yuklamasi professor-o'qituvchilarning mutaxassisligi (ixtisosligi), ilmiy-tadqiqot yo'nalishi va kasbiy kompetensiyasiga muvofiq ravishda adolatli va asosli taqsimlangan

Yordamchi savollar:

❖ O'quv (ish) yuklamasini taqsimlashda professor-o'qituvchilarning mutaxassisligi (ixtisosligi), ilmiy-tadqiqot yo'nalishi va kasbiy kompetensiyasi qanday mezonlar asosida hisobga olingan?

❖ O'quv (ish) yuklamalarining adolatli va asosli taqsimlanganligini ta'minlash uchun qanday tartib va mexanizmlar qo'llanilgan?

❖ Yuklama taqsimotining mutaxassislik va kasbiy kompetensiyaga muvofiqligi qanday monitoring va tahlil mexanizmlari orqali baholanadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Pedagog kadrlar ro'yxati va malaka to'g'risidagi hujjatlar (diplom, sertifikat, ilmiy daraja va unvonni tasdiqlovchi hujjatlar), ular dars beradigan fan(lar) ro'yxati, tegishli jadval(lar).

23.5. INDIKATOR

Professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida tizimli malaka oshirish va qayta tayyorlash mexanizmlari yo'lga qo'yilgan

Yordamchi savollar:

❖ Professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun qanday tizimli malaka oshirish va qayta tayyorlash mexanizmlari joriy etilgan?

❖ Malaka oshirish va qayta tayyorlash jarayonlarida ishtirok etish tartibi, davriyligi va ustuvor yo'nalishlari qanday belgilangan?

❖ Malaka oshirish va qayta tayyorlash dasturlarining professor-o'qituvchilar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ta'siri qanday mezonlar asosida monitoring qilinadi va baholanadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Malaka oshirish va qayta tayyorlash mexanizmlarining yo'lga qo'yilganligi to'g'risida tahliliy ma'lumot va asoslovchi hujjat(lar).

24. MEZON: Ta'lim tashkilotiga pedagog kadrlarni belgilangan tartibda ishga qabul qilish va ishdan bo'shatish to'g'ri tashkil qilingani hamda kadrlar qo'nimsizligining oldini olish bo'yicha tegishli choralar ko'rilgani

Izoh: Ta'lim tashkilotida kadrlar bilan ishlash jarayonlari amaldagi qonunchilik va ichki me'yoriy hujjatlarga muvofiq ravishda ochiq, shaffof va adolatli asosda amalga oshirilishi, pedagog kadrlarni tanlov orqali ishga qabul qilish, ularning mehnat faoliyati barqarorligini ta'minlash, ishdan bo'shatish jarayonlarida huquqiy talablarga rioya etish hamda kadrlar qo'nimsizligini kamaytirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilishi baholanadi.

24.1. INDIKATOR

Professor-o'qituvchilarni ishga qabul qilish va mehnat shartnomasini bekor qilish jarayonlari mehnat to'g'risidagi qonunchilik va oliy ta'lim tashkilotining ichki hujjatlari asosida amalga oshirilgan hamda ushbu jarayonlarga doir hujjatlar (tanlov hujjatlari, suhbat bayonnomalari, arizalar, buyruqlar yoki boshqalar) mavjud*

Yordamchi savollar:

❖ *Professor-o'qituvchilarni ishga qabul qilish va mehnat shartnomasini bekor qilish jarayonlari qaysi mehnat to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjatlar va oliy ta'lim tashkilotining ichki hujjatlari asosida amalga oshirilgan?*

❖ *Mazkur jarayonlarda tanlov hujjatlari, suhbat bayonnomalari, arizalar va buyruqlarni rasmiylashtirish hamda saqlash qanday tartibda tashkil etilgan?*

❖ *Ishga qabul qilish va mehnat shartnomasini bekor qilish jarayonlarining qonunchilik va ichki hujjatlarga muvofiqligi qanday monitoring va nazorat mexanizmlari orqali ta'minlangan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Pedagog kadrlarni ishga qabul qilish va/yoki tanlovdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi tahliliy ma'lumot va asoslovchi hujjat.*

24.2. INDIKATOR

Professor-o'qituvchilarni ishga qabul qilish jarayonlari ochiqlik, xolislik va adolat tamoyillari hamda tanlov (imtihon, suhbat) asosida amalga oshirilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Professor-o'qituvchilarni ishga qabul qilish jarayonlarida ochiqlik, xolislik va adolat tamoyillarini ta'minlash uchun qanday mexanizmlar joriy etilgan?*

❖ *Professor-o'qituvchilarni ishga qabul qilish tanlov (imtihon, suhbat) asosida qanday tartibda tashkil etilgan va baholash mezonlari qanday belgilangan?*

❖ *Ishga qabul qilish jarayonining shaffofligi va adolatligiga rioya etilishi qanday monitoring va nazorat mexanizmlari orqali ta'minlangan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Pedagog kadrlarni ishga qabul qilish va/yoki tanlovdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi tahliliy ma'lumot va asoslovchi hujjat.*

24.3. INDIKATOR

Professor-o'qituvchilarning qo'nimsizligi va kadrlar siyosatining samaradorligi bo'yicha doimiy ravishda monitoring va tahlil olib borilgan, shu jumladan pedagog kadrlar tarkibidagi o'zgarishlar dinamikasi va mehnat shartnomasini bekor qilish sabablari o'rganilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Professor-o'qituvchilarning qo'nimsizligi va kadrlar siyosatining samaradorligini baholash bo'yicha monitoring va tahlil qanday tartibda va qanday davriylikda amalga oshirilgan?*

❖ *Pedagog kadrlar tarkibidagi o'zgarishlar dinamikasi va mehnat shartnomasini bekor qilish sabablari qanday ko'rsatkichlar va ma'lumotlar asosida o'rganilgan?*

❖ *O'tkazilgan monitoring va tahlil natijalari asosida professor-o'qituvchilar qo'nimsizligini kamaytirish va kadrlar siyosatini takomillashtirish bo'yicha qanday aniq chora-tadbirlar ko'rilgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Olib borilgan monitoring va tahlil natijalari haqida ma'lumot hamda asoslantiruvchi hujjat(lar).*

24.4. INDIKATOR

Monitoring va tahlil natijalari asosida chora-tadbirlar rejasi va yillik hisobot ishlab chiqilgan hamda boshqaruv qarorlarida inobatga olingan, shuningdek chora-tadbirlar rejasining ijrosi ta'minlangan

Yordamchi savollar:

❖ *Monitoring va tahlil natijalari asosida chora-tadbirlar rejasi va yillik hisobot qanday tartibda ishlab chiqilgan?*

❖ *Ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasi va yillik hisobot boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida qanday tarzda inobatga olingan?*

❖ *Chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalarning ijrosi qanday mexanizmlar orqali ta'minlangan va nazorat qilingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Yillik tahlil va hisobotlar, OTT kengash qarori va uning ijrosi bo'yicha ma'lumot.*

24.5. INDIKATOR

Yangi ishga qabul qilingan professor-o'qituvchilar uchun mentorlik va adaptatsiya dasturlari mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Yangi ishga qabul qilingan professor-o'qituvchilar uchun mentorlik va adaptatsiya dasturlari qanday hujjatlar va tartiblar asosida joriy etilgan?*

❖ *Mentorlik va adaptatsiya dasturlari doirasida yangi professor-o'qituvchilarga qanday pedagogik, metodik va tashkiliy qo'llab-quvvatlash choralari ko'rsatilgan?*

❖ *Mentorlik va adaptatsiya dasturlarining yangi professor-o'qituvchilarning faoliyatga moslashuvi va kasbiy rivojlanishiga ta'siri qanday mezonlar asosida monitoring va baholanadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *Mentorlik va adaptatsiya dasturlari to'g'risida ma'lumot.*

25. Pedagog kadrlarning belgilangan talablarga muvofiq kasbiy rivojlanishi va malakasini oshirish ishlari to'g'ri yo'lga qo'yilgani !

Izoh: OTT professor-o'qituvchilarining kasbiy salohiyatini uzluksiz oshirishga qaratilgan o'rta va uzoq muddatli strategiya hamda rejalar mavjudligi, ularning malaka oshirish va qayta tayyorlanish jarayonlari tizimli tashkil etilganligi, bu jarayon uchun zarur moliyaviy va tashkiliy shart-sharoitlar yaratilganligi, shuningdek olingan bilim va ko'nikmalarning o'quv jarayoni hamda ta'lim sifatiga amalda joriy etilganligi baholanadi.

25.1. INDIKATOR

Professor-o'qituvchilar va boshqaruv xodimlarining kasbiy rivojlanishi, shu jumladan qayta tayyorlanishi va malakasini oshirishi bo'yicha o'rta va uzoq muddatli strategiyalar va reja-jadvallar ishlab chiqilgan va tasdiqlangan

Yordamchi savollar:

- ❖ *Professor-o'qituvchilar va boshqaruv xodimlarining kasbiy rivojlanishi, qayta tayyorlanishi va malakasini oshirish bo'yicha o'rta va uzoq muddatli strategiyalar qanday tartibda ishlab chiqilgan va qaysi hujjatlar bilan tasdiqlangan?*
- ❖ *Mazkur strategiyalar va reja-jadvallarda kasbiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari, bosqichlari va maqsadli guruhlar qanday belgilangan?*
- ❖ *Tasdiqlangan strategiyalar va reja-jadvallarning ijrosi hamda ularning xodimlar kasbiy salohiyatini oshirishga ta'siri qanday mexanizmlar orqali monitoring va baholanadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *Qayta tayyorlash va malaka oshirish bo'yicha strategiya va reja-jadvallari*

25.2. INDIKATOR

Professor-o'qituvchilar va boshqaruv xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha tarkibiy bo'linma tashkil etilgan yoki mas'ul xodim(lar) ajratilgan

Yordamchi savollar:

- ❖ *Professor-o'qituvchilar va boshqaruv xodimlarini qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish faoliyatini muvofiqlashtirish uchun qaysi tarkibiy bo'linma tashkil etilgan yoki qaysi mas'ul xodimlar belgilangan?*
- ❖ *Mazkur tarkibiy bo'linma yoki mas'ul xodimlarning vazifalari, vakolatlari va javobgarligi qanday hujjatlar bilan aniq belgilangan?*

❖ *Qayta tayyorlash va malaka oshirish faoliyatini muvofiqlashtirish samaradorligi qanday monitoring va baholash mexanizmlari orqali aniqlanadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Mas'ul tuzilma yoki bo'lim faoliyatini tashkil etish bo'yicha buyruq.*

25.3. INDIKATOR

Qayta tayyorlash va malaka oshirish bo'yicha mahalliy va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Qayta tayyorlash va malaka oshirish bo'yicha qaysi mahalliy va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan?*

❖ *Mazkur hamkorlik doirasida qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlarini amalga oshirish mexanizmlari va shartlari qanday belgilangan?*

❖ *Mahalliy va xorijiy hamkorlar bilan amalga oshirilayotgan qayta tayyorlash va malaka oshirish faoliyatining samaradorligi qanday mezonlar asosida monitoring va baholanadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Hamkorlik to'g'risidagi ma'lumot va memorandum (shartnoma)lar.*

25.4. INDIKATOR

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari professor-o'qituvchilar mutaxassisligi (ixtisosligi) va fan (modul) yo'nalishlariga mos ravishda tashkil etilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari professor-o'qituvchilarning mutaxassisligi (ixtisosligi) va ular o'qitadigan fanlar (modullar) yo'nalishlariga qanday mezonlar asosida moslashtirilgan?*

❖ *Professor-o'qituvchilarni mos kurslarga yo'naltirish va ishtirokini ta'minlash jarayoni qanday tartibda tashkil etilgan?*

❖ *Mazkur kurslarning professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ta'siri qanday monitoring va baholash mexanizmlari orqali aniqlanadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurs rejalari va ichki hujjatlar*

25.5. INDIKATOR

Professor-o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini baholash va monitoring qilish tizimi mavjud hamda qayta tayyorlash va malaka oshirish natijalari kadrlar siyosatida inobatga olingan

Yordamchi savollar:

❖ *Tijratlashtirish bo'yicha tarkibiy bo'linma yoki mas'ul xodimlar faoliyatining samaradorligi qanday monitoring va baholash mexanizmlari orqali aniqlanadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Mas'ul tuzilma yoki xodim faoliyatini tashkil etish bo'yicha tegishli hujjatlar(buyruq, nizom va h.k.).*

35.3. INDIKATOR

Ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha tuzilgan tijorat kelishuvlari (shartnomalari) mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha qaysi tijorat kelishuvlari (shartnomalari) tuzilgan va ular qaysi ilmiy ishlanmalar yoki loyihalarni qamrab oladi?*

❖ *Mazkur tijorat kelishuvlarini tuzish jarayonida tomonlarning huquq va majburiyatlari, moliyaviy shartlar hamda intellektual mulk masalalari qanday tartibda belgilangan?*

❖ *Tuzilgan tijorat shartnomalarining ijrosi va ularning ilmiy-tadqiqot faoliyati hamda tashkilot rivojiga qo'shgan hissasi qanday monitoring va tahlil qilingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Tuzilgan tijorat kelishuvlari (shartnomalari) haqida ma'lumot va asoslovchi hujjatlar.*

35.4. INDIKATOR

Tijratlashtirishdan olingan moliyaviy tushumlar haqida hisobotlar yuritilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ilmiy ishlanmalarni tijratlashtirishdan olingan moliyaviy tushumlar qanday manbalar kesimida (royalti, litsenziya to'lovlari, shartnoma summolari va boshqalar) hisobga olingan?*

❖ *Tijratlashtirishdan olingan moliyaviy tushumlar bo'yicha hisobotlarni tayyorlash va yuritish qanday tartibda hamda qanday davriylikda amalga oshirilgan?*

❖ *Mazkur moliyaviy hisobotlar natijalari asosida ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha qanday boshqaruv qarorlari qabul qilingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Tijoratlalashtirishdan olingan moliyaviy tushumlar haqida hisobotlar va asoslovchi hujjatlar.*

35.5. INDIKATOR

Tijoratlalashtirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari ro'yxati va ularning iqtisodiy samaradorligi bo'yicha tahlillar yuritilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Tijoratlalashtirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari ro'yxati qanday tartibda shakllantirilgan va unda qaysi ma'lumotlar (loyiha nomi, soha, hamkor, shartnoma summasi va boshqalar) aks ettirilgan?*

❖ *Mazkur ilmiy-tadqiqot ishlarining iqtisodiy samaradorligini baholashda qaysi mezonlar va ko'rsatkichlardan (daromad, xarajat, rentabellik, tejalgan mablag'lar va boshqalar) foydalanilgan?*

❖ *O'tkazilgan iqtisodiy samaradorlik tahlillari natijalari ilmiy-tadqiqot va tijoratlalashtirish faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qanday boshqaruv qarorlarida inobatga olingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Yuritilgan tahlillar va asoslovchi hujjatlar.*

VII. Talabalarni qo'llab-quvvatlash yo'nalishi

Izoh: Ta'lim xizmatlari sifatiga oid talabalar fikr-mulohazalarini muntazam o'rganish va tahlil qilish, ta'lim va karyera bo'yicha maslahat hamda qo'llab-quvvatlash xizmatlarini tashkil etish, ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan va iqtidorli talabalar uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, shuningdek yoshlar bilan ishlash samaradorligini oshirish va huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilganligini baholaydigan faoliyat baholanadi.

36. MEZON: Ta'lim xizmatlari yuzasidan talabalar fikr-mulohazalarining monitoring qilinishi va uning natijalari asosida takomillashtirish choralarining ko'rilgani !

Izoh: Ta'lim tashkilotida talabalarning ta'lim sifati bo'yicha fikr-mulohazalarini tizimli ravishda o'rganish, tahlil etish va ular asosida ta'lim jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan samarali monitoring tizimi yo'lga qo'yilganligi baholanadi.

36.1. INDIKATOR

Talabalarning fikr-mulohazalarini o'rganish bo'yicha ichki tartib (yo'riqnoma) hamda talabalarning ta'lim sifati va yaratilgan sharoitlardan qoniqishi darajasini baholash bo'yicha so'rovnoma (anketa) shakli va metodologiyasi ishlab chiqilgan va tasdiqlangan

Yordamchi savollar:

❖ *Talabalarning fikr-mulohazalarini o'rganish bo'yicha ichki tartib (yo'riqnoma) hamda so'rovnoma (anketa) shakli va metodologiyasi qanday tartibda ishlab chiqilgan va qaysi hujjatlar bilan tasdiqlangan?*

❖ *So'rovnoma (anketa) orqali talabalarning ta'lim sifati va yaratilgan sharoitlardan qoniqish darajasini baholashda qaysi asosiy yo'nalishlar va ko'rsatkichlar qamrab olingan?*

Ishlab chiqilgan yo'riqnoma va so'rovnoma metodologiyasining amalda qo'llanilishi hamda natijalarining ishonchliligi qanday monitoring va tahlil mexanizmlari orqali ta'minlanadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Talabalar fikr-mulohazalarini o'rganish va baholash bo'yicha ichki hujjat(lar).*

36.2. INDIKATOR

Talabalarning fikr-mulohazalarini o'rganish bo'yicha so'rovnomalar (intervyular, muhokamalar va talabalar fikrini o'rganishga qaratilgan boshqa tadbirlar) muntazam (kamida har semestrda bir marotaba) o'tkazilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Talabalarning fikr-mulohazalarini o'rganish bo'yicha so'rovnomalar, intervyular, muhokamalar va boshqa tadbirlar qanday davriylikda (kamida har semestrda) va qaysi shakllarda o'tkazilgan?*

❖ *Mazkur so'rovlar va tadbirlarni o'tkazishda qaysi toifadagi talabalar qamrab olingan va ularning ishtiroki qanday ta'minlangan?*

❖ *O'tkazilgan so'rovnomalar, intervyular va muhokamalar natijalari qanday tizimli ravishda tahlil qilingan va hujjatlashtirilgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *O'tkazilgan so'rovnoma(lar) haqida ma'lumot va asoslovchi hujjat(lar).*

36.3. INDIKATOR

Talabalarning fikr-mulohazalarini yig'ish bo'yicha monitoring tizimi (onlayn anketa platformasi) mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Talabalarning fikr-mulohazalarini yig'ish uchun qaysi monitoring tizimi yoki onlayn anketa platformasi joriy etilgan?*

❖ *Mazkur onlayn anketa platformasi orqali fikr-mulohazalarni yig'ish, saqlash va tahlil qilish jarayonlari qanday tartib va mexanizmlar asosida amalga oshiriladi?*

❖ *Onlayn anketa platformasi orqali yig'ilgan ma'lumotlardan ta'lim sifati va yaratilgan sharoitlarni takomillashtirish bo'yicha qanday boshqaruv qarorlarida foydalanilgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *Monitoring tizimi haqida ma'lumot va asoslovchi hujjat.*

36.4. INDIKATOR

Talabalarning fikr-mulohazalarini o'rganish natijalari oliy ta'lim tashkilotining tegishli tarkibiy bo'linmalarining (fakultet, kafedra, bo'lim va boshqalar) yig'ilishlarida muhokama qilingan hamda o'quv jarayonini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan

Yordamchi savollar:

- ❖ *Talabalarning fikr-mulohazalarini o'rganish natijalari qaysi tarkibiy bo'linmalar (fakultet, kafedra, bo'lim va boshqalar) yig'ilishlarida va qanday tartibda muhokama qilingan?*
- ❖ *Mazkur muhokamalar natijasida o'quv jarayonini takomillashtirish bo'yicha qanday aniq muammolar aniqlangan va ular asosida qanday chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan?*
- ❖ *Ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasining ijrosi va uning ta'lim sifatiga ta'siri qanday monitoring va tahlil mexanizmlari orqali baholanadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *Kengash, kafedra yoki fakultet bayonnomasi, chora-tadbirlar rejasi va ijrosi.*

36.5. INDIKATOR

Talabalarning fikr-mulohazalarini o'rganish natijalari o'quv jarayonini takomillashtirishda inobatga olingan hamda chora-tadbirlar rejasining ijrosi ta'minlangan

Yordamchi savollar:

- ❖ *Talabalarning fikr-mulohazalarini o'rganish natijalari o'quv jarayonini takomillashtirishda qanday aniq qarorlar va o'zgarishlar orqali inobatga olingan?*
- ❖ *Talabalar fikr-mulohazalari asosida ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalarning ijrosi qanday mexanizmlar orqali ta'minlangan?*
- Chora-tadbirlar rejasining ijrosi va amalga oshirilgan o'zgarishlarning ta'lim sifati hamda talabalar qoniqishiga ta'siri qanday monitoring va tahlil qilingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *Chora-tadbirlar rejasining ijrosi bo'yicha ma'lumot va asoslovchi hujjat(lar).*

36.6. INDIKATOR

Talabalarning fikr-mulohazalarini o'rganish natijalari oliy ta'lim tashkilotining veb-sayti va (yoki) ichki axborot tizimida e'lon qilingan

Yordamchi savollar:

❖ *Talabalarining fikr-mulohazalarini o'rganish natijalari oliy ta'lim tashkilotining veb-sayti va (yoki) qaysi ichki axborot tizimlarida e'lon qilingan?*

❖ *E'lon qilingan ma'lumotlarda so'rovnoma natijalari qanday shaklda (umumlashtirilgan ko'rsatkichlar, diagrammalar, xulosalar) taqdim etilgan?*

❖ *So'rovnoma natijalarini ochiq e'lon qilish jamoatchilikni xabardor qilish va ta'lim jarayonini takomillashtirishga qanday ta'sir ko'rsatgani qanday tahlil qilingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Veb-sayt yoki ichki axborot tizimidagi e'lonlar.*

37. MEZON: Talabalarga yetarli darajada ta'lim olish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha maslahat berish hamda karyera xizmatlarining tashkil etilgani

Izoh: *Ta'lim tashkilotida talabalarni ijtimoiy, akademik va psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash hamda ularning bandligini ta'minlashga qaratilgan karyera xizmatlari samarali faoliyat yuritishi, ushbu xizmatlar tizimli monitoring qilinishi va doimiy takomillashtirilishi ta'minlanganlik darajasi baholanadi.*

37.1. INDIKATOR

Talabalarni ijtimoiy, akademik va psixologik qo'llab-quvvatlash bo'yicha maslahat berish tizimi yo'lga qo'yilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Talabalarni ijtimoiy, akademik va psixologik qo'llab-quvvatlash bo'yicha maslahat berish tizimi qanday tarkibiy tuzilma va mexanizmlar orqali yo'lga qo'yilgan?*

❖ *Mazkur maslahat berish tizimi doirasida talabalar uchun qaysi turdagi xizmatlar (akademik maslahat, psixologik maslahat, ijtimoiy masalalar bo'yicha ko'mak) taqdim etiladi?*

❖ *Maslahat berish tizimidan foydalanish samaradorligi va uning talabalar muvaffaqiyati hamda farovonligiga ta'siri qanday monitoring va tahlil qilinadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Qo'llab-quvvatlash xizmatlari bo'yicha ma'lumot va ichki hujjat(lar).*

37.2. INDIKATOR

Talabalarni ijtimoiy, akademik va psixologik qo'llab-quvvatlash bo'yicha tarkibiy bo'linma tashkil etilgan yoki mas'ul xodimlar ajratilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Talabalarni ijtimoiy, akademik va psixologik qo'llab-quvvatlash bo'yicha qaysi tarkibiy bo'linma tashkil etilgan yoki qaysi mas'ul xodimlar ajratilgan?*

❖ *Mazkur tarkibiy bo'linma yoki mas'ul xodimlarning vazifalari, vakolatlari va javobgarligi qanday hujjatlar bilan belgilangan?*

❖ *Talabalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha tarkibiy bo'linma yoki mas'ul xodimlar faoliyatining samaradorligi qanday monitoring va baholash mexanizmlari orqali aniqlanadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Tarkibiy bo'linmani tashkil etish yoki mas'ul xodimlarni belgilash to'g'risidagi hujjatlar (nizom, buyruq va h.k.).*

37.3. INDIKATOR

Karyera markazi (bitiruvchilar bilan ishlash bo'limi) faoliyati samarali tashkil etilgan hamda talabalar bandligini ta'minlash bo'yicha faoliyat yo'lga qo'yilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Karyera markazi (bitiruvchilar bilan ishlash bo'limi) faoliyati qanday tashkiliy tuzilma va ish mexanizmlari asosida samarali tashkil etilgan?*

❖ *Talabalar bandligini ta'minlash maqsadida karyera markazi tomonidan qanday aniq tadbirlar va xizmatlar (bo'sh ish o'rinlari yarmarkalari, amaliyotlar, ish beruvchilar bilan uchrashuvlar) yo'lga qo'yilgan?*

❖ *Karyera markazi faoliyatining talabalar bandligiga ta'siri va samaradorligi qanday monitoring va tahlil mexanizmlari orqali baholanadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Karyera markazi bo'yicha ma'lumot va ichki hujjat(lar).*

37.4. INDIKATOR

Talabalarning bandligini ta'minlash maqsadida karyera yarmarkalari, ish beruvchilar bilan uchrashuvlar va mahorat darslari muntazam o'tkazilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Talabalarning bandligini ta'minlash maqsadida o'tkazilgan tadbirlar qanday davriylikda tashkil etilgan?*

❖ *Mazkur tadbirlarni tashkil etishda qaysi ish beruvchilar, soha mutaxassislari va tashkilotlar jalb qilingan hamda ularning ishtiroki qanday yo'lga qo'yilgan?*

❖ *O'tkazilgan tadbirlarning talabalar bandligiga va kasbiy yo'naltirilishiga ta'siri qanday monitoring va tahlil qilingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *O'tkazilgan tadbirlar haqida ma'lumot va asoslovchi hujjat(lar).*

37.5. INDIKATOR

Psixologik va karyera xizmatlari samaradorligini oshirish uchun takliflar ishlab chiqilgan hamda amaliy choralar ko'rilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Psixologik va karyera xizmatlari samaradorligini oshirish uchun qanday takliflar ishlab chiqilgan va ular qaysi manbalar (so'rovlar, monitoring natijalari, tahlillar) asosida shakllantirilgan?*

❖ *Mazkur takliflar asosida psixologik va karyera xizmatlarini takomillashtirish bo'yicha qanday aniq amaliy choralar ko'rilgan?*

❖ *Ko'rilgan amaliy choralar samaradorligi va ularning talabalar qoniqishi hamda bandligiga ta'siri qanday monitoring va tahlil mexanizmlari orqali baholangan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ko'rilgan amaliy choralar haqida ma'lumot va asoslovchi hujjat(lar).*

38. MEZON: Ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan va iqtidorli talabalarga shart-sharoitlar yaratish hamda ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining joriy etilgani

Izoh: *Ta'lim tashkilotida ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan va iqtidorli talabalarni qo'llab-quvvatlash hamda ular uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo'yicha samarali tizim va rag'batlantirish mexanizmlari yo'lga qo'yilganligi baholanadi*

38.1. INDIKATOR

Ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan va iqtidorli talabalarni aniqlash va qo'llab-quvvatlash (rag'batlantirish) mexanizmlari ishlab chiqilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan va iqtidorli talabalarni aniqlash uchun qanday mezonlar va tartiblar ishlab chiqilgan hamda qaysi hujjatlar bilan tasdiqlangan?*

❖ *Mazkur toifadagi talabalarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish uchun qanday mexanizmlar (stipendiyalar, grantlar, moddiy yordam, individual yondashuv, qo'shimcha imkoniyatlar) joriy etilgan?*

Aniqlash va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi hamda ularning talabalar akademik muvaffaqiyati va ijtimoiy moslashuviga ta'siri qanday monitoring va tahlil qilinadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Qo'llab-quvvatlash (rag'batlantirish) mexanizmlari haqida ma'lumot va asoslovchi hujjat(lar).*

38.2. INDIKATOR

Ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan va iqtidorli talabalarning ro'yxatlari shakllantirilgan hamda ular uchun individual ta'lim trayektoriyalari ishlab chiqilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan va iqtidorli talabalarining ro'yxatlari qanday mezonlar va hujjatlar asosida shakllantirilgan?*

❖ *Mazkur toifadagi talabalar uchun individual ta'lim trayektoriyalarini ishlab chiqishda qaysi akademik, psixologik va ijtimoiy omillar inobatga olingan?*

❖ *Individual ta'lim trayektoriyalarining ijrosi va ularning talabalar akademik rivojlanishi hamda moslashuviga ta'siri qanday monitoring va tahlil qilinadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Shakllantirilgan ro'yxat hamda ishlab chiqilgan individual ta'lim trayektoriyalari to'g'risidagi ma'lumot va asoslovchi hujjat(lar).*

38.3. INDIKATOR

Talabaning o'z iqtidorini ko'rsatishi uchun shart-sharoitlar (stipendiyalar, grantlar, tanlovlar va boshqalar) yaratilgan hamda iqtidorli talabalarni saralash, qo'llab-quvvatlash va e'tirof etishda ochiqlik, shaffoflik va adolat tamoyillariga amal qilingan

Yordamchi savollar:

❖ *Talabalarining o'z iqtidorini namoyon etishi uchun qanday shart-sharoitlar (stipendiyalar, grantlar, tanlovlar, loyihalar va boshqalar) yaratilgan va ular qanday tartibda tashkil etilgan?*

❖ *Iqtidorli talabalarni saralash va qo'llab-quvvatlash jarayonida ochiqlik, shaffoflik va adolat tamoyillarini ta'minlash uchun qanday mezonlar va mexanizmlar joriy etilgan?*

❖ *Iqtidorli talabalarni rag'batlantirish va e'tirof etish choralari ularning akademik, ilmiy va ijodiy rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatgani qanday monitoring va tahlil qilingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Iqtidorli talabalarni saralash, qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish to'g'risidagi ichki hujjat (tartib, nizom).*

38.4. INDIKATOR

Ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan va iqtidorli talabalarni aniqlash va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi monitoring qilingan, shuningdek monitoring natijalari va talabalarining ehtiyojlari (takliflari) asosida ushbu mexanizmlar takomillashtirilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan va iqtidorli talabalarni aniqlash hamda qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi qanday tartibda va qanday davriylikda monitoring qilingan?*

❖ *Monitoring jarayonida qaysi ko'rsatkichlar va ma'lumotlar (qamrov, akademik natijalar, qoniqish darajasi, murojaatlar) asosida baholash amalga oshirilgan?*

❖ *Monitoring natijalari va talabalarining ehtiyojlari hamda takliflari asosida ushbu mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha qanday aniq o'zgarishlar va chora-tadbirlar joriy etilgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Qo'llab-quvvatlash mexanizmlari samaradorligi yuzasidan o'tkazilgan monitoring haqida ma'lumotlar hamda takomillashtirilganligini asoslovchi hujjatlar.*

38.5. INDIKATOR

Ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan va iqtidorli talabalar oliy ta'lim tashkilotining talabalar turar joy(lar)iga joylashtirilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan va iqtidorli talabalarni talabalar turar joylariga joylashtirish qanday mezonlar va tartiblar asosida amalga oshirilgan?*

❖ *Mazkur toifadagi talabalar uchun talabalar turar joylarida qanday qulayliklar va moslashtirilgan sharoitlar (imkoniyati cheklanganlar uchun infratuzilma, imtiyozlar) yaratilgan?*

❖ *Talabalar turar joylariga joylashtirish jarayonining adolatli va shaffof amalga oshirilishi hamda uning talabalar farovonligiga ta'siri qanday monitoring va tahlil qilingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Talabalar turar joyiga joylashtirish to'g'risidagi ichki hujjatlar (ro'yxatlari bilan).*

38.6. INDIKATOR

Talabalar turar joyida tarbiyaviy, madaniy va psixologik qo'llab-quvvatlash tadbirlari hamda talabalarining bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha faoliyat yo'lga qo'yilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Talabalar turar joyida tarbiyaviy, madaniy va psixologik qo'llab-quvvatlash bo'yicha qaysi tadbirlar va faoliyat turlari tashkil etilgan?*

❖ *Talabalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun qanday mexanizmlar (to'garak, klub, trening, madaniy tadbir) yo'lga qo'yilgan va kimlar mas'ul etib belgilangan?*

❖ *Mazkur tadbirlar va faoliyatlarning talabalarning ijtimoiy moslashuvi, psixologik holati va umumiy qoniqish darajasiga ta'siri qanday monitoring va tahlil qilingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Amalga oshirilgan tadbirlar bo'yicha ma'lumotlar va asoslovchi hujjatlar.*

39. MEZON: Yoshlar bilan ishlash samaradorligi, huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilgani

Izoh: *Ta'lim tashkilotida talaba yoshlar bilan ishlash, huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar tizimli yo'lga qo'yilgan bo'lib, huquqiy ongni oshirish, intizomni mustahkamlash va xavfsiz ta'lim muhitini ta'minlashga qaratilgan samarali mexanizmlari baholanadi*

39.1. INDIKATOR

Yoshlar siyosati va tarbiya ishlarini muvofiqlashtirish bo'yicha ichki tartib mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Yoshlar siyosati va tarbiya ishlarini muvofiqlashtirish bo'yicha ichki tartib (yo'riqnoma yoki nizom) qanday normativ-huquqiy asoslarda ishlab chiqilgan va qaysi hujjatlar bilan tasdiqlangan?*

❖ *Mazkur ichki tartibda yoshlar siyosati va tarbiya ishlarini rejalashtirish, amalga oshirish va muvofiqlashtirish mexanizmlari qanday belgilangan?*

❖ *Ichki tartibning amalda qo'llanilishi va yoshlar siyosati hamda tarbiya ishlarining samaradorligi qanday monitoring va tahlil mexanizmlari orqali baholanadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ichki hujjat(lar).*

39.2. INDIKATOR

Yoshlar bilan ishlash bo'yicha tarkibiy bo'linma tashkil etilgan va (yoki) mas'ul xodimlar (kurator, tyutor, psixolog, huquqshunos yoki boshqalar) faoliyati yo'lga qo'yilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Yoshlar bilan ishlash bo'yicha qaysi tarkibiy bo'linma tashkil etilgan va (yoki) qaysi mas'ul xodimlar (kurator, tyutor, psixolog, huquqshunos va boshqalar) faoliyati yo'lga qo'yilgan?*

❖ *Mazkur tarkibiy bo'linma va mas'ul xodimlarning vazifalari, vakolatlari hamda o'zaro hamkorligi qanday hujjatlar bilan belgilangan?*

❖ *Yoshlar bilan ishlash bo'yicha olib borilayotgan faoliyatning samaradorligi va talabalar rivojiga ta'siri qanday monitoring va tahlil mexanizmlari orqali baholanadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Tarkibiy bo'linma va (yoki) mas'ul xodimlar to'g'risidagi ichki hujjat(lar).*

39.3. INDIKATOR

Talabalar uchun huquqiy ong va madaniyatni oshirish bo'yicha tadbirlar o'tkazilib borilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Talabalar uchun huquqiy ong va madaniyatni oshirish maqsadida qaysi tadbirlar (seminarlar, davra suhbatlari, treninglar, uchrashuvlar) o'tkazilgan?*

❖ *Mazkur tadbirlarni tashkil etishda qaysi mas'ul bo'linmalar va mutaxassislar (huquqshunoslar, ichki va tashqi ekspertlar) jalb qilingan?*

❖ *O'tkazilgan huquqiy-ma'rifiy tadbirlarning talabalar huquqiy ongiga va xulq-atvoriga ta'siri qanday monitoring va tahlil qilingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *O'tkazilgan tadbirlar haqida ma'lumot va asoslovchi hujjatlar.*

39.4. INDIKATOR

Talabalar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, sport musobaqalari va madaniy-ma'rifiy tadbirlar orqali ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish ishlari yo'lga qo'yilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Talabalar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish maqsadida qaysi sport musobaqalari va madaniy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etilgan?*

❖ *Mazkur tadbirlarni tashkil etishda talabalar ishtirokini kengaytirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish qanday mexanizmlar orqali ta'minlangan?*

❖ *Sport va madaniy-ma'rifiy tadbirlarning talabalarning jismoniy faolligi, ijtimoiy faolligi va umumiy farovonligiga ta'siri qanday monitoring va tahlil qilingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Tashkil etilgan ishlar to'g'risida ma'lumot va asoslovchi hujjat(lar).*

39.5. INDIKATOR

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa hamkor tashkilotlar bilan birga talabalar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini olish bo'yicha profilaktik tadbirlar amalga oshirilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Talabalar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini olish maqsadida huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa hamkor tashkilotlar bilan qaysi profilaktik tadbirlar amalga oshirilgan?*

❖ *Mazkur profilaktik tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirishda hamkor tashkilotlarning roli va mas'uliyati qanday belgilangan?*

❖ *O'tkazilgan profilaktik tadbirlarning talabalar orasida huquqbuzarliklar darajasiga va huquqiy xabardorlikka ta'siri qanday monitoring va tahlil qilingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Amalga oshirilgan profilaktik tadbirlar bo'yicha ma'lumot va asoslovchi hujjat(lar).*

39.6. INDIKATOR

Huquqbuzarlikka moyil yoki ijtimoiy xavfli toifadagi talabalar bilan individual profilaktik ishlar olib borilgan hamda ularning natijadorligi tahlil qilingan va hisobotlar yuritilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Huquqbuzarlikka moyil yoki ijtimoiy xavfli toifadagi talabalarni aniqlash va ular bilan individual profilaktik ishlar olib borish qanday mezonlar va tartiblar asosida tashkil etilgan?*

❖ *Mazkur talabalar bilan olib borilgan individual profilaktik ishlar doirasida qanday choralar (psixologik maslahat, huquqiy tushuntirish, kurator/tyutor nazorati, ota-onalar bilan ishlash) amalga oshirilgan?*

❖ *Individual profilaktik ishlarning natijadorligi qanday ko'rsatkichlar asosida tahlil qilingan hamda ushbu tahlillar bo'yicha qanday hisobotlar tayyorlangan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Tahliliy hisobotlar.*

39.7. INDIKATOR

Yoshlar bilan ishlash, shu jumladan huquqbuzarlikka moyil yoki ijtimoiy xavfli toifadagi talabalar bilan ishlash samaradorligi bo'yicha natijalarga erishgan tyutorlar rag'batlantirib borilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Yoshlar bilan ishlash, shu jumladan huquqbuzarlikka moyil yoki ijtimoiy xavfli toifadagi talabalar bilan ishlash samaradorligini baholash uchun qanday mezonlar va ko'rsatkichlar belgilangan?*

❖ *Mazkur mezonlar asosida natijalarga erishgan tyutorlarni aniqlash va baholash jarayoni qanday tartibda amalga oshirilgan?*

❖ Samarali faoliyat yuritgan tyutorlarni moddiy va (yoki) ma'naviy rag'batlantirish qanday mexanizmlar orqali amalga oshirilgan va uning ta'siri qanday tahlil qilingan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Tyutorlarni rag'batlantirilganligi bo'yicha ma'lumot va asoslovchi hujjat.

40. MEZON: Talabalar huquqlarini himoya qilish va shikoyatlarini ko'rib chiqish tartibining mavjudligi

Izoh: Ta'lim tashkilotida talabalar huquqlarini himoya qilish, shikoyat va murojaatlarni qabul qilish hamda ko'rib chiqish bo'yicha aniq belgilangan tartib va samarali monitoring tizimi yo'lga qo'yilganligi va uning natijalari asosida tizimli takomillashtirish choralari ko'rilganligi baholanadi

40.1. INDIKATOR

Talabalarning huquqlarini himoya qilish hamda ularning ariza va shikoyatlarini ko'rib chiqish bo'yicha ichki tartib mavjud

Yordamchi savollar:

❖ Talabalarining huquqlarini himoya qilish hamda ularning ariza va shikoyatlarini ko'rib chiqish bo'yicha ichki tartib (yo'riqnoma, nizom) qanday tartibda ishlab chiqilgan va qaysi hujjatlar bilan tasdiqlangan?

❖ Mazkur ichki tartibda talabalarining ariza va shikoyatlarini qabul qilish, ro'yxatga olish, ko'rib chiqish va javob berish jarayonlari qanday bosqichlarda belgilangan?

❖ Ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish jarayonlarining xolisligi, shaffofligi va samaradorligi qanday monitoring va tahlil mexanizmlari orqali ta'minlanadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Talabalar huquqlarini himoya qilishni tartibga soluvchi ichki hujjat(lar).

40.2. INDIKATOR

Ariza va shikoyatlar talabalar uchun qulay sharoitlarda va ularning ehtiyojlariga mos shakllar orqali (qutilar, elektron vositalar, psixolog, mas'ul shaxs, ishonch telefoni yoki boshqalar) qabul qilib borilgan

Yordamchi savollar:

❖ Talabalarining ariza va shikoyatlarini qabul qilish uchun qaysi qulay va mos shakllar (qutilar, elektron platformalar, mas'ul shaxslar, psixolog, ishonch telefoni va boshqalar) joriy etilgan?

❖ Mazkur shakllar orqali murojaatlarni qabul qilishda talabalarining maxfiyligi, erkinligi va teng imkoniyatlari qanday ta'minlangan?

❖ *Turli kanallar orqali kelib tushgan ariza va shikoyatlarni ro'yxatga olish, ko'rib chiqish va javob berish jarayonlari qanday monitoring va nazorat mexanizmlari asosida amalga oshiriladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ariza va shikoyatlarni belgilangan tartibda qabul qilinganligi haqida ma'lumotlar va asoslantiruvchi hujjat(lar).*

40.3. INDIKATOR

Ariza va shikoyatlar belgilangan muddatlar va tartibga qat'iy rioya qilgan holda ochiqlik, hisobdorlik va manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik tamoyillariga asosan ko'rib chiqilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqishda belgilangan muddatlar va tartiblarga rioya etilishi qanday mexanizmlar orqali ta'minlangan?*

❖ *Ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish jarayonida ochiqlik va hisobdorlik tamoyillarini ta'minlash uchun qanday choralar (ro'yxatga olish, javoblarni rasmiylashtirish, hisobot yuritish) qo'llanilgan?*

❖ *Manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik uchun ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqishda qanday nazorat va ajratish (mustaqil mas'ullar, komissiya, qayta ko'rib chiqish mexanizmi) mexanizmlari joriy etilgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqilganligi haqidagi ma'lumotlar va asoslovchi hujjat(lar).*

40.4. INDIKATOR

Ariza va shikoyatlar ro'yxati yuritilgan, ularni ko'rib chiqish muddatlari belgilangan hamda ko'rib chiqish jarayonlari hujjatlashtirilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Talabalar tomonidan kelib tushgan ariza va shikoyatlar ro'yxati qanday tartibda yuritilgan va unda qaysi majburiy ma'lumotlar (sana, mazmuni, mas'ul shaxs, holati) aks ettirilgan?*

❖ *Ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish uchun belgilangan muddatlar qanday normativ hujjatlar asosida belgilangan va ularga rioya etilishi qanday nazorat qilingan?*

❖ *Ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish jarayonlari qanday hujjatlar (bayonnomalar, xulosalar, javob xatlari) orqali hujjatlashtirilgan va saqlangan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha ma'lumot va asoslovchi hujjat(lar).*

40.5. INDIKATOR

Ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish natijalari tahlil qilingan hamda talabalarning huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha tizimli choralar ko'rilgan

Yordamchi savollar:

❖ Ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish natijalari qanday davriylikda va qaysi ko'rsatkichlar asosida tahlil qilingan?

❖ Tahlil jarayonida talabalar huquqlarini himoya qilish tizimidagi qanday asosiy muammo va kamchiliklar aniqlangan?

❖ Aniqlangan muammolar asosida talabalar huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish uchun qanday tizimli chora-tadbirlar joriy etilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Amalga oshirilgan tahlillar hamda qabul qilingan qarorlar haqida ma'lumotlar va asoslovchi hujjatlar.

VIII. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

Izoh: Ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur binolar, laboratoriyalar, amaliy mashg'ulot xonalari, kutubxona va axborot-kommunikatsiya infratuzilmasi ta'lim dasturlari talablariga muvofiq jihozlanganligi va doimiy yangilanib borilishi hamda moddiy-texnik baza talabalar ehtiyojlari hamda mehnat bozori talablariga mos bo'lishi va ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini baholaydigan faoliyat baholanadi

41. MEZON: Ta'lim dasturi/shakllari xususiyatidan kelib chiqib o'quv jarayonini tashkil qilish uchun talabalar kontingentiga mos ravishda zarur bino va inshootlar, zamonaviy moddiy-texnik baza, xomashyo materiallari va dasturiy ta'minot bilan ta'minlanganligi !

Izoh: O'quv jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur auditoriyalar, laboratoriyalar, amaliy mashg'ulot xonalari, axborot resurs markazi va boshqa infratuzilmalarning mavjudligi va jihozlanganligi, moddiy-texnik baza, o'quv-ilmiy asbob-uskunalar va simulyatorlarning holati, amaliy faoliyat uchun zarur xomashyo va materiallarning yetarliligi hamda talaba va professor-o'qituvchilarning elektron platformalar va dasturiy ta'minotga kirish imkoniyati baholanadi

41.1. INDIKATOR

Oliy ta'lim tashkilotining umumiy maydoni talabalarning kontingenti hisobga olingan holda bino va inshootlar, auditoriyalar, maxsus xonalar, laboratoriyalar, amaliy mashg'ulot xonalari, amaliyot bazalari, axborot resurs markazi va boshqa infratuzilmalar bilan ta'minlangan

Yordamchi savollar:

❖ *Oliy ta'lim tashkilotining umumiy maydoni talabalarning kontingenti hisobga olingan holda qanday hisob-kitoblar va me'yorlar asosida rejalashtirilgan va taqsimlangan?*

❖ *Bino va inshootlar, auditoriyalar, maxsus xonalar, laboratoriyalar, amaliy mashg'ulot xonalari, amaliyot bazalari hamda axborot-resurs markazining mavjud quvvati ta'lim dasturlarini to'liq amalga oshirish imkonini qanday ta'minlaydi?*

❖ *Mavjud infratuzilmaning yetarliligi va samarali foydalanilishi qanday monitoring va tahlil mexanizmlari orqali baholanadi hamda aniqlangan ehtiyojlar asosida qanday takomillashtirish choralari ko'rilgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasi to'g'risidagi tahliliy ma'lumot hamda tegishli jadvallar.*

41.2. INDIKATOR

Oliy ta'lim tashkilotining bino va inshootlari va moddiy-texnik bazasi mehnatni muhofaza qilish qoidalari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari, shaharsozlik normalari va qoidalari hamda yong'in va texnika xavfsizligi qoidalariga javob beradi

Yordamchi savollar:

❖ *Oliy ta'lim tashkilotining bino va inshootlari hamda moddiy-texnik bazasining mehnatni muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena, shaharsozlik, yong'in va texnika xavfsizligi qoidalariga muvofiqligi qanday hujjatlar va tekshiruvlar bilan tasdiqlangan?*

❖ *Mazkur talablarga rioya etilishini ta'minlash uchun qanday ichki nazorat, profilaktik tekshiruvlar va rejalashtirilgan tadbirlar amalga oshirilgan?*

❖ *Aniqlangan kamchiliklar va xavf-xatarlarni bartaraf etish hamda infratuzilmani doimiy ravishda xavfsiz holatda saqlash bo'yicha qanday chora-tadbirlar ko'rilgan va ularning ijrosi qanday monitoring qilingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Bino va inshootlar, moddiy-texnik bazasi jihozlanish va boshqa me'yorlariga muvofiqligi to'g'risidagi ma'lumotnoma (yo'riqnomalar va aktlar).*

41.3. INDIKATOR

Ta'lim dasturidan kelib chiqqan holda laboratoriya va amaliy mashg'ulotlari talabalarning amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, musiqa asboblari, texnik vositalar, reagentlar, xomashyo materiallari yoki boshqa vositalar bilan ta'minlangan*

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim dasturlarida belgilangan o'quv natijalaridan kelib chiqqan holda laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar uchun qanday asbob-uskunalar, jihozlar va boshqa zarur vositalar bilan ta'minlangan?*

❖ *Mazkur asbob-uskunalar va materiallarning miqdori, holati va yangilanish darajasi talabalarning amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirish talablariga qanday muvofiq keladi?*

❖ *Laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar uchun ajratilgan jihozlar va vositalardan foydalanish samaradorligi hamda yetarliligi qanday monitoring va tahlil mexanizmlari orqali baholanadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Laboratoriya va amaliy mashg'ulot xonalarining tegishli jihozlar va inventarlar bilan ta'minlanganligi to'g'risidagi ma'lumotlar va asoslantiruvchi hujjatlar (16-jadval)*

41.4. INDIKATOR

Talabalar va professor-o'qituvchilarning elektron ta'lim platformalari (LMS, Zoom, Moodle, Google Classroom va boshqalar) hamda dasturiy ta'minotga kirish imkoniyati mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Talabalar va professor-o'qituvchilar uchun qaysi elektron ta'lim platformalari (LMS, Zoom, Moodle, Google Classroom va boshqalar) hamda dasturiy ta'minotlarga kirish imkoniyati yaratilgan?*

❖ *Mazkur platformalar va dasturiy ta'minotlardan foydalanish uchun foydalanuvchilarga login-parollar, texnik yo'riqnomalar va metodik ko'mak qanday tartibda taqdim etilgan?*

❖ *Elektron ta'lim platformalaridan foydalanish darajasi va ularning o'quv jarayoni samaradorligiga ta'siri qanday monitoring va tahlil mexanizmlari orqali baholanadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Dasturiy ta'minotga kirish imkoniyati yaratilganligi to'g'risida ma'lumot va asoslovchi hujjat(lar).*

41.5. INDIKATOR

Ta'lim jarayonlari uchun zarur bo'lgan amaliyot bazalari, laboratoriyalari va ustaxona moddiy-texnik baza, jihozlar va asbob-uskunalarini modernizatsiya qilish yoki yangi texnologiyalarni joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi (yillik reja) ishlab chiqilgan va ijro etilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim jarayonlari uchun zarur bo'lgan amaliyot bazalari, laboratoriyalar va ustaxonalarning moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish yoki yangi texnologiyalarni joriy etish bo'yicha yillik chora-tadbirlar rejasini qanday ehtiyoj tahlili asosida ishlab chiqilgan?*

❖ *Mazkur chora-tadbirlar rejasida qaysi modernizatsiya ishlari va yangi texnologiyalarni joriy etish tadbirlari belgilangan hamda ularning ijrosi qanday ta'minlangan?*

❖ *Yillik rejaning ijrosi natijalari va modernizatsiya ishlari o'quv jarayonining sifati hamda talabalarning amaliy tayyorgarligiga ta'siri qanday monitoring va tahlil qilingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Yillik reja va uning ijrosi haqida hisobot (17-jadval)*

41.6. INDIKATOR

Infratuzilma va uni rivojlantirish uchun ajratilgan mablag'lardan foydalanish bo'yicha moliyaviy hisobotlar mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Infratuzilma va uni rivojlantirish uchun ajratilgan mablag'lar qaysi manbalar (budget, grantlar, kontrakt tushumlari, homiylik yoki boshqalar) hisobidan shakllantirilgan va qanday yo'nalishlar bo'yicha sarflangan?*

❖ *Mazkur mablag'lardan foydalanish bo'yicha moliyaviy hisobotlar qanday davriylikda tayyorlangan va qaysi moliyaviy hujjatlar (smeta, xarajatlar reyestri, dalolatnomalar) bilan tasdiqlangan?*

❖ *Infratuzilmani rivojlantirish uchun ajratilgan mablag'lardan foydalanish samaradorligi qanday tahlil qilingan va ushbu tahlillar asosida qanday boshqaruv qarorlari qabul qilingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Infratuzilmalarni rivojlantirish va foydalanish bo'yicha yillik moliyaviy hisobot.*

41.7. INDIKATOR

Oliy ta'lim tashkilotining talabalar turar joy(lar)i mavjud hamda uning faoliyati yo'lga qo'yilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Oliy ta'lim tashkilotining talabalar turar joy(lar)i mavjudligi va ularning umumiy sig'imi talabalar kontingentiga qanday mos keladi?*

❖ *Talabalar turar joy(lar)i faoliyatini tashkil etish, boshqarish va ulardan foydalanish tartibi qanday ichki hujjatlar bilan belgilangan?*

❖ *Talabalar turar joy(lar)i faoliyatining samaradorligi va talabalar yashash sharoitlariga ta'siri qanday monitoring va tahlil mexanizmlari orqali baholanadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Talabalar turar joyi va uning faoliyati to'g'risida ma'lumot va asoslovchi hujjat(lar) (18-jadval)*

42. MEZON: Ta'lim jarayonlari uchun zarur bo'lgan amaliyot bazalari va laboratoriyalari mavjudligi yoki sanoat hamkorlari va boshqa ta'lim tashkilotlari bazalaridan foydalanish yo'lga qo'yilgani

Izoh: *Ta'lim dasturlari talablaridan kelib chiqib amaliy mashg'ulotlar, ilmiy tadqiqotlar va loyihalarni tashkil etish uchun zarur bazalar va laboratoriya jihozlari bilan ta'minlanganligi, hamda amaliyot imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida sanoat hamkorlari va boshqa ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlik yo'lga qo'yilganligi baholanadi*

42.1. INDIKATOR

Amaliyot o'tish uchun zarur moddiy-texnik baza va infratuzilma (laboratoriyalar, maxsus xonalar, amaliyot xonalari, amaliyot bazalari) mavjud va faoliyat ko'rsatadi

Yordamchi savollar:

❖ *Amaliyot o'tish uchun zarur bo'lgan laboratoriyalar, maxsus xonalar, amaliyot xonalari va amaliyot bazalari qanday ta'lim dasturlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda shakllantirilgan?*

❖ *Mazkur moddiy-texnik baza va infratuzilmaning jihozlanishi hamda foydalanish holati talabalarining amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirish talablariga qanday mos keladi?*

❖ *Amaliyot bazalari va infratuzilmaning faoliyati hamda samaradorligi qanday monitoring va tahlil mexanizmlari orqali baholanadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Amaliyot o'tish uchun zarur moddiy-texnik baza va infratuzilma haqida ma'lumot va asoslovchi hujjat(lar) (8-jadval).*

42.2. INDIKATOR

Ta'lim dasturiga mos laboratoriya, maxsus xonalar, amaliyot xonalari va amaliyot bazalari tashkil etilgan hamda zarur jihozlar va asbob-uskunalar bilan ta'minlangan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim dasturlariga muvofiq laboratoriyalar, maxsus xonalar, amaliyot xonalari va amaliyot bazalari qanday mezonlar asosida tashkil etilgan?*

❖ *Mazkur laboratoriya va amaliyot xonalari zarur jihozlar va asbob-uskunalar bilan qay darajada ta'minlangan hamda ularning yetarliligi va texnik holati qanday baholangan?*

❖ *Ta'lim dasturiga mos infratuzilma va jihozlardan foydalanish samaradorligi hamda ularning talabalarning amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirishga ta'siri qanday monitoring va tahlil qilingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim dasturi bo'yicha zarur moddiy-texnik baza va infratuzilma haqida ma'lumot va asoslovchi hujjatlar (tegishli jadval asosida).*

42.3. INDIKATOR

Laboratoriya, maxsus xonalar va amaliyot xonalaridagi jihozlar va asbob-uskunalar ishchi holatida hamda ularni yangilash va kalibrovka qilish bo'yicha rejali ishlar amalga oshirilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Laboratoriya, maxsus xonalar va amaliyot xonalaridagi jihozlar hamda asbob-uskunalarining ishchi holati qanday tartibda va qaysi davriylikda tekshirilib borilgan?*

❖ *Jihozlar va asbob-uskunalarni yangilash hamda kalibrovka qilish bo'yicha qanday rejalar ishlab chiqilgan va ularning ijrosi qanday hujjatlar bilan tasdiqlangan?*

❖ *Rejali yangilash va kalibrovka ishlarining ta'lim jarayoni sifati hamda amaliy mashg'ulotlar xavfsizligiga ta'siri qanday monitoring va tahlil qilingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Amalga oshirilgan rejali ishlar haqida ma'lumot va asoslovchi hujjat(lar).*

42.4. INDIKATOR

Sanoat hamkorlari va boshqa ta'lim tashkilotlarining bazalaridan foydalanish bo'yicha hamkorlik kelishuvlari mavjud hamda ushbu tashkilotlarda talabalar uchun mashg'ulotlar va amaliyotlar tashkil etilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Sanoat hamkorlari va boshqa ta'lim tashkilotlarining bazalaridan foydalanish bo'yicha qaysi hamkorlik kelishuvlari (shartnomalar, memorandumlar) tuzilgan va ular qaysi ta'lim dasturlarini qamrab oladi?*

❖ *Mazkur hamkor tashkilotlar bazalarida talabalar uchun qanday mashg'ulotlar va amaliyotlar (ishlab chiqarish amaliyoti, laboratoriya mashg'ulotlari, qo'shma treninglar) tashkil etilgan?*

❖ *Hamkor tashkilotlar bazalarida o'tkazilgan mashg'ulotlar va amaliyotlarning talabalarning amaliy ko'nikma va kasbiy tayyorgarligiga ta'siri qanday monitoring va tahlil qilingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Sanoat hamkorlari va boshqa ta'lim tashkilotlarining bazalaridan foydalanish bo'yicha ma'lumot va asoslantiruvchi hujjat(lar).*

42.5. INDIKATOR

Amaliyot bazalaridan foydalanish tartibi va rejasi ishlab chiqilgan hamda amalga oshirilishi doimiy monitoring qilib borilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Amaliyot bazalaridan foydalanish tartibi va rejasi qanday normativ-huquqiy va ichki hujjatlar asosida ishlab chiqilgan hamda qaysi organlar tomonidan tasdiqlangan?*

❖ *Mazkur tartib va reja asosida amaliyot jarayonlarini tashkil etish va amalga oshirish qanday mexanizmlar orqali yo'lga qo'yilgan?*

❖ *Amaliyot bazalaridan foydalanish rejasining ijrosi va amaliyot jarayonlarining samaradorligi qanday monitoring va tahlil mexanizmlari orqali baholanadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Amaliyot bazalaridan foydalanish bo'yicha ma'lumot va asoslovchi hujjat(lar).*

42.6. INDIKATOR

Talabalar uchun tashkilotlar, korxonalar va muassasalarda amaliyotlar tashkil etilgan hamda ularda ishtirok etish natijalari bo'yicha hisobot yuritish tizimi yo'lga qo'yilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Talabalar uchun tashkilotlar, korxonalar va muassasalarda amaliyotlar qaysi ta'lim dasturlari kesimida va qanday hamkorlik kelishuvlari asosida tashkil etilgan?*

❖ *Amaliyot jarayonida talabalarning ishtiroki, bajarilgan ishlar va erishilgan amaliy natijalar qanday tartibda qayd etilgan va baholangan?*

❖ *Amaliyotlarda ishtirok etish natijalari bo'yicha hisobotlarni yuritish tizimi qanday shakllantirilgan va ushbu hisobotlar o'quv jarayonini takomillashtirishda qanday tahlil qilingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Tashkil etilgan amaliyotlar bo'yicha ma'lumot va asoslovchi hujjat(lar).*

42.7. INDIKATOR

Amaliyotlar natijalari tahlil qilingan, ular asosida o'quv jarayoni hamda o'quv dasturlarini takomillashtirish choralari ko'rilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Talabalarning amaliyotlari natijalari qanday mezonlar va ko'rsatkichlar asosida tahlil qilingan?*

❖ *Amaliyot natijalari tahlili jarayonida o'quv jarayoni va o'quv dasturlarida qanday muammo va ehtiyojlar aniqlangan?*

❖ *Aniqlangan muammolar va xulosalar asosida o'quv jarayoni hamda o'quv dasturlarini takomillashtirish bo'yicha qanday aniq chora-tadbirlar amalga oshirilgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Tahlil natijalari, takomillashtirish bo'yicha ma'lumot va asoslovchi hujjat.*

43. MEZON: Axborot-resurs markazining (kutubxonaning) talabalar kontingentiga mos o'quv va badiiy adabiyotlar, axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda unda o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi !

Izoh: Axborot-resurs markazi (kutubxona) ta'lim dasturlari talablaridan kelib chiqib talabalar soniga mos o'quv, ilmiy va badiiy adabiyotlar, elektron manbalar va AKT vositalari bilan ta'minlanganligi hamda o'quv zali, elektron kutubxona va ma'lumotlar bazasi orqali ta'lim jarayonini qo'llab-quvvatlash tizimi baholanadi

43.1. INDIKATOR

Oliy ta'lim tashkiloti talabalar kontingentidan kelib chiqqan holda fanlar (modullar) bo'yicha asosiy o'quv va ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlangan

Yordamchi savollar:

❖ *Talabalar kontingenti va ta'lim dasturlaridan kelib chiqqan holda fanlar (modullar) bo'yicha asosiy o'quv va ilmiy adabiyotlarga bo'lgan ehtiyoj qanday aniqlangan?*

❖ *Mazkur ehtiyoj asosida fanlar (modullar) kesimida qaysi o'quv va ilmiy adabiyotlar (bosma va elektron shaklda) bilan ta'minlangan?*

❖ *O'quv va ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlanganlik darajasi hamda ularning foydalanish samaradorligi qanday monitoring va tahlil mexanizmlari orqali baholanadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *O'quv va ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlanganligi to'g'risidagi ma'lumot(jadval asosida) (15.b-jadval)*

43.2. INDIKATOR

ARMning fondi tarkibi va undan foydalanish ko'rsatkichlari, shu jumladan kitoblar sonining (elektron manbalarining) talabalar soniga nisbati o'quv-metodik ta'minotga qo'yiladigan minimal talablarga mos keladi*

Yordamchi savollar:

❖ *ARM fondi tarkibi (bosma va elektron resurslar) fanlar (modullar) va ta'lim dasturlari kesimida qanday shakllantirilgan?*

❖ *Kitoblar va elektron manbalar sonining talabalar kontingentiga nisbati qaysi me'yoriy hujjatlar va minimal talablarga muvofiq holda hisoblangan?*

❖ *ARM fondidan foydalanish ko'rsatkichlari (o'qish zaliga tashriflar, berilgan adabiyotlar, elektron resurslarga kirishlar) qanday monitoring va tahlil qilingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *ARM fondi va undan foydalanish ko'rsatkichi haqida ma'lumot hamda fondning minimal talablarga mosligini asoslovchi hujjatlar (tegishli jadvallar asosida).*

43.3. INDIKATOR

Talabalar, ilmiy izlanuvchilar va professor-o'qituvchilar uchun elektron kutubxona va raqamli ta'lim resurslari, shu jumladan xalqaro ma'lumotlar bazalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Talabalar, ilmiy izlanuvchilar va professor-o'qituvchilar uchun qaysi elektron kutubxona, raqamli ta'lim resurslari hamda xalqaro ma'lumotlar bazalariga (masalan, Scopus, Web of Science, EBSCO va boshqalar) kirish imkoniyati yaratilgan?*

❖ *Mazkur elektron va raqamli resurslardan foydalanish uchun foydalanuvchilarga qanday texnik va tashkiliy shart-sharoitlar (login/parollar, IP-manzil, yo'riqnomalar, treninglar) ta'minlangan?*

❖ *Elektron kutubxona va xalqaro ma'lumotlar bazalaridan foydalanish darajasi hamda ularning o'quv va ilmiy faoliyat samaradorligiga ta'siri qanday monitoring va tahlil qilingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Elektron kutubxona va xalqaro ma'lumotlar bazalaridan foydalanish bo'yicha ma'lumot hamda asoslovchi hujjat(lar).*

43.4. INDIKATOR

ARM zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (kompyuterlar, internet, elektron katalog, elektron qurilmalar yoki boshqalar) bilan jihozlangan, internet tarmog'iga ulanish imkoniyati yaratilgan hamda ulardan foydalanish bo'yicha talabalarga tushuntirishlar berilgan

Yordamchi savollar:

❖ *ARM zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (kompyuter, internet, elektron katalog, elektron qurilma va b.) bilan qay darajada jihozlangan?*

❖ *Talabalar uchun ARMda internet tarmog'iga ulanish va elektron resurslardan foydalanish imkoniyatlari qanday tartibda tashkil etilgan?*

❖ *ARM imkoniyatlaridan samarali foydalanish bo'yicha talabalarga qanday tushuntirishlar, yo'riqnomalar yoki treninglar o'tkazilgan va ularning natijalari qanday baholangan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *ARMning tegishli jihozlar bilan ta'minlanganligi hamda ulardan foydalanish bo'yicha berilgan tushuntirishlar haqida ma'lumot va asoslovchi hujjat(lar)*

43.5. INDIKATOR

Elektron kutubxonaning axborot-kutubxona fondida ta'lim dasturlari bo'yicha darsliklar, o'quv qo'llanma va adabiyotlar, o'qitish materiallari to'plami, raqamli ta'lim resurslari va multimedia kontentlar raqamli formatda joylashtirilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Elektron kutubxona axborot-kutubxona fondida ta'lim dasturlari kesimida qaysi turdagi resurslar (darsliklar, o'quv qo'llanmalar, o'qitish materiallari, raqamli ta'lim resurslari, multimedia kontentlar) raqamli formatda joylashtirilgan?*

❖ *Mazkur raqamli resurslarning ta'lim dasturlari va fanlar (modullar) bilan mosligi hamda ularning dolzarbligi qanday tartibda ta'minlangan?*

❖ *Elektron kutubxona fondidagi raqamli resurslardan foydalanish darajasi va ularning o'quv jarayoni samaradorligiga ta'siri qanday monitoring va tahlil qilingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Elektron kutubxona haqida ma'lumotlar.*

43.6. INDIKATOR

ARM sohaviy ilmiy nashrlar va jurnallar bilan ta'minlangan hamda elektron katalog va onlayn foydalanish tizimi yaratilgan va muntazam yangilangan

Yordamchi savollar:

❖ *ARM qaysi sohaviy ilmiy nashrlar va jurnallar (bosma va elektron shaklda) bilan ta'minlangan hamda ularni tanlashda qaysi mezonlar asos qilib olingan?*

